

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**SHOIRA USMANOVA,
GULCHEXRA RIXSIYEVA**

MADANIYATLARARO MULOQOT

O‘quv qo‘llanma

Toshkent - 2017

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti 5120200 – “Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo'yicha)” ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, “Madaniyatlararo muloqot” fanining o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan. Unda til, madaniyat, madaniyatlar tipologiyasi, kommunikatsiya turlari, verbal va noverbal muloqot, milliy xarakter, stereotiplar, diskursning gender va yosh xususiyatlari, kodlar aralashuvi, madaniyatga moslashish, madaniyatlararo to'siqlar va to'qnashuvlar kabi masalalar yoritilgan. O'quv qo'llanma so'nggida madaniyatlararo muloqotda qo'llaniladigan so'zlarning lug'ati (glossariy) keltirilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma ToshDSHda bajarilayotgan “A-1-180 “Tarjima va madaniyatlararo muloqot masalalariga oid o'quv qo'llanmalari yaratish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida yaratildi. O'quv qo'llanmadan filologiya fakultetlarining talabarlari, magistrantlari, izlanuvchilari, shuningdek, madaniyatlararo muloqot bilan qiziquvchi kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

Данное учебное пособие разработано в соответствии с учебной программой предмета “Межкультурная коммуникация” для студентов направления обучения 5120200 – “Теория и практика перевода (по восточным языкам)” Ташкентского государственного института востоковедения. В данном учебном пособии освещаются вопросы языка и культуры, типологии культур, виды коммуникации, а также вопросы вербальной и невербальной коммуникации, национального характера, стереотипов, гендерных и возрастных особенностей дискурса, переключения кодов, аккультурации, межкультурных барьеров и конфликтов. В конце учебного пособия даны термины межкультурной коммуникации (гlossарий).

Данное учебное пособие создано в рамках научно-исследовательского проекта ТашГИВ “A-1-180 Создание учебных пособий по вопросам перевода и межкультурной коммуникации”, и может быть использовано студентами и магистрантами филологических факультетов, исследователями, а также широкой массой читателей.

The current tutorial is prepared in accordance with the curriculum for the subject "Intercultural communication" for students of specialty 5120200 – “Translation Theory and Practice (on oriental languages)” of Tashkent State Institute of Oriental Studies. Language and culture, typology of cultures, types of communication, verbal and non-verbal communication, national identity, stereotypes, gender and age features of discourse, code switching, cultural adaptation, intercultural barriers and conflicts are considered in this book. At the end of the tutorial, the vocabulary of intercultural communications terms (glossary) are given.

The tutorial is prepared on the base of a research project TSIO “A-1-180 Creating training manuals on translation and intercultural communication” and can be used by students and undergraduates of philological faculties, researches, as well as wide mass of readers.

Mas'ul muharrir:

Xayrulla Hamidov

Taqrizchilar:

Durdona Xudoyberganova, filologiya fanlari doktori
Shaxina Ibrohimova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

O'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Kengashining 2017-yil 2-oktabrdagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Turli xalqlar, tillar va madaniyatlar yaqinlashgan bugungi kunda, xorijiy tillarni o'rganish bilan birga, boshqa madaniyatlarga ham qiziqish ortib bormoqda. Madaniyatlararo, xalqaro muloqot masalalari umume'tiborni tortmoqda. Madaniyatlararo muloqot muammolari bilan shug'ullangan aksariyat xorijlik tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, chet elliklar bilan muomalada bo'lganda grammatik, leksik va uslubiy xatolar kechiriladi, chunki bu ulardagi til bilimining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Biroq muloqot jarayonida ijtimoiy-madaniy me'yorlarning, odob-axloq qoidalarining buzilishi salbiy qabul qilinadi. Chunki bunday me'yorlarning buzilishi muayyan madaniyat vakilining kamsitilishi yoki haqoratlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Kommunikativ xatolar madaniy shok holatini yuzaga chiqarib, shaxslararo va millatlararo muloqotning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga, hatto jiddiy to'qnashuv, geosiyosiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, globallashtiruv, standartlashuv, integratsiyalashuv va madaniyatlarning aralashuvi yuz berayotgan bugungi kunda madaniyatlararo muloqot muammolarini o'rganish, ularni tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi kunda til bilishning o'zi kommunikatsiya ishtirokchilari bir-birini tushunishlari uchun yetarli bo'lmaydi. O'zaro munosabatlarning muvaffaqiyatli va samarali bo'lishi uchun nutq ishtirok etgan va ishtirok etmagan muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy me'yorlar, odob-axloq qoidalari, kommunikatsiyadagi ustuvor xususiyatlar hamda xushmuomalalikning milliy tizimi haqida bilimga ega bo'lish kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, 5120200 – “Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo'yicha)” ta'lim yo'nalishining o'quv rejasiga “Madaniyatlararo muloqot” fani kiritildi. Zero, yoshlarimizning Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning ta'kidlaganidek: “mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi”¹ o'ta muhim vazifalardan biridir.

“Madaniyatlararo muloqot” fanining maqsadi – muloqot masalalarini asosan til va madaniyatga e'tibor bergan holda tahlil qilishdan, farqli madaniyatlar orasidagi kommunikatsiyani osonlashtirish va to'qnashuvlarni oldini olishdan iborat.

Talabalarni madaniyatlararo muloqot masalalaridan xabardor etish, ularga kommunikatsiya turlari, verbal va noverbal muloqot vositalaridan foydalanish, kommunikatsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, til va madaniyatning o'zaro aloqasi, shaxs va uni shakllantiruvchi omillar, milliy xarakter, madaniyatlararo to'siqlar va to'qnashuvlarni bartaraf etish yo'llarini o'rgatish, diskursning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil etish “Madaniyatlararo muloqot” fanining asosiy vazifalari hisoblanadi.

¹ Mirziyoyev Sh. M. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B. 14.

O'zbek tarjimashunosligi, tilshunosligi va madaniyatshunosligida ilk bor tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma Kirish, to'rtta bob va glossariydan iborat. Kirish qismida "Madaniyatlararo muloqot" fanining mohiyati, maqsadi va vazifalari, uning asosiy masalalari ochib berilgan.

Birinchi bob madaniyatlararo muloqotning shakllanishi va rivojlanishi, uning maqsadi va vazifalari, til, madaniyat, madaniyatlar tipologiyasi va kommunikatsiya kabi madaniyatlararo muloqotning asosiy masalalarini yoritishga bag'ishlangan.

Ikkinchi bobda kommunikativ faoliyat bilan bog'liq masalalar, xususan, kommunikativ faoliyat darajalari, kommunikatsiya turlari, verbal va noverbal kommunikatsiya vositalarining talqini berilgan.

Uchinchi bob madaniyatlararo muloqot jarayonlarining tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda shaxs, milliy va hududiy xarakter, stereotiplar, gender, yosh va diskurs xususiyatlari, kodlar aralashuvi hamda interferensiya masalalari yoritilgan.

To'rtinchi bobda madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyat kasb etgan madaniyatga moslashish, madaniyatlararo to'siqlar va to'qnashuvlar, madaniy va lisoniy shok hodisalari bayon etilgan.

Mavzular zamonaviy grafik organayzerlar asosida yoritilgan bo'lib, har bir mavzuning so'nggida nazorat uchun savollar, mustaqil ish uchun topshiriqlar va adabiyotlar ro'yxati berilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanmaga madaniyatlararo muloqot terminlarini o'z ichiga glossariy ilova qilingan.

Ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlashda Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. New York, 2010; Klenberg O. Tensions Affecting International Understanding. New York, 1950; Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб., 2007; Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. М., 2009 va boshqa asarlardan, shuningdek, internet ma'lumotlaridan istifoda etildi.

I BOB. MADANIYATLARARO MULOQOTNING ASOSLARI

1-MA'RUZA

MADANIYATLARARO MULOQOTNING ASOSIY MASALALARI

Reja:

1. “Madaniyatlararo muloqot” fanining maqsadi va vazifalari
2. “Madaniyatlararo muloqot” tushunchasining mohiyati va o‘ziga xos xususiyati
3. Madaniyatlar o‘zaro ta‘sirining darajalari

Tayanch so‘z va iboralar: madaniyatlararo muloqot, madaniyatlar kesishuvi, kommunikatsiya, til, madaniyat, diskriminatsiya, milliy xarakter, o‘zaro ta‘sir, etnik daraja, milliy daraja, sivilizatsiya darajasi, donor-madaniyat, retsiptiyent-madaniyat.

1. 1. “Madaniyatlararo muloqot” fanining maqsadi va vazifalari

Inson – ijtimoiy mohiyat. Inson jamiyatda yashaydi va tabiiyki, u mazkur jamiyatning boshqa a‘zolari bilan muloqot qilishi lozim bo‘ladi. *Kommunikatsiya* termini ham lotincha *communication*, *communis* “umumiy” so‘zidan kelib chiqqan.

Demak, so‘z insonlarni bir-biri bilan bog‘laydi, ularni muloqot vositasida birlashtiradi. Muloqotsiz jamiyat bo‘lmaydi, jamiyatsiz ijtimoiy inson, madaniy va ongli inson *homo sapiens* bo‘lmaydi. So‘z tilda mujassamlashib, insonni hayvonot dunyosidan ajratadi. Hech qaysi bir fan, hech qaysi bir ilm so‘zsiz mavjud bo‘lmaydi. Hech bo‘lmaganda, bilim va tajribalarni shakllantirish, ularni qayd qilib kelgusi avlodga qoldirish uchun ham so‘zlar kerak bo‘ladi. Xullas, muloqot insoniyat borligining tamali, sinchini tashkil qiladi.

“Madaniyatlararo muloqot” fanining maqsadi – muloqot masalalarini asosan til va madaniyatga e‘tibor bergan holda tahlil qilishdan, farqli madaniyatlar orasidagi kommunikatsiyani osonlashtirish va to‘qnashuvlarni oldini olishdan iborat.

Hozirgi kunda turli xalqlar, tillar, madaniyatlar aralashgan bir paytda, boshqa madaniyatlarga qiziqish, ularni hurmat qilish, ularni tushunishga harakat qilish, ularga sabr-toqat bilan yondashishni o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Aynan shu tufayli madaniyatlararo, xalqaro muloqot masalalari umume‘tiborni tortdi.

Qanday omillar kommunikatsiyaga yordam beradi, nimalar unga to‘sqinlik qiladi, turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilishni nimalar qiyinlashtiradi? Til va madaniyat bir-biri bilan qanday munosabatda bo‘ladi? Tilning shaxsning shakllantirishidagi ta‘siri qanday bo‘ladi? Tilda individual va jamoaviy mentalitet, mafkura, madaniyat qanday aks etadi va qay tarzda shakllanadi? Milliy xarakter nima va u til bilan qanday shakllanadi? Chet tillarini o‘rganishda ijtimoiy-madaniy omilning roli qanday bo‘ladi? Ona tilidagi birlamchi dunyo manzarasi va boshqa

tillarni o'rganish jarayonidagi ikkilamchi dunyo manzarasi til va madaniyatda qanday vujudga keladi? Nima uchun butun dunyoni madaniyatlararo muloqot va madaniyatlararo to'qnashuv muammolari tashvishga solib qo'ydi? Mashhur amerikalik siyosatshunos olim Samuel Xantingtonni uchinchi jahon urushi siyosiy yoki iqtisodiy emas, balki madaniyatlar va sivilizatsiyalar urushi bo'ladi, deb bashorat qilishiga sabab nima edi?¹.

Demak, "Madaniyatlararo muloqot" fani yuqorida qayd etilgan savollarga javob beradi.

Amerikalik tadqiqotchilar Judith Martin va Thomas Nakayamaning "Madaniyatlararo muloqot vaziyatlarida" (Intercultural communication in contexts) nomli asarida madaniyatlararo muloqot masalalarini ko'rsatish uchun Muhammad va Aleksning quyidagi tajribalarini keltirishadi:

¹ Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. –М.: Слово, 2000. –С. 8-9.

“Amerika Qo‘shma Shtatlarida kollejni tamomlab Quvaytga qaytganimda madaniyatimiz va dinimiz haqida hamma narsani bilib olgandim. Biroq men boshqa dunyo (AQSh)dagi kishilarning Yaqin Sharq yoki musulmonlar haqida qanday o‘ylashlarini bilmasdim. Shunday qilib, bu mamlakatda nafaqat mening irqimga qarshi, balki boshqa guruhlariga ham qarshi bo‘lgan ko‘plab diskriminatsiya holatlarining guvohi bo‘ldim... Shunday bo‘lsa-da, amerikaliklarning hammasi ham bizdan nafratlanmasligini tushundim, men bilan hamkorlik qilgan, menga mehr va xayrxohlik ko‘rsatgan juda ko‘p amerikaliklar bilan tanishdim” (Muhammad).

“Dunyoni pul boshqardi. Dunyoda kuchli, qudratli bo‘lishning birdan-bir yo‘li bu iqtisodiy maqomga ega bo‘lishdir. Iqtisodiy maqomni qo‘lga kiritishning asosi esa turli madaniyat vakillari bilan muzokara olib borish va hamkorlik qilish hisoblanadi. Hozirgi kundagi mavjud texnologiyalar bu vazifani osonlashtiradi” (Aleks).

Muhammad va Aleksning tajribalari madaniyatlararo muloqotning imkoniyatlari va muammolarini ko‘rsatib beradi. Madaniyatlararo munosabatlar orqali ko‘plab xalqlar va madaniyatlar, shuningdek, o‘zimiz va madaniyatimiz haqida bilib olishimiz mumkin bo‘ladi. Ayni paytda, ko‘plab muammolar bilan ham duch kelinadi. Binobarin, madaniyatlararo muloqot stereotiplar va diskriminatsiya kabi to‘siqlarni ham o‘z ichiga oladi. Mazkur munosabatlar murakkab tarixiy va siyosiy vaziyatlardan o‘rin oladi¹.

Shunday qilib, “Madaniyatlararo muloqot” fani kommunikatsiya turlari, verbal va noverbal muloqot, kommunikatsiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, kommunikatsiyadagi to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari, til va madaniyat munosabati, mentalitet, milliy xarakter, mafkura, olam manzarasining madaniyat va tilda ifodalanishi, madaniyatlararo to‘qnashuvlar, diskriminatsiyalar, stereotiplar, turli madaniyatlardagi ramzlar, tabular va evfemizmlarning talqini, gender va h.k. masalalarni tadqiq etadi.

1.2. “Madaniyatlararo muloqot” tushunchasining mohiyati va o‘ziga xos xususiyati

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. -5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. -P. 4.

Madaniyatlararo muloqot (Intercultural Communication) – turli madaniyat vakillari orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot bo‘lib, unda kishilar o‘rtasidagi bilvosita aloqa, shuningdek, kommunikatsiyaning bilvosita shakli (til, nutq, yozuv, elektron muloqot) nazarda tutiladi. Ba’zan madaniyatlararo muloqot “madaniyatlar kesishuvi” (“cross-cultural”)ni ham ifodalaydi.

Inson boshqa odamlardan ayro holda yashay olmaganidek, bironta ham madaniyat boshqa xalqlarning madaniy yutuqlaridan ihtotalan holda to‘laqonli mavjud bo‘la olmaydi. Kishilar hayot faoliyati davomida muntazam ravishda o‘z o‘tmishiga yoki boshqa madaniyatlarning tajribasiga murojaat qiladilar. Hozirgi kunda Yer kurrasining chekka joylarida qolib ketgan ayrim kichik mahalliy qabilalarni istisno qilganda, dunyodan mutlaqo uzilgan madaniy hamjamiyatlar mavjud emas. Bugungi kunda har qanday xalq o‘zga madaniyat tajribasini qabul qilishga va o‘z madaniyati mahsulini boshqa xalqlar bilan bo‘lishishga tayyorligi tabiiydir. Boshqa xalqlar madaniyatiga bo‘lgan bunday munosabat “madaniyatlararo muloqot” yoki “madaniyatlarning o‘zaro aloqasi” deb nomlanadi¹.

Madaniyatlarning o‘zaro aloqasi haqida so‘z yuritilganda, yirik guruhlar (madaniyatlar va submadaniyatlar) orasidagi munosabatlar nazarda tutiladi. Zamonaviy rivojlanish sharoitida madaniy aloqalar inson hayotining turli sohalarida – turizm, sport, shaxsiy aloqalar va h.k.da amalga oshadi. Bundan tashqari, keying yillarda dunyoda yuz bergan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar xalqlarning katta miqyosdagi migratsiyasiga, ko‘chishiga va ularning aralashuviga olib keldi. Ushbu jarayonlar natijasida aksariyat kishilar ilgari ularni ajratib turgan madaniy to‘siqlarni yengib bormoqda. Ular o‘zga madaniyatlar bilan tanishishga, ular bilan aralashib ketishga majbur bo‘lmoqda. Shuning uchun madaniyatlarning o‘zaro aloqasi alohida kishilar orasidagi munosabatlar orqali amalga oshmoqda.

Ma’limki, madaniyatlararo muloqot “xabar yuboruvchi” va “xabarni qabul qiluvchi” turli madaniyatlarga mansub bo‘lganda, shuningdek, kommunikatsiya ishtirokchilari bir-birining madaniy farqlarini tushunib yetganda amalga oshadi.

Madaniyatlararo muloqot – muayyan madaniyat va til sohiblarining o‘zga madaniyat va til vakillari bilan verbal (nutqli) va noverbal (nutqsiz) muloqot vositasidagi o‘zaro aloqa jarayonidir. Bunday muloqotning har bir ishtirokchisi o‘zining shaxsiy qoidalari tizimiga ega bo‘ladi.

Madaniyatlararo muloqot – turli madaniyat vakillari orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot bo‘lib, unda kishilar o‘rtasidagi bilvosita aloqa, shuningdek,

¹ <http://www.grandars.ru/college/sociologiya/mezhkulturnaya-kommunikaciya.html>

kommunikatsiyaning bilvosita shakli (til, nutq, yozuv, elektron muloqot) nazarda tutiladi.

Madaniyatlararo muloqot mohiyatan maxsus vaziyatdagi shaxslararo kommunikatsiya bo'lib, u bir ishtirokchi boshqa ishtirokchining madaniy farqini sezganda yuzaga chiqadi. Bunday muloqot turli madaniyatlardagi har qanday insonga xos bo'lgan farqli umidlar va ishonchlar bilan bog'liq ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi.

Madaniyatlararo muloqot madaniyat farqlari ko'rinib turgan individlar va guruhlar orasidagi ramziy o'zaro munosabat jarayoniga asoslanadi. Ushbu farqlarning qabul qilinishi va ularga munosabat bildirilishi muloqotning ko'rinishi, shakli va natijasiga ta'sir ko'rsatadi. Madaniyatlararo muloqot jarayoniga madaniyat farqlari bilan birga, muloqotchilarning yoshi, jinsi, kasbi, va ijtimoiy maqomi, shuningdek, uning sabr-bardoshi, uddaburonligi va shaxsiy tajribasi ham ta'sir ko'rsatadi.

Demak, madaniyatlararo muloqot turli madaniyat vakillari orasidagi o'zaro aloqa, muloqotdir. Madaniyatlararo muloqot kommunikativ aktning farqli madaniyatlarga tegishli bo'lgan ikki ishtirokchisining o'zaro bir-birini tushunishidir.

1. 3. Madaniyatlar o'zaro ta'sirining darajalari

Madaniyatlar o'zaro ta'sirining turli darajalari farqlanadi. O'zaro ta'sirning **etnik darajasi** mahalliy xalqlar, tarixiy-etnografik, etnokonfessial va boshqa hamjamiyatlar o'rtasidagi munosabatlarga xosdir. O'zaro ta'sirning **milliy darajasida** boshqaruv vazifalari ko'proq davlatning siyosiy strukturalari tomonidan bajariladi. O'zaro ta'sirning **sivilizatsiya darajasi** o'z-o'zidan yuz beradigan tarixiy shakllarga ega bo'ladi; biroq mazkur darajada ilgari bo'lgani kabi hozirda ham ma'naviy, badiiy va ilmiy yutuqlarni almashish natijalari ko'proq ahamiyat kasb etadi¹.

Dunyo mamlakatlari va xalqlarining kundalik muloqot amaliyotida ko'pincha har uchchala darajaga ham xos bo'lgan jarayonlar va munosabatlarning kesishishi kuzatiladi. Madaniyatlararo aloqalarda, ayniqsa, ko'pmillatli davlatlar ichida bir paytning o'zida etnik tarkibni boshqaradigan ma'muriy-davlat shakllariga ega bo'lgan va bunday shakllarga ega bo'lmagan katta va mayda millatlar ishtirok etadi. Bunda son jihatdan ko'pchilikni tashkil etadigan va madaniy jihatdan shakllangan xalqlar mayda millatlarga nisbatan o'zaro aloqa jarayoniga ko'proq ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunga ko'ra, tadqiqotchilar donor-madaniyat (ko'proq berib, kamroq oladigan) va retsipyent-madaniyat (asosan qabul qiladigan madaniyat)ga ajratishadi. Tarixiy davrlarning muayyan bosqichida mazkur rollar o'zgarishi mumkin.

Madaniyatlarning o'zaro ta'sirida uning strukturasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zaro ta'sirning qadimiy va keng tarqalgan shakllaridan biri xo'jalik

¹ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 7.

texnologiyalari, mutaxassislar almashinuvidir; o'zaro ta'sirning barqaror shakli davlatlararo munosabatlar, siyosiy va huquqiy aloqalar hisoblanadi. Madaniyatlarning o'zaro ta'siri natijasida o'zaro aloqadagi xalqlarning tilida, badiiy yoki diniy amaliyotida, shuningdek, urf-odatlarida o'zgarishlar yuz berishi mumkin.

Madaniyatlar o'zaro ta'sirining shakllari va tamoyillari farqlanadi. Tarixan o'zaro ta'sirning do'stona, ixtiyoriy (bunday holatlarda o'zaro aloqa teng hamkorlikka asoslanadi) hamda zo'rlash, mustamlakaga aylantirish, harbiy yo'l bilan bosib olishga (bunday holatlarda o'zaro aloqa bir tomonlama manfaatga asoslanadi) asoslangan shakllari ma'lum.

Xalqaro aloqalar amaliyoti alohida ahamiyat kasb etadi. Turli mamlakatlar orasidagi madaniyatlararo aloqalarni boshqaradigan siyosiy shaklning faoliyati jarayonida maxsus tashkilotlar va uyushmalar (masalan: BMT, YUNESKO) tomonidan maqsadga yo'naltirilgan o'zaro aloqalar yo'lga qo'yiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Inson qanday mohiyat?
2. So'z qanday vosita?
3. "Madaniyatlararo muloqot" fanining maqsadi nimadan iborat?
4. Muhammad va Aleksning tajribalari madaniyatlararo muloqotning qaysi tomonlarini ko'rsatib beradi?
5. "Madaniyatlararo muloqot" fani qaysi masalalarni tadqiq etadi?
6. "Madaniyatlararo muloqot" tushunchasi nimani ifodalaydi?
7. Madaniyatlar o'zaro ta'sirining qanday darajalari mavjud?
8. Donor-madaniyat nima?
9. Retsipiyent-madaniyat nima?
10. Madaniyatlar o'zaro ta'sirining qanday shakllari mavjud?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. O‘zingiz qarshilashgan madaniyat farqliliklari haqida esse yozing.
2. “Madaniyatlararo muloqot” fanining masalalari mavzusida taqdimot tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
2. Geertz C. The interpretation of culture. –New York: Basic Books, 1973. -473 p.
3. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. –М.: Слово, 2000. -624 с.
4. Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. -77 с.

2-MA'RUZA

MADANIYATLARARO MULOQOTNI O'RGANISH TARIXIDAN

Reja:

1. Madaniyatlararo muloqotning shakllanishi va rivojlanishi
2. Madaniyatlararo muloqotning boshqa fanlar bilan aloqasi

Tayanch soʻz va iboralar: Dimlomatik xizmatlar instituti, milliy madaniyat, etnik madaniyat, tilshunoslik, milliy komponent, antropologiya, fizik antropologiya, madaniy antropologiya, psixologiya, geshtalt, bixeviorizm.

2. 1. Madaniyatlararo muloqotning shakllanishi va rivojlanishi

Madaniyatlararo muloqotga oid tadqiqotlar negizini Ikkinchi Jahon urushidan keyin Amerika Qoʻshma Shtatlarining xalqaro miqyosdagi nufuzining ortishi bilan bogʻlash mumkin. Bu davrda xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan hukumat vakillari va ishbilarmonlarning turli madaniyat vakillari bilan ishlash uchun hali tayyor emasligi sezilib qoldi. Bunga javoban AQSh hukumati tomonidan 1946-yilda “Diplomatik xizmat haqida”gi Qonun qabul qilindi va Dimlomatik xizmatlar instituti – Foreign Service Institute (FSI) tashkil etildi. Dimlomatik xizmatlar instituti qoshida xorijga yuboriladigan kadrlar uchun maxsus tayyorlov kurslari ochilib, ularni rivoshlantirish uchun Edvard T. Hall boshchiligidagi antropolog olimlar va tilshunoslar (Ray Birdwhistell va George Trager) jalb etildi. Bu davrda madaniyatlararo oʻquv materiallari deyarli mavjud emasdi. Shuning uchun oʻquv materiallar kurslarga jalb etilgan mutaxassislar tomonidan tayyorlandi.

“Madaniyatlararo muloqot” tushunchasi birinchi marta 1954-yilda G.Trager va E. Hallning “Madaniyat va kommunikatsiya. Tahlil modeli” nomli asarida ilmiy muomalaga kiritilgan. Mazkur asarda “madaniyatlararo muloqot” insonning oʻz istaklari yoʻlida intilishi lozim boʻlgan ideal maqsadi, uni oʻrab turgan tashqi dunyoga yaxshiroq va samaraliroq moslashishi sifatida talqin qilindi. Shuningdek, asarda madaniyat va kommunikatsiyani oʻrganishning yangi usullari ishlab chiqildi. Shu tariqa madaniyatlararo muloqot yoʻnalishi shakllantirildi va u hozirgi kunda tadqiqotchilar tomonidan nazariy jihatdan yetarli darajada rivojlantirib kelinmoqda.

Dimlomatik xizmatlar instituti tomonidan katta qiziqish bildirilgan hodisalardan biri noverbal muloqot edi. Kommunikatsiyaning noverbal jihatlari tilshunoslar tomonidan atroflicha tadqiq etildi. Tilshunoslar noverbal muloqot ham xuddi til singari madaniyatga bogʻliq boʻladi, degan xulosaga keldilar. Madaniyat va kommunikatsiya tadqiqining muboshiri boʻlgan E. T. Hallning “Sukut tili” - The Silent Language (1959) va “Yashirin jihat” - The Hidden Dimension (1966) kabi asarlari yangi yoʻnalishning shakllanishiga asos boʻldi.

Dimlomatik xizmatlar instituti xodimlari tomonidan hukumat vakillarining madaniyat va kommunikatsiya nazariyasi emas, balki ularni koʻproq xizmatga boradigan mamlakatlardagi boshqaruv tamoyillari qiziqtirayotgani aniqlandi. E. T.

Hallning xorijga yuboriladigan kadrlarlarni maxsus tayyorlov kurslari uchun o'quv materiallarini rivojlantirishdagi asosiy strategiyasi turli madaniyatlar orasidagi farqlarni o'rganish edi. Dimlomatik xizmatlar institutida E. T. Hall bilan birga ishlaydiganlarning aksariyati turli tillarda so'zlashadigan farqli madaniyat vakillari bo'lgani uchun bu yerda madaniyat farqlari haqidagi nazariyani ishlab chiqish imkoniyat katta edi. Masalan, u italyanlar suhbat chog'ida bir-birlari bilan juda yaqin turishini, yunonlar o'zaro muloqotda qo'l harakatlarini ko'p ishlatishlarini, yoki xitoyliklar so'zlashuv paytida juda kam qo'l harakatlaridan foydalanishlarini kuzatishi va tajribalarini tasdiqlash uchun turli madaniy guruh a'zolaridan maslahat olishi mumkin edi. Bugungi kunda ham madaniyatlararo muloqot sohasida yaratilgan ko'pchilik o'quv qo'llanmalarida ushbu tamoyilning saqlanib qolganligini ko'rish mumkin¹.

Madaniyatlararo muloqotni tasvirlashda dastlab madaniyatni klassik tushunishdan foydalanildi. Bunda milliy yoki etnik madaniyatning me'yorlari, qadriyatlari, strukturalari va artefaktlari nazarda tutildi. Hozirgi kunga kelib, madaniyatni dinamik tushunish ustuvorlik qilmoqda. Ya'ni, madaniyat har qanday ijtimoiy guruhning (masalan: shahar madaniyati, avlodlar madaniyati, tashkilotlar madaniyati) turmush tarzi, fe'l-atvori, me'yorlari, qadriyatlari va h.k. tizimi sifatida talqin qilinmoqda.

2. 2. Madaniyatlararo muloqotning boshqa fanlar bilan aloqasi

AQSh Dimlomatik xizmatlar institutida turli soha mutaxassislari, jumladan, tilshunoslar, antropologlar va psixologlar faoliyat olib borishdi. Kommunikatsiyaga oid tadqiqotlarni amalga oshirishda har bir mutaxassis o'zining sohasidagi nazariyalarga tayanib ish ko'rdi. Natijada tilshunoslik, antropologiya va psixologiya sohalarining kesishmasida kommunikatsiyaga kompleks yondashuv yuzaga keldi. Bugungi kunda ham mazkur yondashuv o'z samarasini bermoqda.

Tilshunoslik. Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda "til va madaniyat" masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Til – madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlari, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi.

Agar tilga uning strukturasi, vazifalari va uni o'zlashtirish jihatidan qaraladigan bo'lsa, u holda ijtimoiy qatlam yoki madaniyatning komponenti tilning tarkibiy qismi bo'ladi. Ayni paytda madaniyatning komponenti til orqali xabar qilinadigan qandaydir madaniy informatsiya emas. U tilning barcha sathlariga tegishli bo'lgan tilga xos ajralmas xususiyatdir.

Tilshunoslar madaniyatlararo aloqa masalalarida tilning ahamiyati va rolini tushunishda yordam berishadi. Ular tillarning botiniy va zohiriy strukturalari jihatidan farqlanishini, til va real borliq orasidagi o'zaro aloqalarni yoritib beradilar. Shuningdek, tilshunoslar ikkinchi yoki uchinchi tilni o'rganish

¹¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 45-46.

kishilarning boshqa madaniyatlar haqidagi bilimlarini kengaytirishi, ularning madaniyatlararo salohiyatini kuchaytirishiga xizmat qilishini uqtirishadi.

Antropologiya. Antropologlar madaniyatning inson hayotida muhim rol o'ynashi va noverbal muloqotning ahamiyatini tushunishga yordam berishadi. Jumladan, antropolog Renate Rosaldo (1989) tadqiqotchilarni madaniyatni o'rganish usullarini o'zlashtirishga undagan va ko'pchilik antropolog olimlar uning izidan borgan¹.

Inson madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi masalasi bilan madaniy antropologiya shug'ullanadi. Antropologiya nomidan ham ko'rinib turganidek, inson haqidagi fandir. Biroq inson haqidagi fanlar qatoriga barcha gumanitar va ayrim tabiiy fanlar (tibbiyot va qisman biologiya) ham kiradi. Inson haqidagi fanlarning ko'p bo'lishi tabiiy, chunki inson murakkab, ko'p qirrali mohiyatdir. Shuningdek, mazkur fanlarning barchasi markazida inson bo'lgan kishilik jamiyatida rivojlanadi.

Antropologiya qayd qilingan inson haqidagi fanlardan ajralib turadi. U insonning boshqa jihatlarini birlashtirishga harakat qilib, uning fizik va madaniy rivojlanish jarayonini global va har tomonlama o'rganadi.

Antropologiya fizik antropologiya va madaniy antropologiyaga ajraladi. Fizik antropologiya turli irq-larga mansub bo'lgan insonning biologik kelib chiqishi va uning fizik tuzilishining evolyutsiyasini o'rganadi. Madaniy antropologiya inson madaniyatining shakllanishi va rivojlanishini o'rganadi.

Demak, madaniy antropologiya insoniyat madaniy rivojlanishining umumiy muammolarini o'rganuvchi, o'zida barcha gumanitar fanlar bilimlarini mujassamlashtiruvchi, insonni "Inson" qiluvchi va uni hayvonot dunyosidan ajratuvchi noyob jihatlarini tadqiq etuvchi favqulodda keng fundamental fan hisoblanadi. Binobarin, hayvonlarda muayyan xatti-harakatlar tizimi mavjud bo'lsa-da, ularda madaniyat mavjud emas².

Madaniyat madaniy antropologiyaning predmeti sifatida millat, sinf, guruhlarning muayyan davrdagi hayot tarzini tarkib toptiradigan kishilik jamiyati faoliyatining natijalari yig'indisidir.

Madaniy antropologiya madaniyat rivojining barcha qirralarini, xususan, insonning hayot tarzi, mentaliteti, milliy xarakteri, ma'naviy, ijtimoiy va ishlab chiqarish faoliyatini tadqiq etadi. Madaniy antropologiya insonning madaniyatni muloqot orqali rivojlantirishdek nodir qobiliyatini o'rganadi, til va madaniyatning o'zaro aloqasiga alohida e'tibor qaratadi.

Psixologiya. Madaniyatlararo muloqotni shakllanishi va rivojlanishida psixologiya alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, psixologiyaning geshtalt, bixeviorizm, kommunikatsiya va faoliyat nazariyalari madaniyatlararo muloqot masalalariga bog'lanadi.

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. -P. 47-48.

² Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. -М.: Слово, 2000. -С. 15-16.

Bixeviorizm (ingl. behavior – fe’l-atvor) nazariyasi XX asrning boshlarida AQShda vujudga keldi. Mazkur nazariyaga ko’ra, psixologiyaning predmeti tafakkur emas, balki insonning fe’l-atvoridir. Chunki, bixevioristlarning nazdida tafakkurni bevosita kuzatib yoki o’lchab bo’lmaydi. Bixeviorizm psixikaga kishining hayoti va faoliyati kontekstini kiritadi va uni tashqi ta’sirlar hamda organizmning fiziologik xususiyatlari bilan bog’laydi. Bixeviorizm nuqtayi nazaricha, mahluqqa (bu odam yoki jonivor bo’lishi mumkin va h.k.) ta’sir qiladigan qandaydir stimul (S) va ushbu stimulga qandaydir reaksiya (R) bor ($S \rightarrow R$).

Keyinroq ushbu formula 3 tarkibda yanada mukammallashtirildi: inson organizmi $\times$ stimullar = fe’l-atvor. Bunda tashqi predmet stimullari inson hayot faoliyatining madaniy muhitida shakllanadigan stimullarga o’zgartirildi. Ya’ni, endilikda predmetlar dunyosi o’rnini jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan madaniy belgilar egallaydi. Shunday qilib, baribir yana 2 tarkibli ($S \rightarrow R$) formulaga qaytiladi, faqat stimul endi “madaniy stimul” sifatida talqin qilinadi.

Bu orada boshqa bir psixologiya maktabi – geshtaltpsixologiya (nem. gestalt – shakl, (yaxlit) obraz, (tashqi) ko’rinish) yuzaga keldi. Geshtaltpsixologiya inson fe’l-atvorini “insayt” (ingl. insight – birdan tushunish, aqliga kelish) tushunchasi bilan izohladi. Mazkur tushunchaga universal xarakter berildi. Geshtaltchilar intellektual masalalarni yechishda insaytning asosiy rol o’ynashini da’vo qildilar¹. Tafakkur dinamik bir butun “maydon”, uning tahlil birligi “geshtalt” – butun bir obraz sifatida talqin qilindi.

Keyingi davrdagi psixologlar, masalan, Gordon Allport stereotip tushunchasi, stereotiplarning hayotdagi funksiyalari va madaniyatlararo muloqotni tushunish yo’llarini tadqiq etdilar. Richard Brislin (1999) va Dan Landis (Landis & Wasilewski, 1999) singari psixologlar muloqot jarayoniga milliylik, etnik egalik, shaxs va gender farqlarining ta’sirini ko’rsatib berdilar².

Shunday qilib, garchi madaniyatlararo muloqot kommunikatsiyaning muayyan turi bo’lsa-da, “madaniyat” tushunchasi madaniyatlararo muloqotni fanlararo metafanga aylantirdi. Madaniyatlararo muloqotning vujudga kelishida tilshunoslik, antropologiya, psixologiya, sotsiologiya, etnologiya, folklorshunoslik va h.k. sohalarining hissasi katta bo’ldi. Mazkur sohalarining nazariya va metodlari asosida madaniyatlararo muloqot integrativ xarakter kasb etdi. Bugungi kunda “Madaniyatlararo muloqot” fanining *integrativ* xarakteridan tashqari, uning *amaliy* (turli madaniyat vakillari orasidagi kommunikatsiyani qulaylashtirish, to’qnashuvlarni kamaytirish) xususiyati ham ortib bormoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Madaniyatlararo muloqotga oid dastlabki tadqiqotlar qayerda va qachon vujudga keldi?

¹ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 10-12.

² Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 48.

2. “Madaniyatlararo muloqot” tushunchasi ilk bor qaysi asarda ilmiy muomalaga kiritildi?
3. AQSh Dimlomatik xizmatlar institutida madaniyat farqlari haqidagi nazariyani ishlab chiqish uchun qanday imkoniyatlar mavjud edi?
4. Tilshunoslar madaniyatlararo aloqa masalalariga qanday yordam berishadi?
5. Tilda qanday mohiyatlar aks etadi?
6. Antropologiya qanday fan?
7. “Bixeviorizm” qanday nazariya?
8. Madaniyatlararo muloqotning vujudga kelishida qaysi sohalarning hissasi katta bo‘ldi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. E. T. Hallning “Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi” mavzusida referat yozish.
2. “Tilshunoslik, antropologiya va psixologiya” mavzusida taqdimot tayyorlash.

Adabiyotlar

1. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
2. Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. -141 с.
3. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. –М.: Слово, 2000. -624 с.
4. Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. -77 с.

3-MA'RUZA

MADANIYATLARARO MULOQOTNING ASOSIY TUSHUNCHALARI

Reja:

1. “Madaniyat” tushunchasi
2. “Til” tushunchasi
3. “Kommunikatsiya” tushunchasi

Tayanch soʻz va iboralar: tushunchaviy apparat, madaniyat, madaniyatlilik, milliy madaniyat, til, kommunikatsiya, muloqot akti, muloqot vositasi, madaniyatlararo muloqot, tafakkur, madaniyatning koʻzgusi, madaniyat tashuvchisi.

3. 1. “Madaniyat” tushunchasi

Madaniyatlararo muloqotning asosiy tushunchaviy apparatiga madaniyat, til, kommunikatsiya va madaniyatlararo muloqot kiradi.

Madaniyat – madaniyatlararo muloqotning asosiy tushunchalaridan biridir. Shuning uchun madaniyatning ontologiyasini, uning semiotik va boshqa xususiyatlarini koʻrib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotchi Ven Shu Lee “madaniyat” tushunchasining 6 ta taʼrifini keltiradi:

1. Madaniyat (tabiat va biologiyadan farqli oʻlaroq) – insonning noyob saʼy-harakati, urinishidir. U “tabiatni yoʻq qilishga qarshi misoli bir qoʻrgondir”.
2. Madaniyat – nazokat, xulq-atvordir.
3. Madaniyat – (barbarlardan farqli oʻlaroq) tamaddundir.
4. Madaniyat – lisoniy haamjamiyat, ishonch, qadriyatdir (har bir madaniyat vakili bir tilda gaplashadi, ayni anʼanalarni boʻlishadi).
5. Madaniyat – hukmron yoki yoʻlboshlovchi madaniyatdir. Masalan, “madaniyat axloq va buzqlikni belgilovchi sinfni boshqaradi”.
6. Madaniyat – umumiy va boʻlishilmaydigan narsalar orasidagi tangliklarni oʻzgartiradi¹.


J.Honigman “madaniyat” termini deganda, eskimos onaning bolasiga aytgan allasi yoki kask xalqida onaning boladan oʻzini chetga olishga intilishi; Samoada yangi tugʻilgan goʻdak qizcha kindigining koʻmilishi, shuningdek, kundalik turmushda ishlatiladigan musiqiy asboblarni, radiopriyomniklar, ramziy narsalar (bayroqlar, belgilar, svetoforlar) tushunilishini qayd etadi².

E. Sepirning “Tilshunoslik va madaniyatshunoslik boʻyicha tanlangan asarlari” (“Избранные труды по языкознанию и культурологии” М., 1993)da “madaniyat – turmush tarzimizni tavsiflovchi, ijtimoiy meros qilib olingan amaliy malakalar va gʻoyalar majmuyi” (185-bet)³ sifatida tavsiflangan:


¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. -P. 85.

² Хонигман Дж. Понятия // Личность, культура, этнос: современная психологическая антропология. -М., 2001.

³ Sapir E. Language: An introduction to the study of speech. -New York: Harcourt, Brace and company, 1921. 258 p.



E.Sepirning boshqa bir talqiniga ko'ra, "madaniyat – jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan qadriyatlarning tanlab olinishi" (193-bet). "Madaniyat xatti-harakatlar bilan qiyoslanadi" (207-bet):



Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. "Madaniyat" tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda "madaniyat" termini kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.

Markaziy Osiyodagi buyuk tafakkur egalari madaniyatlik masalasiga insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti, ong va tafakkur taraqqiyoti, fozil jamiyat va komil insonlar masalasi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda yondashdilar. Sharq mutafakkirlari madaniyat masalasini insonning ma'naviy-aqliy barkamolligi shaklida, baxt-saodatga erishuvi tarzida tushunadilar. Bu an'anaviy tushuncha keyingi avlodlar tafakkuridan mustahkam joy olgan. Shu sababli "madaniyat" deganda ko'proq insonning ma'naviyati, uning ichki kechinmalari va tashqi qiyofasining mushtarakligini ko'z oldimizga keltiramiz¹.

Madaniyatlar "umumiy" bo'lmaydi, har qanday madaniyat muayyan hamjamiyat, xalqning ijtimoiy amaliyotidagi o'ziga xos usullarini birlashtiradi. Masalan, o'zbek madaniyati uzoq yillik tarixga ega bo'lishiga qaramay, u O'rta

¹ Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. –Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2011. –B.7.

Osiyo madaniyatiga aylanmagan. Milliy madaniyat boshqa milliy madaniyatlar bilan muloqotga kirishadi va ona madaniyatning e'tiboridan chetda qolgan jihatlar o'rtaga chiqadi.

Aytilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, madaniyatni shunday belgilash mumkin: madaniyat – me'yorlar, qadriyatlar, ideallar, namunalarning yo'l-yo'riqlari va ko'rsatmalari tizimiga asoslangan subyektlar faoliyatining barcha shakllari majmuyi, u boshqa madaniyatlar bilan o'zaro aloqada yashaydigan jamoaning meros qilib olgan xotirasi. Demak, har bir inson madaniyatni irsiy meros qilib olmaydi, balki uni o'rganish orqali o'zlashtirib, muayyan madaniyatning vakiliga aylanadi.

3. 2. “Til” tushunchasi

Til – madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi.

Til – madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi.

Til – madaniyatning quroli, vositasidir. U xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi.

Til – madaniyat xazinas, sandig'i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi¹.

Agar tilga uning strukturasi, vazifalari va uni o'zlashtirish jihatidan qaraladigan bo'lsa, u holda ijtimoiy qatlam yoki madaniyatning komponenti tilning tarkibiy qismi bo'ladi. Ayni paytda madaniyatning komponenti til orqali xabar qilinadigan qandaydir madaniy informatsiya emas. U tilning barcha sathlariga tegishli bo'lgan tilga xos ajralmas xususiyatdir. Til – kishilar oqimini xalqqa aylantiradigan, mazkur nutq jamoasining o'zini o'zi anglashi, madaniyati, an'analarini saqlashi va ularni meros qilishi orqali millatni shakllantiradigan kuchli ijtimoiy vositadir.

“Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o'rinda turadi. Til birinchi navbatda, madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo'yuvchi vosita bo'lishiga yordam beradi. Til – uning sohiblarining muayyan jamoaga tegishli ekanini ko'rsatadi. Xalqning o'ziga xos asosiy xususiyati bo'lgan tilga “ichki” va “tashqi” jihatdan yondashish mumkin. Tilga “ichki” jihatdan yondashilganda, u etnik integratsiyaning bosh omili sifatida namoyon bo'lsa, “tashqi” jihatdan yondashilganda, u xalqning etnik farqlarini ko'rsatadi. Bu ikki qarama-qarshi funksiyani o'zida dialektik birlashtirgan til bir

¹ Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. –London: Routledge, 1989. –P. 27; Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. –М.: Русский язык, 1990. –С. 26.

tomondan xalqning o‘z-o‘zini saqlash vositasi, ikkinchi tomondan uni “o‘ziniki” va “begona”ga ajratish vositasi bo‘lib xizmat qiladi”¹.

Shubhasiz, til madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib, insoniyatning ijtimoiy tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri sanaladi. Lekin boshqa tomondan tilning materiyasida insonning biologik tabiati namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda ko‘p narsa nutqiy faoliyatning fiziologik va psixofiziologik imkoniyatlari bilan aniqlangan. Masalan, dunyoning barcha tillarida unli va undoshlar hamda ko‘plab tovushlar almashinuvi zanjirining mavjudligi madaniyat bilan emas, tabiat bilan bog‘liqdir. Binobarin, inson faqat unlilar yoki undoshlarning o‘zi bilan nutq hosil qila olmaydi. Tabiat til strukturasi teran xususiyatlarini hamda matnni hosil qilish va uni qabul qilish qonuniyatlarini aniqlaydi. Madaniyat esa tilning mazmun jihatini aniqlaydi ².

Mashhur rus tilshunosi G.O.Vinokurning “tilni o‘rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo‘lgan o‘sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi”³ degan tezisi tilshunoslikning shakllanishidan boshlab tasdiqlanib kelmoqda.

V. fon Gumboldtning ta’limotida (1985) til quyidagicha izohlanadi:

- 1) moddiy va ma’naviy madaniyat tilda mujassamlashadi;
- 2) tilga har bir xalq uchun o‘ziga xos bo‘lgan ichki shakl xosdir, tilning ichki shakli – “xalq ruhi” va uning madaniyatining ifodasi;
- 3) til inson va uning o‘rab olgan dunyo orasidagi halqa hisoblanadi.

V. fon Gumboldtning “tilda xalq ruhi aks etadi” degan fikri o‘zbek tilshunosi N. Mahmudovning asarlarida o‘ziga xos tarzda davom ettirilganini ko‘rish mumkin: “...tilda xalqning urf-odati, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi, xalqning bor-budi, bo‘y-basti aks etadi. Muayyan xalqning tilini bilish uning butun borlig‘ini anglash demakdir. Muayyan xalq tilining mazmunu mohiyatini idrok etish shu xalqning tarixiyu kelajagini idrok etish demakdir. Til xalqning bebaho va muqaddas boyligidir, xalqning har bir asl farzandi o‘z tilida sobit va o‘z tiliga sodiq bo‘lmog‘i azal-abad ham qarz, ham farz”⁴.

Tilning milliy dunyoqarash va milliy ruh ifodasi ekanligi haqida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni qayd etganlar: “Inson tabiati, fe‘l-atvori go‘dakligidan shakllanar ekan, milliy dunyoqarash ham bola vujudiga ona suti bilan kiradi. Mana shunga alohida e’tibor berishingizni iltimos qilmoqchiman: tabiiyki, Ona allasi faqat chaqaloqning orom olishi uchungina aytilmaydi, balki uning vositasida bolaning ko‘ngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Ona tilidagi mehr-muhabbat, nasliy tuyg‘ular va orzular go‘dakning jismu jonida ildiz qoldiradi”⁵.

¹ Антипов Г.А., Донских О.А., Марковина И.Ю., Сорокин Ю. А. Текст как явление культуры. –Новосибирск: Наука; Сиб. отд-ние, 1989. –С. 75.

² Мечковская Н. Б. Социальная лингвистика. I. 2 изд. –М.: Аспект Пресс, 2000. –207 с.

³ Винокур Г. О. Избранные работы по русскому языку. –М.: Учпедгиз, 1959. –С. 211.

⁴ Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 82-83.

⁵ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Оила фаровонлиги – миллат фаровонлиги. 6 Т. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 217.

Tilga ehtirom ko'rsatish va unga e'tibor berish bobomiz Alisher Navoiyning "Tilga e'tiborsiz – elga e'tiborsiz" degan so'zlarida o'zining haqqoniy ifodasini topgan. Mazkur hikmatni o'zbek tilshunosi N. Mahmudov quyidagicha talqin qiladi: "Til benihoya muqaddas va mo'`tabar ne'mat, u odam degan mavjudotga shakllantirilgan, qavmlar o'laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisl bir robitadir. Shuning uchun ham tilga nopisandlik insoniyatning o'zligiga nopisandlik demakdir. Tilga ehtirom va e'tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtaramligining e'tirofidir"¹.

Demak, til madaniyatning ko'zgusi, xazinasi, sandig'i, majmuyi, qurolidir. Til madaniyat tashuvchisi, u madaniyatning, kishilik jamiyatining muloqot vositasidir. Til muqaddas va mo'`tabar ne'matdir.

3. 3. "Kommunikatsiya" tushunchasi

Kommunikatsiya ilmiy bilim tushunchasi sifatida uzoq tarixga ega bo'lib, uning bir qancha talqinlari mavjud. Masalan, amerikalik psixolog Yu. Ryush (Jurgen Ruesch) kommunikatsiya tushunchasini antropologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixologiya, tilshunoslik va h.k. sohalarda qirqdan ortiq talqini mavjud ekanligini qayd qilgan. Demak, kommunikatsiya muammolari bilan inson faoliyatining turli sohalaridagi mutaxassislarning to'qnashishi tabiiy holdir.

Bugungi kunda "kommunikatsiya" ijtimoiy-gumanitar bilimlarning asosiy tushunchalaridan biriga aylangan. Sotsiologiyada kommunikatsiyaning obyekt jamiyat va uning tarkibiy qismlari (ommaviy kommunikatsiya), psixologiyada shaxslararo kommunikatsiya, etnografiyada etnik guruhlararo kommunikatsiya tadqiq etiladi. San'at sohasida kommunikatsiya asar yaratuvchisi – rejissor, aktyor, shoir, rassom, bastakor va h.k. bilan tomoshabin, kitobxon, tinglovchi orasida, ta'lim sohasida o'qituvchi va o'quvchi orasida amalga oshadi.

Kommunikatsiya (lot. *communication*, *communis* "umumiy") – xabarni uzatish, fikr va ma'lumotlar almashinuvi, ya'ni muloqot qilishdir.

Kommunikatsiya – muloqot akti, ikki yoki undan ortiq kishi o'rtasidagi o'zaro hamfikrlikka asoslangan aloqa.

Kommunikatsiya – biron kishi tomonidan boshqa kishiga yoki kishilar guruhiga beriladigan axborot.

Kommunikatsiya – xabar yoki muloqot.

Kommunikatsiya – kishilarning bir-biri bilan aloqa o'rnatish va hissiyotlarini tushunish vositasi.

Xorijdagi tadqiqotlarda kommunikatsiya quyidagicha tushuniladi:

Kommunikatsiya – tafakkurdagi ramzlar, ularni zamon va makonda uzatilishini o'z ichiga olgan mexanizm bo'lib, u inson munosabatlarini ta'minlanlashga va rivojlantirishga xizmat qiladi (Ch.Kuli).

Kommunikatsiya – boshqalar bilan turli usullarda aniq amalga oshiriladigan hayot, inson turmushining universal sharti (K.Yaspers).

¹ Махмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998. –Б. 3.

Kommunikatsiya– kishilar fe'l-atvoriga o'zaro ko'nikishni osonlashtiradigan faoliyat turi... Kommunikatsiya – hamkorlikdagi o'zaro yordamni ta'minlaydigan, murakkab harakatlarni boshqarishga imkoniyat yaratadigan almashinuvdir. Inson tabiati va ijtimoiy tartiblar kommunikatsiyaning mahsuloti hisoblanadi (T.Shibutani).

Ko'rinadiki, "kommunikatsiya" terminiga berilgan ta'riflar juda ko'p va ularning aksariyati bir-biriga o'xshashdir. Shunga ko'ra, ularni quyidagicha umumlashtrish mumkin: Kommunikatsiya – xabarni uzatish, fikr va ma'lumotlar almashinuvi, ya'ni muloqot qilishdir. Kommunikatsiya ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. U jamiyatda aloqa o'rnatuvchi muhim vazifani bajarib, inson munosabatlarini ta'minlanlashga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar

1. "Madaniyat" tushunchasini izohlang.
2. Tadqiqotchi Ven Shu Lee "madaniyat" tushunchasining qaysi ta'riflarini keltiradi?
3. E. Sepirning fikricha, madaniyat nima?
4. Tilda qanday mohiyatlar aks etadi?
5. "Til – madaniyat xazinasini" deganda nimalar tushuniladi?
6. Til qanday vosita?
7. Kommunikatsiya qanday vosita?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida tilimizning milliy-madaniy xususiyatlari haqida bildirilgan fikrlarni konspekt qilish.
2. “Tilda xalq ruhi aks etadi” mavzusida referat yozish.

Adabiyotlar

1. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. -5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
2. Qoraboyev U., Soatov G‘. O‘zbekiston madaniyati. –Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2011. -196 b.
3. Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. –London: Routledge, 1989. -470 p.
4. Sapir E. Language: An introduction to the study of speech. -New York: Harcourt, Brace and company, 1921. -258 p.
5. Антипов Г. А., Донских О. А., Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А. Текст как явление культуры. –Новосибирск: Наука; Сиб. отд-ние, 1989. -197 с.
6. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. –М.: Русский язык, 1990. -246 с.
7. Винокур Г. О. Избранные работы по русскому языку. –М.: Учпедгиз, 1959. -492 с.
8. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Оила фаровонлиги – миллат фаровонлиги. 6Т. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. -233 б.
9. Маҳмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998. -40 б.
10. Мечковская Н. Б. Социальная лингвистика. I. 2 изд. –М.: Аспект Пресс, 2000. -207 с.
11. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. -110 б.
12. Хонигман Дж. Понятия // Личность, культура, этнос: современная психологическая антропология. –М., 2001.

4-MA’RUZA

MADANIYATLAR TIPOLOGIYASI

Reja:

1. Edvard Hall tipologiyasi
2. Erik Donald Xirsh tipologiyasi
3. Girt Xofstede tipologiyasi

Tayanch so‘z va iboralar: madaniyatlar tipologiyasi, madaniyatlar o‘lchovi, monoxron model, polixron model, hokimiyat masofasi, individualizm, kollektivizm, erkaklik asosi, ayollik asosi, noaniqlikdan qochish, uzoq muddatli yo‘nalish.

4. 1. Edvard Hall tipologiyasi

Madaniyatlar tipologiyasining bir qancha o'ldhovlari mavjud. Mazkur o'ldhovlardan biri turli madaniyatlarning vaqtga bo'lgan munosabati hisoblanadi. E. Hall ushbu o'ldhov asosida ikki madaniyat turini ajratishni taklif qilgan. Uning fikricha, barcha madaniyatlar o'z vaqtini ikki: *monoxron* va *polixron* modellarga ko'ra taqsimlaydi¹.

Monoxron modelda vaqt inson uchun kesimlarga ajralgan yo'l sifatida obrazli gavdalanadi. Vaqtning bunday qismlarga bo'linishi tufayli ushbu madaniyatdagi inson vaqtning muayyan darjada boshqarish mumkin deb o'ylaydi: u faqat bir ish bilan shug'ullanadi, shuningdek, vaqtning ish uchun va hissiy aloqalar uchun taqsimlaydi. Monoxron madaniyatlarda 10-15 daqiqaga kech qolish mumkin, biroq bunday holatlarda kechirim so'rash kerak bo'ladi.

AQShning aksariyat universitetlarida ish tartibi vaqtning monoxron o'ldhoviga asoslanadi. Darslar, uchrashuvlar, yig'ilishlar qat'iy jadval asosida o'tkaziladi. Professor-o'qituvchilar har bir talabani belgilangan vaqtda qabul qiladi, majlislar o'z vaqtida o'tkaziladi, har qanday favqulodda holatlarda ham belgilangan uchrashuv qoldirilmaydi. Oilaviy va shaxsiy muammolar universitetdagi o'quv jarayonini oqsatishga sabab bo'lmaydi².

Polixron modelda qat'iy jadval bo'lmaydi, bir vaqtning o'zida bir qancha hodisalar yuz berishi va inson bir paytda bir qancha ish bilan shug'ullanishi mumkin. Bu yerda vaqt chatishgan chiziqli ko'rinishida tushuniladi. Mazkur madaniyat vakillari uchun vaqt "moddiylik"dan kamroq hisoblanadi, shuning uchun vaqtning behudaga sarflash tushunchasi ular uchun begonadir. Tilda vaqt tushunchasini ifodalaydigan bironta ham so'z bo'lmagan madaniyatlarda (masalan, Shimoliy Amerikaning ayrim hindu qabilalarida) 40-60 daqiqaga kechikish va buning uchun kechirim so'ramaslik me'yoriy hol hisoblanadi³.

Agar monoxron madaniyatda vaqt har doim tejalsa va "vaqt – bu pul" hisoblansa, polixron madaniyatda bunga ehtiyoj yo'q, vaqtdan to'g'ri foydalanish haqida "gap bo'lishi mumkin emas". Polixron madaniyatga rus, Lotin Amerika, fransuz, koreys, o'zbek, turk madaniyatlari, monoxron madaniyatga esa nemis, Shimoliy Amerika, yapon madaniyatlari misol bo'la oladi.

Xalqaro biznes uchrashuvlari va texnik yordam loyihalari vaqt o'ldhovidagi farqlar tufayli barbod bo'lgan holatlar juda ko'p uchraydi. Masalan, AQSh ishbiarmonlari ko'pincha O'rta Sharq mamlakatlaridagi uchrashuvlarning o'z vaqtida boshlanmasligidan, kishilarning uchrashuv chog'ida qapga tushib ketishlaridan, shuningdek, shaxsiy majburiyatlar tufayli uchrashuvlarning bekor qilinishidan shikoyat qilishadi. Ko'pincha vazifalar va shaxsiy munosabatlar ajratilmasdan, birga amalga oshiriladi.

AQShdagi chet ellik talabalar va ishbiarmonlar amerikaliklarning jadvallarga bog'lanib qolganliklari, ular kishilar o'rtasidagi munosabatlar bilan

¹ Hall E.T. The hidden dimension. Garden City, NY: Doubleday, 1966.

² Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. -P. 278.

³ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. -М.: Русский язык, 2009. -С. 76.

yetarli darajada qiziqmasliklarini qayd etishadi. Amerikaliklarning o'z xizmat vazifalarini bajarish va uchrashuvlarni vaqtida o'tkazish uchun do'stlari va oilalarini "qurbon qilishlari"ni ta'kidlashadi¹.

Kommunikatsiya ishtirokchisining vaqtga bo'lgan munosabatini tushunishda uning hayot sur'atini bilish katta ahamiyat egadir. Jumladan, megapolis shaharlarining vaqt bilan bog'liq muhiti ularning monoxron madaniyatini namoyon qiladi. Bu o'rinda Nyu-York shahrining vaqtga bog'liq muhiti e'tiborga molikdir. Nyu-York shahridagi hayot sur'ati haqida o'z taassurotini koreyalik talaba quyidagicha ifodalaydi:

"Nyu-Yorklik bo'lish – bu yapon, xitoy yoki koreys bo'lish emas. Bu xarakterni o'zgartirish degani. Har bir nyu-yorlikning harakatida qandaydir maqsad bordek tuyuladi. Shuningdek, bu sharqiy qishloqlardagi osiyoliklarning ko'pincha tanballik bilan u yoqdan bu yoqqa yurishiga o'xshaydi. Biroq bu yerdagi odamlarning hatto gaplashishga yoki birovga qarashga ham vaqti yo'q. Nyu-Yorliklar orasida bo'lish – hayotga ilgari bo'lmagan yangicha, ishning ko'zini biladigan odamdek qarashni shakllantiradi. Hatto spektaklga ketayotgan odam ham bunga keragicha tayyorlanadi va ishbilarmon odamdek ko'rinadi. Uning har bir harakati dadil, qat'iy va o'ylangan bo'ladi. U nima xohlashini aniq bilishi lozim. Uning maqsadi barcha narsaning vaqti matematik aniqlik asosida belgilangan markaziy temiryo'l bekatiga o'xshaydi".

Turli madaniyatlarda kechikish ko'lami vaqtga munosabat mezonini bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Afrika qishloqlaridagi umumiy majlis barcha aholi yig'ilgandan keyin boshlanadi. Agarda siz AQShda muhim uchrashuvga kech qolsangiz, bu ishga qiziqmaslik va hamkorga nisbatan hurmatsizlik sifatida baholanadi. Lotin Amerikada esa deyarli bir soatga kechikish ham odatiy hol hisoblanadi. Shunga ko'ra AQSh bilan Lotin Amerika ishbilarmonlarining uchrashuvi boshqa madaniyatning vaqtdan foydalanish xususiyatlarini bilmasliklari tufayli mufavvaqiyatsiz yakunlanishi mumkin.

Madaniyatlar o'tmishga, hozirgi kunga va kelajakka "yo'nalishi"ga ko'ra ham farqlanadi. Birinchi guruhga an'analarga katta ahamiyat beradigan madaniyatlar kiradi va ular ko'pincha "konservativ" madaniyatlar sifatida tasvirlanadi. Bunday madaniyatlarga ingliz, rus, xitoy, yapon va fransuz madaniyatlarini misol qilib keltirish mumkin². Mazkur guruhga koreys va o'zbek

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. -P. 278.

² Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. -М.: Русский язык, 2009. - С. 76.

madaniyatini ham kiritish mumkin. Hozirgi kunga yoʻnalgan madaniyat vakillari bugungi kun bilan yashashadi. Ular taʼsirchan boʻlib, qarorlarni “shu yerda, hozirning oʻzida” qabul qilishadi. Ushbu madaniyatlarga Lotin Amerika mamlakatlari, filippinliklar, irlandiyaliklar kiradi. Bu guruhga turklarni ham daxl qilsa boʻladi. Shimoliy amerikaliklar, aksincha, kelajakka yoʻnalgan madaniyatlar sirasiga kiradi. Bunday madaniyatlarda rejalashtirishga, kelajak uchun jamgʻarishga katta eʼtibor qaratiladi.

4. 2. Erik Donald Xirsh tipologiyasi

Madaniyatlararo muloqot samaradorligini taʼminlashda yetarli darjadagi madaniy savodxonlikka, yaʼni mazkur madaniyat uchun xarakterli boʻlgan asosiy bilimlar, qadriyatlar majmuyi, psixologik va ijtimoiy tenglikka ega boʻlish lozim.

Amerikalik madaniyatshunos olim Erik Donald Xirshning madaniy savodxonlik nazariyasining asosiy maqsadi ingliz tili sohiblarining boshqa til va madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilishlari uchun ularda kerakli bilim va malakalarni shakllantirish hisoblanadi¹. E. Xirshga koʻra, tilni mukammal egallash uchun milliy madaniyatga mos keladigan turli madaniy ramzlar haqida chuqur bilimga ega boʻlish lozim. Bunday bilim maʼlum lingvomadaniy hamjamiyatning lisoniy maʼnolari, muloqotining oʻziga xos xususiyatlari, matnlarining mazmuni hamda diskursining oʻziga xos jihatlarini nazarda tutadi. Boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish uchun har bir kishi suhbatdoshi haqida muayyan madaniy bilimlarga ega boʻlishi lozim.

E. Xirsh madaniy savodxonlikni “jamoaviy hamkorlik ruhi”ni yaratish hodisasi sifatida talqin qiladi. Binobarin, madaniyat vakili muayyan gazetani olib, uning matni va maʼnosini toʻgʻri tushungan holda oʻqishi lozim. Uning fikricha, madaniy savodxonlik “bizni dunyoni bilish hamda muloqotning standart vositasiga egalik qilishimizga va shu tariqa zamon va makonga koʻra yozma va ogʻzaki murakkab axborotlarni qabul qilish va uzatishimizga imkon beradi”. Biroq madaniy savodxonlik faqat madaniy oʻziga xos axborotgina boʻlib qolmay, balki borliq haqidagi yaxlit axborot hamdir. Madaniy savodxonlik – joriy madaniy axborotni doimiy toʻldirib borishni talab qiladigan madaniyatlararo qobiliyatning dinamik komponentidir.

Qobiliyat muloqotdan tashqarida boʻlmaydi. Aynan aniq kommunikativ vaziyatlarda lisoniy daraja va qobiliyatning boshqa turlari oydinlashadi. Muloqot ishtirokchisi oʻzining qobiliyatsizligini muloqotning u uchun yopiq boʻlgan sohalarida anglab yetmaydi. Madaniyatlararo muloqotda qobiliyatning har xil turlari (lisoniy, madaniy, kommunikativ) birlashadi. E. Xirsh aniq muloqot vaziyatlaridagi u yoki bu qobiliyat turining rolga koʻra quyidagi madaniyatlararo qobiliyatlar darajasini ajratadi:

- yashash uchun zarur boʻlgan qobiliyat;
- begona madaniyatga kirish uchun yetarli boʻlgan qobiliyat;

¹ Hirsch E. D., Joseph F. Kett, Trefil J.. The New Dictionary of Cultural Literacy. –Boston, NY.: Houghton Mifflin Company, 2002.

- yangi madaniyatda yashashni ta'minlay oladigan qobiliyat;
- lisoniy shaxs tengligini to'liq amalga oshiradigan qobiliyat.

Madaniyatlararo anglashish va samarali o'zaro aloqa uchun qobiliyatning lisoniy, kommunikativ va madaniy darajalari orasida mutanosiblik bo'lishi lozim. Nomutanosiblik holatida tushunmovchilik ehtimoli yuqori bo'ladi, binobarin, til biladigan kishidan shunga mos darajadagi madaniy savodxonlik kutiladi va unga yetarli ko'lamdagi madaniy axborotlar egasi sifatida murojaat qilinadi.

4. 3. Girt Xofstede tipologiyasi

Gollandiyalik olim va IBM kompaniyasining xodimi Girt Xofstede madaniyatlarning boshqa, anchayin murakkab tipologiyasini taklif qiladi. U har qanday madaniyatni tavsiflaydigan beshta asosiy o'lchovni ajratadi: *hokimiyat masofasi, individualizm va kollektivizm nisbati, erkaklik va ayollik nisbati, noaniqlikdan qochish, uzoq muddatga qaratilgan yo'nalish*¹.

Hokimiyat masofasi. Hokimiyat masofa darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda ierarxiya (pog'ona) me'yoriy hodisa hisoblanadi. Jamiyatning har bir a'zosi jamiyatda, oilada va kasbiy faoliyatda ma'lum mavqega ega bo'ladi. Hokimiyat masofa darajasi past bo'lgan mamlakatlar sifatida Angliya, AQSh va Skandinaviya davlatlarini ko'rsatish mumkin. Yaponiya, Koreya, jumladan, O'zbekiston ham xizmat ierarxiyasi va katta yoshlilarning obro'si yuqori ko'rsatkich hisoblanadigan davlatlar qatoriga kiradi. Shuningdek, G'arbda har qanday muhim qarorlarni qabul qilishda ayollar erkaklardek hal qiluvchi ovozga ega bo'lsa, Sharqda oxirgi so'z erkak kishi tomonidan aytiladi.

Individualizm va kollektivizm nisbati. G. Xofstedega ko'ra, individualizm shaxslararo munosabatlar yetarli darajada erkin bo'lgan madaniyatlarda namoyon bo'ladi. Odamlar, asosan, faqat o'zlari va yaqin kishilari haqida qayg'urishadi. Individualizm darajasi yuqori bo'lgan madaniyatlarning vakillari muayyan vazifalarni afzal deb bilishadi, ularning hayotida "Men" kishilik olmoshi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunga AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va h.k. davlatlarning madaniyatlari misol bo'la oladi.

Kollektivizm (jamoaviylik) ustuvor bo'lgan madaniyatlarda atrofdegilar bilan munosabatda bo'lish muhim sanaladi. Mazkur madaniyat vakillari ko'pincha "Biz", deb fikr qilishadi. Bunday holatlarda individni himoya qiladigan guruh (urug'-aymoq, hamkasblar jamoasi) va uning qadriyatlari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu turga Sharq madaniyati va Lotin Amerikasi kiradi².

Y.M.Dyakonovning yozishicha, Yaponiyadagi "individum-guruh" munosabatlari, aksariyat tadqiqotchilar qayd qilganidek, g'arbnikidan farq qiladi. Yapon uchun guruhning qarashlari, qiziqishlari nihoyatda muhim, u "hammaddek bo'lishga" intiladi. Guruh yaponlarning xulqiga va dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yaponlar "guruh" tushunchasini ko'pincha keng ma'noda talqin qilishadi: guruh - oila, kollej, firma, mamlakat bo'lishi mumkin³.

Yaponiyada inson hayoti tashkilot bilan bog'liq bo'ladi. Yapon kishisi uchun ishxona madaniy va ijtimoiy hayotning markazi hisoblanadi. Barcha xodimlar bo'sh vaqtlarini birga o'tkazishadi, hatto ta'til vaqtida ham dam olish uylariga birga borishadi. Shaxsiy hayotdagi hodisalar, jumladan, to'y, ajralish va h.k. ham jamoaning g'amxo'rligi doirasiga kiradi. Shuningdek, kollektivizm yapon oilasining asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi. Binobarin, oila a'zolari bir-birini

¹ Hofstede G. Culture's consequences. Beverly Hills, CA: Sage, 1984; Hofstede G. Masculinity and femininity: The taboo dimension of national cultures. Thousand Oaks, CA: Sage, 1998; Hofstede G. & Hofstede G. J. Cultures and organizations: Software of the mind (2nd ed.). -Boston: McGraw-Hill, 2004.

² Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. -М.: Русский язык, 2009. -С. 78.

³ Дьяконова Е.М. Текст и интерпретация текста. Психология и социология чтения в Японии // Япония: культура и общество в эпоху НТР. -М., 1985. -С. 97, 99.

ismi bilan emas, balki qarindoshlik terminlari bilan chaqiradi (masalan, kelin). Oilada ota vafot etganda, uning o‘rnini o‘g‘li oladi va barcha oila a‘zolari, hatto onasi ham uni ota deb chaqiradi¹.

Jamoaviylik, ayniqsa, o‘zbek madaniyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Prof. M.Bekmurodov o‘zbek jamoaviyligi haqida shunday yozadi: “Jamoaviylik o‘zbek mentalitetida kasb-korga, iqtisodiy omillarga bog‘liqlikdan ham ko‘ra, etnik va ruhiy-ma’naviy omillarga ko‘proq bog‘liqlik bilan izohlanadi”².

“Boshqalar manfaati uchun o‘z manfaatidan kechish” o‘zbek jamoaviyligining eng asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu o‘rinda yozuvchi O‘tkir Hoshimovning amerikalik yirik noshir bilan bo‘lgan quyidagi suhbatini keltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Amerikada chiqadigan yirik gazetaning rahbari bilan hamsuhbat bo‘lib qoldik. U o‘zbeklar nima uchun mahallani bunchalik hurmat qilishini, nega mahalla to‘g‘risida maxsus qonun qabul qilinganini so‘radi. Mahalla degani qanday institut ekanini tushuntirib berishimni iltimos qildi.

– Men sizga mahallani tushuntirishga ojizman, janob, – dedim rostini aytib.
– UZR-ku, siz uni baribir tushunmaysiz... Buning uchun siz ham, men ham aybdor emasmiz... Hamma gap hayot tarzining qanday shakllanganida.

Tasavvur qiling. Sizlarda farzand voyaga yetishi bilan ota o‘g‘liga atalgan ulush – kapitalni beradi. Shu kundan boshlab yigitcha mustaqil hayotga qadam qo‘yadi va o‘z kunini o‘zi ko‘radi. O‘g‘il bir oydan keyin burnini tortib kelsa, otasi uni haydab yuboradi... Bizda esa, ota-ona bolani voyaga yetkazadi. Uylantiradi. Uyli-joyli qiladi. Bu ham yetmagandek, nevaralariniyam ortmoqlab yuradi. Xullas, bolam-chaqam deb umri o‘tganini bilmay qoladi.

Sizlarda o‘n olti yashar bola otasi bilan ellik dollar talashib, sudga murojaat etsayu, g‘olib chiqib, otasini ming dollar jarima to‘lashga majbur qilsa, bu – demokratiya tantanasi sanaladi. Bizlarda shunday hodisa ro‘y bersa, bunaqa bolani «oqpadar» deydilar va bir umr la‘natlaydilar.

Sizlarda Los-Anjelesda yashaydigan ota vafot etib qolsayu, Vashingtonda turadigan o‘g‘il vazirlikdagi yumushlari ko‘pligi uchun dafn marosimiga borolmasa, uni birov malomat qilmaydi. Bizda Surxondaryoning olis qishlog‘ida yashaydigan ota vafot etib qolsayu, Toshkentda turadigan o‘g‘il vazirlikda ishi ko‘payib ketgani uchun otasini so‘ngi manzilga o‘z yelkasida ko‘tarib bormasa, bunaqa vazirdan hamma yuz o‘giradi.

Sizlarda, masalan, bir qiz begona erkak bilan... nima desam ekan... noqulayroq vaziyatda turgan bo‘lsayu, uni yon qo‘shnisi ko‘rib qolib, qizning otasiga xabar qilsa, ota uni sudga berishi mumkin: qizining shaxsiy hayotiga aralashgani uchun. Bizda, mabodo shunday holat ro‘y berib qolsa, qo‘shni qizga qattiq tanbeh berishi, qo‘lidan yetaklab otasining oldiga olib borishi mumkin.

¹ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 79.

² Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati // “Hurriyat” gazetasi, 2002-yil, 17-aprel.

Qizning otasi unga minnatdorlik bildiradi: qizning or-nomusini himoya qilgani uchun.

Sizlarda bir qo'shni ikkinchisidan «Kecha uyingizga qanday mehmon keldi?» deb so'rasa, narigi qo'shni ranjishi mumkin. Birovning uyiga kelgan mehmon bilan birovning nima ishi bor? Bizda birovnikiga mehmon kelsa, yon qo'shnisi darrov xabar oladi. Iloji bo'lsa, mehmonni o'zinikiga taklif qilib, oldiga dasturxon yozadi.

Sizlarda, deylik, o'n yil turmush kechirgan oilaning bekasi kunlarning birida eriga «Azizim, men boshqa birovni sevib qoldim, kel, orani ochiq qilaylik, bolalarni xohlagan paytingda ko'rib turasan yoki «Mehribonlik uyi»ga topshirsak ham bo'ladi», desayu, er jahl ustida qo'l ko'targudek bo'lsa, xotin o'sha zahoti advokatini chaqirib, erini sudga beradi. Mabodo, erkakning ko'ngli oilasidan sovigan bo'lsa, amalda uni ham ayoli bilan yashashga majbur qilish mumkin emas. Bu – inson erkini himoya qilish hisoblanadi.

Bizda ayol kishi nobop eridan bezor bo'lsa, advokat chaqirmaydi, sudga bormaydi, mahallaga chiqadi. Mahalladagilar ayol huquqini kamsitmaydi, «Qamatib yubor, bunday battolni», demaydi ham. Ayolga jinday sabr qilishni, ikki go'dakning ko'zyoshini oqizmaslikni maslahat beradi. Erkakni chaqirib olib, ayolini tag'in xafa qilsa, begunoh bolalarni «tirik yetim» qilsa, uni mahalladan badarg'a qilib yuborishgacha chora ko'rishini tushuntirib qo'yadi. Sizlarda bu – inson huquqini poymol qilish, ayolga «feodallarcha munosabat» deb baholanishi mumkin. Bizda esa buning oti – oilani saqlab qolish, norasida bolalar manfaatini himoya qilish deb ataladi. (Harqalay o'ttiz yashar erkak yoki ayol huquqini himoya qilgandan ko'ra yetti yoki besh yashar bola huquqini himoyalash afzalroq deb sanaladi).

Bilmadim, balki sizdagi odatlar yaxshiroqdir. Balki bizdagisi ma'quldir. Buyuk o'zbek olimi Beruniy bundan ming yil avval yaratgan «Hindiston» kitobida «Biron xalqning u yoki bu udumiga baho berishda «Bunisi menga yoqadi, unisi esa yoqmaydi», deyishga hech kimning haqi yo'q, negaki har bir xalq an'analari yillar mobaynida shakllangan va o'sha xalqning hayot tarziga aylangan», deb yozgani bejiz emas. Sizlarda individualizm – shaxs manfaati kuchli. Bizda kollektivizm – jamoaviylik, boshqalar manfaati uchun o'z manfaatidan kechishdan og'rinmaslik udumi qadimdan bor...

Bilib turibman, janob, mahalla degani nimaligini baribir tushuntirib berolmadim. Ammo bor gap shu..."

Erkaklik va ayollik nisbati. Ushbu tavsifda gap shunchaki erkak yoki ayol haqida emas, balki an'anaviy erkaklik yoki ayollik nisbati asosida tushuniladigan ustuvor qadriyatlar haqida boradi. Erkaklik nisbati yuqori bo'lgan jamiyatda erishilgan yutuq, muvaffaqiyat va e'tirof ustuvor qadriyatlar hisoblanadi. Bunday madaniyatlarda shaxsning ijtimoiy maqomida aks etadigan kasbiy yutuqlari alohida ahamiyat kasib etadi. Bu yerda jinslarning roli qat'iy belgilangan bo'ladi. Ayollik nisbati yuqori bo'lgan jamiyatda yaqinlar haqida g'amxo'rlik qilish, boshqalar bilan hamkorlik qilish va yashash sifati ustuvor qadriyatlar hisoblanadi.

Ushbu madaniyatlarda yashash sifati maqomdan muhim sanaladi va bu yerda ko‘pincha muvaffaqiyatsiz kishilarga xayrxohlik bildiriladi.

Noaniqlikdan qochish. Noaniqlikdan qochish darajasi yuqori bo‘lgan madaniyat vakillari o‘z hayotlarini qurish uchun juda ko‘p qoida va rasmiyatchilik kerak, deb hisoblashadi. Odatda bunday mamlakatlardagi kishilar ko‘pincha o‘zlarining tashvishlari va hissiyotlarini ko‘rsatishadi. Ular hayotning barcha sohalaridagi ekspertlarga ishonishadi, to‘qnashuv va raqobatdan qochishadi. G‘arbiy davlatlar orasida Gretsiya va Portugaliya mazkur toifaning eng yuqori ko‘rsatkichlariga ega, Sharqiy Yevropa davlatlari ham bu o‘lchovlarning boshida keladi. Noaniqlikdan qochish darajasi past bo‘lgan jamiyatlarda qonun va qoidalar ko‘lami yetarlicha qisqargan bo‘ladi. Kishilar raqobat va muqarrar to‘qnashuvlardan qochishmaydi. Bunday jamiyatlarga Angliya va Amerikaning ingliz-sakson madaniyatini hamda Skandinaviya mamlakatlarini misol qilib keltirish mumkin.

Uzoq muddatga qaratilgan yo‘nalish. Mazkur o‘lchov jamiyatning an‘anaviy-tarixiy yoki qisqa muddatli bahosiga emas, balki uning kelajakdagi amaliy istiqbol darajasini belgilaydi. Uzoq muddatga yo‘nalgan madaniyatlarda kishilarning ruhiy xotirjamligi tabiat va ma‘naviyat bilan uyg‘unlikka erishishga qaratiladi. Uzoq muddatga qaratilgan yo‘nalishlardan biri an‘analarga bo‘lgan hurmatdir. Bunday madaniyatlarga Osiyo mamlakatlari, xususan, Janubiy Koreya misol bo‘la oladi¹.

Umuman, madaniyatning har qanday tasnifi, u qanday o‘lchovga asoslanmasin, avvalo, inson fe‘l-atvorining o‘ziga xos xususiyatini uning muayyan madaniyat vakili sifatida aniqlashga yordam beradi. Binobarin, madaniy xususiyatlar insonning kommunikativ fe‘l-atvorida o‘z aksini topadi.

Nazorat uchun savollar

1. E. Hall madaniyatlarning monoxron va polixron modellarini qaysi o‘lchovga ko‘ra ajratadi?
2. E. Xirshning madaniy savodxonlik nazariyasining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
3. Madaniyatlarning monoxron va polixron modellarini tushuntiring.
4. Hokimiyatning masofa darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda qaysi hodisa me‘yoriy hisoblanadi?
5. Qaysi mamlakatlarda hokimiyatning masofa darajasi past bo‘ladi?
6. Individualizm qanday madaniyatlarda namoyon bo‘ladi?
7. Kollektivizm ustuvor bo‘lgan madaniyatlar uchun mima muhim sanaladi?
8. Erkaklik nisbati yuqori bo‘lgan jamiyatda nimalar ustuvor qadriyatlar hisoblanadi?
9. Ayollik nisbati yuqori bo‘lgan jamiyatda nimalar ustuvor qadriyatlar hisoblanadi?

¹ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 80-81.

10. Qaysi madaniyat vakillari qoida va rasmiyatchilikni kerak, deb hisoblashadi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. “Individualizm va jamoaviylik” mavzusida referat yozish.
2. “Madaniyatlar tipologiyasi” mavzusida taqdimot tayyorlash.

Adabiyotlar

1. Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati // “Hurriyat” gazetasi, 2002-yil, 17-aprel.
2. Hall E.T. The hidden dimension. Garden City, NY: Doubleday, 1966.
3. Hirsch E. D., Joseph F. Kett, Trefil J.. The New Dictionary of Cultural Literacy. –Boston, NY.: Houghton Mifflin Company, 2002.
4. Hofstede G. & Hofstede G. J. Cultures and organizations: Software of the mind (2nd ed.). –Boston: McGraw-Hill, 2004.
5. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
6. Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. -141 с.
7. Дьяконова Е.М. Текст и интерпретация текста. Психология и социология чтения в Японии // Япония: культура и общество в эпоху НТР. –М., 1985.

II BOB. KOMMUNIKATIV FAOLIYAT

5-MA'RUZA KOMMUNIKATSIYA TURLARI

Reja:

1. Kommunikatsiya turlari
2. Kommunikativ faoliyat darajalari

Tayanch soʻz va iboralar: intrapersonal kommunikatsiya, shaxslararo kommunikatsiya, guruhlararo kommunikatsiya, ommaviy kommunikatsiya, virtual kommunikatsiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, xalqaro kommunikatsiya, tashkilotlararo kommunikatsiya, makromadaniyat, mikromadaniyat.

5. 1. Kommunikatsiya turlari

Kommunikatsiyaning quyidagi turlari mavjud¹:

Asosiy	Qoʻshimcha
intrapersonal (ichki dialog, L. S. Vigotskiyning ichki nutq nazariyasiga kiradi)	madaniyatlararo (turli madaniyat tashuvchilari kommunikatsiyasi; shaxslararo va guruhlararo boʻlishi mumkin)
shaxslararo (ikki yoki undan ortiq muloqotchilar ishtirok etadi; verbal va noverbal shakllarga ega boʻlishi mumkin)	xalqaro (xalqaro aloqalar, diplomatiya doirasida)
guruhlar (muayyan guruh ichida yoki guruhlararo kommunikatsiya, shuningdek, “muloqotchi va guruh” koʻrinishida, masalan, siyosat arbobi bilan suhbat boʻlishi mumkin)	tashkilotlar (ishlab chiqarish sohasidagi kommunikatsiya) va biznes-kommunikatsiya
ommaviy (yuboruvchi bir kommunikant boʻlishi, oluvchi omma; matbuot, radio, televideniye kanallari vositasida amalga oshiriladi) jamoaviy (shaxslararo, masalan, maʼruzachi, jamoat arbobi – auditoriya)	siyosiy (siyosiy faoliyatda; individlar oʻrtasida, shuningdek, boshqaruvchi va boshqariluvchilar oʻrtasida amalga oshiriladi)
virtual (shaxslararo, guruhlararo, ommaviy boʻlishi mumkin; kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadi)	maishiy (koʻproq shaxslar orasida kuzatiladi; yosh va gender komponentlarini oʻz ichiga oladi)

¹ Виды коммуникации. Коммуникация как языковая проблема. <http://vjanetta.narod.ru/lekcia8.html>

Kommunikatsiya uchun **zarur bo'lgan sharoitlar**: 1) *ishtirokchilarning ayrim umumiy intersub'yektiv me'yorlarga moslashuvi*; 2) *kommunikativ salohiyat*.

Ommaviy kommunikatsiya jarayonining tarkibiy qismlari	
Kommunikatsiya manbasi (“kim”)	ijtimoiy jihatdan ahamiyatli axborotni keng tarqatish bilan shug'ullanadigan tashkilotlar: ommaviy kommunikatsiya sohasini qo'llab-quvvatlashga javobgar institutlar; bu sohani texnik ta'minotiga javobgar institutlar (davlat qo'mitalari, davlat va xususiy teleradiokompaniyalar, ommaviy matbuot agentligi, nashriyotlar va h.k)
Axborotning hajmi, mazmuni va shakli	bilim, baho va ishonch berish majmuyi
Ommaviy axborot kanallari	ma'lumotlarning sifat va miqdoriy xususiyatlari xarakteristikasi, ularni adekvat uzatishning texnik imkoniyatlari va auditoriya mosligini ta'minlaydigan kitob, gazeta, jurnallar nashriyoti, teleradio tarmoqlari
Auditoriya	axborotni qabul qilish va qayta ishlashiga ko'ra ijtimoiy guruhlar va ularning psixofiziologik xususiyatlari jihatidan farqlanadi
Xabarning samaradorlik omillari	xabarning ta'siri ostida yuzaga chiqadigan ijtimoiy fe'l-atvor, harakat yoki harakatsizlik
Ommaviy axborotning ifodali vositalari	axborot qabulini osonlashtiradigan to'liqlik; xabarning aniqligi (so'zlar, iboralar, vizual obrazlar va h.k. tushunarli bo'lishi); xabar tilining barcha uchun tushunarli bo'lishi

5. 2. Kommunikativ faoliyat darajalari

Madaniyatlararo muloqot *makromadaniyat* va *mikromadaniyat* darajalariga ajratiladi. Yer kurrasida o'zining madaniy an'analari bilan bir ijtimoiy tizimga birlashgan katta hududlar mavjud. Masalan, Amerika madaniyati, Afrika madaniyati, Yevropa madaniyati, Osiyo madaniyati, Sharq madaniyati va h.k. madaniyatlar haqida so'z yuritish mumkin. Bunday madaniyatlar hududiy belgilariga ko'ra *makromadaniyat* deyiladi¹.

Makromadaniyatlar ham o'z navbatida submadaniyatlardan, ya'ni ma'lum jamiyat ichidagi o'ziga xos madaniy xususiyatlariga ega bo'lgan turli ijtimoiy guruhlar madaniyatidan tarkib topadi. Bunday madaniyatga *mikromadaniyat* deyiladi. Har bir mikromadaniyat o'zining ona madaniyati bilan o'xshash va farqli jihatlarga ega bo'ladi. Ona madaniyat mikromadaniyatdan a'zolarining turli etnik va

¹ Денисова И.В., Еременко А.П. Типы межкультурных коммуникаций. <http://www.rae.ru/forum2012/273/1603>

diniy taalluqliligi, geografik o'рни, iqtisodiy ahvoli, jinsi va yoshi, oilaviy ahvoli hamda ijtimoiy maqomi bilan farq qiladi.

Madaniyatlararo kommunikatsiyani mikrodarajasiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:



Etnik guruhlar orasidagi kommunikatsiya turli xalq (etnik guruhlar) vakillari o'rtasidagi muloqotdir. Ko'pincha jamiyat o'zining farqli submadaniyatini yaratadigan son jihatidan turlicha bo'lgan etnik guruhlardan tarkib topadi. Etnik guruhlar o'z submadaniyatlarini avloddan-avlodga meros qilib qoldiradi. Bu esa mazkur submadaniyatning hukmron madaniyat ichida o'zligini saqlab qolishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy sinf va guruhlar orasidagi kommunikatsiya u yoki bu jamiyatning ijtimoiy guruh va sinflari o'rtasidagi farqlarga asoslanadi. Dunyoda bironta ham ijtimoiy bir xil bo'lgan jamiyat mavjud emas. Kishilar o'rtasidagi tafovut ularning ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumoti, kasbi, ijtimoiy maqomi va h.k. oqibatida yuzaga keladi. Dunyoning barcha mamlakatlarida yuqori tabaqa bilan oddiy aholi, boylar bilan kambag'allar orasida katta masofa mavjud. U qarama-qarshi qarashlar, urf-odatlar, an'analar va boshqalarda ifodalanadi. Bu odamlarning barchasi bir madaniyatga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, qayd qilingan farqlar ularni submadaniyatlarga ajratadi va ular orasidagi muloqotda aks etadi.

Turli demografik guruh vakillari orasidagi kommunikatsiya diniy (turli diniy oqimlar orasida, masalan: Turkiyada, Iroqda sunniylik va shialik yo'nalishlari; Shimoliy Irlandiyada katolik va protestant yo'nalishlari), jins va yosh (erkaklar va ayollar, turli avlodlar orasida)ni nazarda tutadi. Bunday holatlarda kishilar orasidagi muloqot ularning u yoki bu guruhga taalluqliligi hamda mazkur guruh madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari asosida belgilanadi.

Shahar va qishloq aholisi orasidagi kommunikatsiya shahar va qishloq aholisining hayot tarzi, ta'lim darajasi, shaxslararo munosabatlar, turlicha "hayot falsafasi" o'rtasidagi farqlarga asoslanadi.

Hududlararo kommunikatsiya turli viloyatlarda yashovchilar orasida yuzaga keladi. Binobarin, muayyan vaziyatda turli viloyat vakillarining fe'l-atvoridagi farqlar ko'zga tashlanadi. Masalan, toshkentliklar va vodiyliliklar muloqot chog'ida o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Jumladan, Toshkentda o'zidan kichiklarni sensirab gapirish (bu toshkentliklar uchun samimiyluk belgisi, vodiyliliklar uchun qo'pollik belgisini ifodalaydi), vodiyning aksariyat hududlarida o'zidan kichiklarni sizlab gapirish odatiy hol sanaladi. Yoki toshkentliklar o'zidan kattalarni orqasidan ham sizlab gapirsa, vodiyliliklarda buning aksi kuzatiladi. Yoki vodiylarga mehmonga borgan qashqadaryolik, surxondaryolik va xorazmliklar vodiyliliklarning sermulozamatligidan xijolat bo'lishi, aksincha, vohaga mehmonga borgan vodiylilik esa vohaliklarning betakalluf muomalasidan ranjishi mumkin.

Xullas, madaniyatlararo kommunikatsiya turlarining barchasiga xos bo'lgan umumiy xususiyat muloqot ishtirokchilari tomonidan madaniyat farqlarini tushunib yetilmasligidir. Gap shundaki, aksariyat kishilar o'zlarining dunyoni tushunishlari, hayot tarzlari va yashash yo'llarini to'g'ri deb hisoblashadi. O'zlari tanish bo'lgan qadriyatlarni hammabop va barcha uchun tushunarli deb o'ylashadi. Qachonki, boshqa madaniyat vakillari bilan to'qnashganlarida o'zlari to'g'ri deb hisoblab kelgan qoliqlar ish bermaganida muvaffaqiyatsizlik sababi haqida o'ylay boshlashadi.

Nazorat uchun savollar

1. Kommunikatsiyaning qanday turlari mavjud?
2. Shaxslararo kommunikatsiyani izohlang.
3. Guruhlararo kommunikatsiya qanday amalga oshiriladi?
4. Ommaviy kommunikatsiyaning tarkibiy qismlarini aytib bering.
5. Virtual kommunikatsiya nimaga asoslanadi?
6. Makromadaniyat deganda nimani tushunasiz?
7. Mikromadaniyat deganda nimani tushunasiz?
8. Etnik guruhlar orasidagi kommunikatsiyada kimlar ishtirok etadi?
9. Ijtimoiy sinf va guruhlar orasidagi kommunikatsiya qanday farqlarga asoslanadi?
10. Hududlararo kommunikatsiya kimlar orasida yuzaga keladi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. "Kommunikatsiya turlari" mavzusida taqdimot tayyorlash.
2. "Hududlararo kommunikatsiya muammolari" mavzusida insho yozish.

Adabiyotlar

1. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts.-5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.

2. Виды коммуникации. Коммуникация как языковая проблема.
<http://vjanetta.narod.ru/lekcia8.html>
3. Денисова И.В., Еременко А.П. Типы межкультурных коммуникаций.
<http://www.rae.ru/forum2012/273/1603>
4. Усманова Ш. Маданиятлараро коммуникация турлари // Республика илмий-методик конференция материаллари. -Тошкент: ТДЮИ, 2013. -Б. 8-11.
5. Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. -77 с.

6-MA'RUZA

VERBAL KOMMUNIKATSIYA

Reja:

1. Kommunikativ faoliyatning verbal vositalari
2. Verbal muloqotning asosiy qoidalari

Tayanch soʻz va iboralar: verbal muloqot, verbal vositalar, verbal xabar, kommunikativ faoliyat, kommunikatsiya jarayoni, til belgisi, tovishlar majmuasi, suhbat vaziyati, soʻzlovchi va tinglovchi, ijtimoiy-madaniy vaziyat, nutq tezligi, nutq toʻxtami, sukut, nutqiy qoliplar chastotasi, murojaat shakllari, standart mavzu, taqiqlangan yoki yopiq mavzular, taqiq leksika, evfemizm, metafora, tabaqalanish farqlari, ijtimoiy farqlar.

6. 1. Kommunikativ faoliyatning verbal vositalari

Kommunikativ faoliyatning barcha vositalari ikki katta: verbal (nutqli) va nonverbal (nutqsiz) guruhga ajraladi. Verbal vositalar yordamidagi muloqot (lot. verbalis – ogʻzaki va lot. communicatio – muloqot) inson uchun asosiy hisoblanadi. Bu oʻrinda kommunikativ faoliyatning nafaqat genezisi (binobarin, dastlab nonverbal muloqotdan koʻproq foydalanilgan boʻlishi mumkin) va “foydalanish foizi”, balki mazkur vositaning universalligi, boshqa har qanday kommunikativ vositalarni insonning verbal tiliga umum tarjima qilinishi nazarda tutiladi. Verbal vositalar tarqalishiga koʻra ham faol sanaladi. Mutaxassislarining fikricha, insonlarning oʻzaro kommunikativ aloqasining toʻrt dan uch foizini verbal muloqot tashkil qiladi.

Verbal vositalarga insoniyat tabiiy tillarining turli belgilari (ularning ogʻzaki va yozma shakllari) kiradi. Belgi atrofimizni oʻrab olgan biron bir hodisa, narsa, jarayonning oʻrnini oladi. Belgining asosiy xususiyati uning shartlanganligidir. Belgi (ifodalovchi) va u anglatgan narsa (ifodalanuvchi) oʻrtasida obyektiv aloqa boʻlmaydi. Ular orasidagi aloqa shartlangan, maʼlum guruhning madaniy tajribasida mustahkamlangan boʻladi¹.

Masalaning mohiyatini tushuntirish uchun ayrim tillardagi “uy” soʻzi ifodalagan maʼnolarni koʻrib chiqamiz:

Tillar	Soʻz	Maʼnolari					
oʻzbek tili	uy	yashash joyi	bino	muassasa	xona	oila	xonadon
turk tili	ev	+	+	+	uy jihozlari	+	sulola
koreys tili	chip	yashash joyi (inson yoki hayvon-ning)	-	-	pichoq va h.k. qini	+	-
xitoy tili	jia	+	+	+	-	+	-
hindiy tili	ghar	+	+	-	pichoq va	+	+

¹ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 34-35.

					h.k. qini		
rus tili	дом	+	+	+	-	+	sulola
ingliz tili	house	+	+	-	uy xo'jaligi		+

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari, koreys tilida *chip* “in”, “to‘plam (asarlar, maqolalar to‘plami)”; xitoy tilida *jia* “bilimdon, mutaxassis”, “maktab, o‘qish”, “mening (mening ukam, mening onam”, hisob so‘zi (korxonalar uchun); hindiy tilida *ghar* “shaxmat taxtasi”, “teshik (tugma taqish teshigi, elakning teshigi)”, “gardish (rasm yoki qimmatbaho toshning gardhishi)”, “bo‘lma, tortma”; ingliz tilida *house* “parlament palatasi”, “teatr”, “tomoshabin, auditoriya”, “mehmonxona”, “monastir” va “in” ma’nolarini ham ifodalaydi.

Ko‘rinadiki, o‘zbek, turk, xitoy va rus tillaridagi “uy” (“ev”, “jia”, “дом”) ingliz tilidagi “house”ga nisbatan kengroq ma’nolarda qo‘llaniladi. Binobarin, “uy” so‘zining semantikasi inson yashaydigan va ishlaydigan har qanday binoni qamrab oladi. Bunday holatlarda “house” so‘zini qo‘llab bo‘lmaydi: house – bu kishi ishlaydigan joy emas, u kishi yashaydigan uy. Kishi ishlaydigan joy – bu *building*. Ko‘p qavatli uy *house* emas, u *block of flats*.

O‘zbek, turk, hindiy va rus tillaridagi “uy” (“ev”, “ghar”, “дом”) so‘zlarining faqat “bino, inshoot” (каменный дом – a stone house) va “sulola” (дом Романовых), (the house of Tudor) ma’nolarigina ingliz tilidagi “house” so‘ziga mos keladi. Boshqa ma’nolari ingliz tiliga mos kelmaydi. “Oila”, “yashash” joyi kabi ma’nolari esa ingliz tilidagi boshqa so‘zga, ya’ni “home”ga muqobil bo‘ladi.

O‘zbek, turk va rus tillaridagi “uy” (“ev”, “дом”) so‘zining “muassasa” ma’nosi koreys, hindiy va ingliz tillarida uchramaydi. Mazkur ma’no boshqa so‘zlar vositasida tarjima qilinadi: *bolalar uyi* – *детский дом* – *children's home* yoki *orphanage*; *savdo uyi* – *торговый дом* – *commercial firm*.

Koreys tilidagi *chip* so‘zinig “in” ma’nosi o‘zbek tilida *in*, turk tilida *yuva*, rus tilida *гнездо*; *берлога*, *нора* so‘zlari vositasida ifodalanadi.

Demak, yuqorida ko‘rib chiqilgan tillardagi “uy” so‘zi anglatadigan tushunchalar turli madaniyatlar bilan aniqlanadigan har xil narsalardir.

V.Ye. Boldirev mazkur hodisani quyidagicha tushuntiradi: “Rus tilidagi [дом] tovushlar majmuasi inson yashaydigan binoni, nemis tilida ayni shunday majmua “sobor”ni anglatadi. Chunki tovushlar majmuasi vositasida ifodalangan til belgisi bilan real voqelik o‘rtasidagi aloqa oldindan berilmagan, u faqat muayyan guruh (etnos, millat) vakillarining ongidan mustahkam o‘rin olgan. Belgi nafaqat har narsani ifodalay oladi, balki har qanday obyektning o‘zi ham belgiga aylanishi mumkin. Sindirilgan novda o‘z-o‘zidan belgi bo‘la olmaydi. Agar siz o‘rmonda sindirilgan novda bilan yo‘lingizni belgilashni do‘stingiz bilan kelishgan bo‘lsangiz, u holda sindirilgan novda belgiga aylanadi”¹.

¹ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 35.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ijtimoiy ishlab chiqarish darajasi past bo'lgani sababli, kishilarda ilmiy va madaniy bilimlar yetishmagan. Shuning uchun ham ular turli irim-chirimlarga ishonishgan. Hozirda ham ko'pchilik orasida irim-chirimlarga ishonish saqlanib qolgan. Jumladan, o'zbeklarda supurgini, o'qlovni tik qo'ymaslik, birovning orqasidan supurmaslik, axlatdan hatlamaslik, otashkurakni oyoq ostida qoldirmaslik, suprani egasiz yig'ishmaslik, nonning ushog'ini yerga tushirmaslik, qaychini ochib qo'ymaslik, qalampirni qo'lga bermaslik, turkiy va eroniy xalqlarda suvni ifloslatmaslik, suvga tupurmaslik, mo'g'ullarda qozondan pichoq bilan go'sht olmaslik, chodirda suv to'kmaslik, olovga yaqin joyda daraxt kesmaslik, qamchiga tayanmaslik, koreyslar va xitoyliklarda kosadagi ovqatga qoshiqni tiqib qo'ymaslik (faqat marhumga atalgan ovqatgagina qoshiq tiqib qo'yiladi) va h.k. irimlarga ishoniladi.

Qayd etilgan irimlarning barchasi shartlidir. Insonlarga shunchaki belgilar va narsalar bir-biriga bog'langan olamda yashash zarurati kerak. Chunki inson ongidagi bu bog'lanish ong faoliyatini va insonning borliqdagi harakatini tashkil etishga ko'maklashadi. Shunday qilib, belgilar inson faoliyatini tashkil etishga yordam beradi.

Turli madaniyatlarda mazkur madaniyat vakillarining kommunikativ faoliyatida qo'llaniladigan belgilarga (binobarin, verbal vositalarga ham) farqli munosabat ko'rsatiladi. Jumladan, G'arbda notiqlik san'atining qadimgi an'analari verbal xabarlarining nihoyatda muhimligini taqozo etadi. Ushbu an'ana g'arbliklarning mantiqiy, ratsional va analitik tafakkurini to'liq aks ettiradi. G'arbiy xalqlar madaniyatida nutq suhbat vaziyatiga bog'liq bo'lmagan holda qabul qilinadi. Shuning uchun nutqqa ijtimoiy-madaniy vaziyatdan tashqarida, alohida qarash mumkin. Bunda kommunikatsiya jarayonida og'zaki ifodasidan munosabati ma'lum bo'lgan so'zlovchi va tinglovchiga ikki mustaqil subyekt sifatida qaraladi.

Aksincha, Sharq madaniyati uchun ijtimoiy-madaniy vaziyat katta ahamiyat kasb etadi. So'z muloqot ishtirokchilarning shaxsiy xususiyati, xarakteri va ularning shaxslararo munosabatini to'laligicha o'z ichiga oladigan kommunikativ kontekstnig tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu tariqa mazkur madaniyatlarda verbal ifodalar axloq, psixologiya, siyosat va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'langan kommunikativ jarayonning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur madaniyat vakillari barcha qayd etilgan omillar so'zlovchining faqat individual yoki shaxsiy maqsadlarining ifodasigina bo'lmay, balki ular ijtimoiy muvofiqlashishga va uyg'unlashishga yordam beradi, deb hisoblashadi. Sharq madaniyati vakillari qo'llanilgan so'zlar va ularning aniq ma'nolari mutlaqo boshqa narsalarni ifodalashi mumkinligini juda yaxshi bilishadi. Shuning uchun ham sharqiy madaniyatlarda og'zaki ifodalarning tuzish texnikasiga emas, balki suhbat ishtirokchilarining jamiyatdagi mavqeyini belgilaydigan mavjud ijtimoiy munosabatlarga mos bo'lgan talaffuz tarziga e'tibor qaratiladi. Shu bois Sharq

madaniyatida soʻzning kuchiga har doim ishonib kelgan gʻarbliklardan farqli oʻlaroq, soʻzlarga ishonchsizlik anʼanasi yuzaga kelgan¹.

Shunday qilib, Yevropa va AQSh madaniyati vakillari muloqot jarayonida sukutdan qochishga va oʻz fikrlarini aniq, toʻgʻridan-toʻgʻri ifodalashga harakat qilishadi. Ular nimani oʻylashsa, shuni aytishadi, ular uchun suhbat chogʻidagi ijtimoiy-madaniy vaziyat muhim ahamiyat kasb etmaydi. Aksincha, Sharq madaniyatida kommunikatsiyaning ustuvor xususiyatlari muloqotning ijtimoiy-madaniy vaziyati, uning odob-axloq qoidalari va nazokat meʼyorlariga muvofiqligi hisoblanadi. Kishining nima deyishi emas, balki uning nima deb oʻylashi muhim sanaladi.

6. 2. Verbal muloqotning asosiy qoidalari

Verbal muloqotning asosiy qoidalari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

1. *Turli madaniyatlarda qabul qilingan nutq tezligiga, toʻxtamiga, sukutga munosabat.* Masalan, turli madaniyatlarda qabul qilingan sukutni har xil talqin qilish mumkin. Arablar “Toʻxtovsiz gapirish – oʻzini yomon tutishdir”, deb hisoblaydilar. Qadimgi Xitoyda “Bilgan – sukut saqlaydi, bilmagan – gapiradi” maqoli ming yillardan beri yashab kelmoqda².

Maʼlumki, qadimgi Xitoy va Koreyada notiqlik anʼanalarining rivojlanishiga unchalik eʼtibor berilmagan. Konfutsiy taʼlimotini olgan olim-amaldorlar, odatda oʻz fikrlarini yozma ravishda ifodalashgan. Hukmron konfutsiy asilzodalarining qiyofasi loqayd, yuzi toshday, hech qanday ifoda kasb etmagan. Mazkur anʼanalar hozirgi kunda ham oʻz taʼsirini yoʻqotmagan boʻlib, xitoyliklar va koreyslar iloji boricha kam gapirishga, oʻz fikrlarini ochiq ifodalamaslikka harakat qilishadi.

Koʻrinadiki, Sharq madaniyatida savolga javob bermaslik, sukut saqlash muloqotning uzilishi boʻlmay, aksincha, ijtimoiy-madaniy aloqaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayni paytda, AQShda suhbat jarayonidagi toʻxtam salbiy qabul qilinadi va u suhbatdoshning gʻashini keltirishga sabab boʻladi.

2. *Nutqda qoʻllaniladigan muayyan nutqiy qoliplar, ifodalar, birikmalar va savollar chastotasi.* Turli madaniyatlarda shuhbatdoshga qanday murojaat qilgan maʼqul? Murojaatda uning ism-sharifi, unvoni, darajasi yoki nazokat vositalaridan foydalanish kerakmi? Salomlashish, xayrlashish, uzr soʻrashda qaysi verbal qoliplarni qoʻllash maqsadga muvofiq?

Murojaat shakllari soʻzlovchining tinglovchiga oʻzaro munosabatini, hurmatini va uning madaniyat darajasini ifodalovchi vositalardan biri hisoblanadi. Sharq madaniyatining, ayniqsa, rasmiy murojaat shakllarida hurmat belgisi kuchli boʻlib, shaxsning mavqeyi, mansabi, lavozimi, vazifasi, kasb-kori, unvoni va yoshiga koʻra darajalanish kuzatiladi. Jumladan, koreys tilida eng oliy darajadagi hurmat shakli sifatida “Zoti oliylari”, “Janobi oliylari” maʼnosida *Kakha* soʻzi ishlatiladi: *Kakha Detongryong* (Prezident Janobi oliylari). Oʻzbek tilida Prezidentga nisbatan Muhtaram Prezident (yoki Shavkat Miromonovich), deb

¹ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 36-37.

² Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 44-46.

murojaat qilinadi. Baʼzan oʻzbek madaniyatida hatto Prezidentning ismiga “aka” soʻzini qoʻshib murojaat qilish hollari ham kuzatiladi. Bunday holat boshqa madaniyat vakillari uchun lingvistik shokni yuzaga chiqarishi mumkin. Negaki, boshqa madaniyatlarning rasmiy muloqotida “ism+aka” yoki “ism+opa” qolipidagi murojaat shaklini ishlatish mumkin emas. “Ism+aka” yoki “ism+opa” qolipidan faqat qarindosh-urugʻ yoki oʻta samimiy munosabatlardagina foydalanish mumkin¹.

3. *Suhbatga kirishishda va uni boshqarishda standart yoki “joiz boʻlgan” mavzular.* Barcha madaniyatlarda muloqotga kirishish yoki suhbatga tortadigan standart mavzular mavjud. Masalan, merikaliklar uchrashganda koʻproq ob-havo va siyosat haqida, yaponlar esa ob-havo va til haqida gaplashishadi². Oʻzbeklar “bola-chaqadan” gap ochsalar, xitoyliklar “Ovqat yedingizmi?” (你吃饭了吗? – Ni tish le ma?), deb salomlashishadi. Mazkur standart mavzuni koreys madaniyatiga ham koʻchganini kuzatish mumkin. Koreyslarda salomdan keyin “Ovqat yedingizmi?” (식사하셨어요? – Shiksa hashyossoyo?) yoki “Ovqat yedingmi?” (밥먹었어? – Bab mokosso?), deb soʻrash anʼanaga aylangan³.

Salomlashishning mazkur turi xitoyliklarning milliy mentalitatida qanday paydo boʻlgani kishini oʻylantirib qoʻyadi. Odatda xitoyliklarning ovqatga boʻlgan bunday shinavandaliklari Xitoyda uzoq yillar davom etgan ocharchilik bilan izohlaniladi. Darhaqiqat, qurgʻoqchilik, suv toshqinlari, chigirtka balosi va h.k. ofatlar Xitoy aholisini muntazam ravishda qiynab kelgan. Olimlarning hisoblashlaricha, eramizdan avvalgi 108-yillardan to 1911-yillar oraligʻida Xitoyda 1828 ta oziq-ovqat fojiasi kuzatilgan. Qahatchilik yillarida xitoyliklar zaxarli choʻchqa yongʻogʻi (dub daraxtining mevasi), tosh uvoqlari va boshqa yeb boʻlmaydigan narsalarni isteʼmol qilishga majbur boʻlishgan. Tilanchilar Xitoyda “ovqatga muhtojlar”, deb nomlangan va ular biron yegulik topish umidida shahar koʻchalarida idish koʻtarib tentirab yurganlar. Gʻarblik missionerlarning qayd etishicha, hatto xitoy tili kurslari “ovqat” va “oziq-ovqat” soʻzlari bilan boshlangan. Koʻp dehqonlar oʻz bolalarini oziq-ovqat uchun sotib yuborganlar. Biroq xitoyliklarning ovqatga boʻlgan alohida eʼtiborining yagona sababi faqat tarixdagi ocharchilik hisoblanmaydi. Zero, ovqat xitoyliklar uchun hayotning haqiqiy lazzi ham sanaladi⁴. Xitoylik donishmandlardan biri: “Agar biz biron narsaga jiddiy yondashadigan boʻlsak, u holda dinga yoki bilimga emas, balki ovqatga shunday yondashamiz”, deb yozgan edi⁵. Qadimgi yunonliklar yashash uchun yeyish kerak deb hisoblagan boʻlsalar, xitoyliklar yeyish uchun yashashlarini tan olishadi.

¹ Усманова Ш., Каланова Д. Ўзбек ва корейс тилларида расмий мурожаат шакллари // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. III. – Тошкент: 2012. –Б. 162-163.

² Сибата Такэси. “Нихонго-сайхаккэн”-сайсюниацу (Возобновление [передачи] “Новое открытие японского языка”) // -Г. 1984, - № 2. –С. 2.

³ Усманова Ш. Хитой лингвомаданиятида тановул қилиш таомилининг ўзига хос хусусиятлари // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, TDSHI, 2015 yil 28 noyabr. B. 31-36.

⁴ Бейсембаев А.Р., Жак С.В. Языковая картина мира как производная национального менталитета Вестник инновационного Евразийского университета. Павлодар, 2012. // <https://articlekz.com/article/13368>.

⁵ Бажанов Е.П. Съедобные драконы. Тайны китайской кухни. –М.: Восток-Запад, 2008. –128 с.: илл.

4. *Taqiqlangan yoki yopiq mavzular.* Samarali madaniyatlararo muloqot jarayonida maqbul mavzularga rioya qilish muhim jihat hisoblanadi. Kommunikatsiya chog'ida etnik me'yorlar va odob-axloq qoidalariga rioya qilish zarurati bilan bog'liq murakkab vaziyat yuzaga chiqishi mumkin. Yaqin Sharqda diniy mavzular, shuningdek, ishqiy va shaxsiy mavzulardan so'z ochish qabul qilinmagan. Taqiqlangan mavzular ma'lum madaniyatdagi odob-axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalariga zid bo'lgan mavzular sanaladi¹.

Keyingi yillarda qator mamlakatlarda yashash sharoitlarining yaxshilanib borishi natijasida kishilar vaznining og'irlashib borayotgani kuzatilmoqda. Ortiqcha vazn og'irligi, ayniqsa, ayollarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun Koreya, Xitoy kabi mamlakatlarda ayollar bilan muloqot chog'ida "vazn" mavzusidan so'z ochmagan ma'qul.

5. *Umumqabul qilingan metaforalardan foydalanish.* Madaniyatlararo muloqotda umumqabul qilingan metaforalar, o'xshatishlar, latifalardan foydalanishda nihoyatda ehtiyotkor bo'lish tavsiya etiladi. Ular muayyan madaniyat uchun qadriyat hisoblanishi, boshqa madaniyat esa ularni mutlaqo no'to'g'ri qabul qilishi mumkin. Masalan, o'zbek madaniyatida *qo'ydek* etaloni "yuvoshlik", turk madaniyatida *koyun gibi* "ahmoq, dovdir", "qaror berishda yoki xatti-harakatlarida boshqalarga tobe bo'lgan", rus madaniyatida *овца* etaloni "qo'rqqoqlik"ni ifodalaydi. Yoki o'zbeklarda xushbichim qomatli ayollarga *sarvday*, turklarda gavgdali ayollarga *at gibi* o'xshatishi qo'llaniladi. Hindlarda sohibjamol qizning yurishi filning ulug'vor va mahobatli qadam tashlashiga muqoyasa qilinadi. Yoki hind ayoli sigirga qiyoslanganda u xursand bo'ladi, chunki hind xalqining idrokida sigir go'zallik timsoli sifatida gavgdalanadi. Shuningdek, Hindistonda sigir muqaddas hayvon sanaladi².

6. *Tabaqalanish va ijtimoiy farqlar bilan bog'liq tafovutlar.* Tabaqalanish, yosh va jins farqlari bilan bog'liq verbal salomlashishdagi tafovutlar. Kim birinchi salom beradi (o'tirganmi yoki turganmi, yoshi kattami yoki kichik, boshliqmi yoki unga bo'ysunuvchi xodim, mijozmi yoki boshqaruvchi, ayolmi yoki erkak)?³

Sharq madaniyatida salomlashish odati yoshga, sharoitga, mavqega, jinsga va marosimlarga ko'ra amalga oshiriladi. Bunda, asosan, kichiklar kattalarga, xodimlar boshliqlarga, ko'p hollarda ayollar erkaklarga birinchi salom berishi me'yoriy hol hisoblanadi. G'arb madaniyatida kattalar kichiklarga, boshliqlar xodimlarga birinchi salom berishi hollari ham kuzatiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Kommunikativ faoliyat vositalari qanday guruhlarga ajraladi?
2. Belgining asosiy xususiyati nima?

¹ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 45.

² Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari (O'quv qo'llanma). –Toshkent: ToshDSHI, 2015. –B. 104.

³ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 45.

3. G'arbda kommunikativ faoliyatda qo'llaniladigan belgilarga qanday munosabat ko'rsatiladi?
4. Sharqda kommunikativ faoliyatda qo'llaniladigan belgilarga qanday munosabat ko'rsatiladi?
5. Uzoq Sharq madaniyatida "inkor" yoki "yo'q" tushunchalarini ifodalashga qanday yondashiladi?
6. Sharq madaniyatida sukutga munosabat qanday?
7. Koreys madaniyatidagi rasmiy murojaat shakllarida qaysi belgiga rioya qilinadi?
8. Amerika madaniyatida qaysi mavzu standart hisoblanadi?
9. Xitoy va Koreyada qaysi mavzu standart hisoblanadi?
10. Yaqin Sharqda qaysi mavzulardan so'z ochish qabul qilinmagan?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. O'zingiz o'rganayotgan xorijiy tildagi maishiy leksika bilan bog'liq assotsiativ eksperiment o'tkazing.
2. "Sharq madaniyatida odob-axloq me'yorlari" mavzusida taqdimot tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari (O'quv qo'llanma). – Toshkent: ToshDSHI, 2015. -192 b.
2. Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. –P. 66-70.
3. Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. -141 с.
4. Усманова Ш., Каланова Д. Ўзбек ва корейс тилларида расмий мурожаат шакллари // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. III. – Тошкент: 2012. –Б. 162-166.
5. Усманова Ш. Хитой лингвомаданиятида тановул қилиш таомилининг ўзига хос хусусиятлари // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, TDSHI, 2015-yil 28 noyabr. –B. 31-36.
6. Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда новербал воситаларнинг аҳамияти // Маданиятлараро мулоқот масалалари: тил, матн, таржима. Илмий-амалий анжумани материаллари. –Тошкент: ТошДШИ, 2016. –Б. 11-16.
7. Фалькова Е. Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. -77 с.

7-MA'RUZA

NOVERBAL KOMMUNIKATSIYA

Reja:

1. Noverbal muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari
2. Kommunikativ faoliyatning noverbal vositalari

Tayanch soʻz va iboralar: noverbal muloqot, noverbal vositalar, verbal xabar, noverbal xabar, qoʻl harakatlari, imo-ishoralar, masofa, emotsional holat, salomlashuv, xaylashuv, inkor, rozilik, iltimos qilish, kechirim soʻrash.

7. 1. Noverbal muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari

Noverbal (soʻzsiz, nutqsiz) kommunikatsiya muloqot qilayotgan individlarning bir-biriga oʻzaro taʼsiri va emotsional holati haqida signal beruvchi muloqot shaklidir.

Noverbal kommunikatsiya kishilarning eng qadimiy muloqot shaklidir. Kommunikatsiyaning noverbal vositalari tildan oldin rivojlangan boʻlib, ularning dastlabki vazifasi oʻzining barqarorligi va samaradorligi bilan ajralib turgan. Astasekin ularning verbal vositalardan afzalligi namoyon boʻlgan: ular bevosita qabul qilingan, shuning uchun ham adresatga kuchli taʼsir koʻrsatgan. Ular vositasi qandaydir sababga koʻra soʻz orqali berib boʻlmaydigan eng nozik tuygʻular, munosabatlar ifodalangan.

Noverbal kommunikatsiya kishilar oʻrtasidagi noverbal xabarlar almashinuvi va ularning talqinini bildiradi. Har bir madaniyat borliqni oʻziga xos belgilar va ramzlar yordamida aks ettirgani uchun ham noverbal muloqot yuzaga chiqadi.

Noverbal xabar katta koʻlamdagi maʼlumotlarni berish imkoniyatiga ega. Bu avvalo, muloqotchining shaxsiyati haqidagi maʼlimotdir. Muloqot chogʻida muloqotchining mizoji, hissiy holatini bilib olishimiz, uning shaxsiy xususiyatlari va xislatlari, kommunikativ salohiyati, ijtimoiy maqomini aniqlab olishimiz, shuningdek, uning oʻz shaxsi haqidagi fikrlarini oʻrganib olishimiz mumkin. Shu bilan birga, noverbal vositalar orqali muloqotchilarning bir-biriga boʻlgan munosabati, ularning yaqinligi yoki uzoqligi, munosabat turi (ustunlik-tobelik) va oʻzaro aloqalarining taʼsirini bilib olish mumkin. Vanihoyat, muloqot ishtirokchilarining vaziyatga boʻlgan munosabati, yaʼni ular mazkur vaziyatda oʻzlarini qanchalik erkin tutishyapti, ular uchun muloqot qiziqarliymi yoki tezroq mulotdan chiqib ketishga harakat qilishyaptimi va h.k. haqida maʼlumotga ega boʻlish mumkin.

Madaniyatlararo muloqot jarayonida noverbal muloqot verbal muloqotning tarkibiy qismi va u bilan oʻzaro bogʻliq hisoblanadi. Verbal va noverbal vositalar bir-birini toʻldirishi, inkor qilishi va almashinishi mumkin:

- noverbal muloqot verbal xabarni toʻldirishi mumkin. Agar siz kulib: “Salom, ishlar qalay?” desangiz, u holda bu ikki harakat bir-birini toʻldiradi.

- noverbal xatti-harakat verbal xabarga zid bo'lishi mumkin. Agar siz suhbatdoshingizning ko'ziga qaramay: "Siz bilan gaplashish juda yoqimli" desangiz, bunday noverbal harakat sizning ijobiy verbal xabaringizni inkor etadi.

- noverbal xatti-harakatlar verbal xabarning o'rnini almashtirishi mumkin. Bola: "Bu o'yinchoqni xohlayman" deyish o'rniga o'yinchoqni ko'rsatishi mumkin.

- noverbal harakatlar verbal xabarni boshqarishi mumkin. Masalan, bosh qimirlatish, qarash, talaffuz yordamida so'zlash navbati kelganini anglash mumkin.

- noverbal harakat verbal xabarni takrorlashi mumkin: Sekinroq gapirish haqidagi iltimosni, ko'rsatkich barmoqni labga bosish harakati bilan birga amalga oshirish mumkin.

Noverbal xabar har doim vaziyatdan kelib chiqadi, undan faqat muloqot ishtirokchilarining hozirgi holatinigina anglash mumkin. Noverbal xabardan verbal xabardagidek mavjud bo'lmagan predmetlar yoki boshqa joyda yuz bergan hodisalar haqida ma'lumot olib bo'lmaydi.

Odatda noverbal xabar g'ayriixtiyoriy va o'z-o'zidan yuz beradi. Kishilar o'z maqsadlarini yashirish uchun nutqlarini nazorat qilishlari mumkin, biroq ular o'zlarining noverbal xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydilar¹.

7. 2. Kommunikativ faoliyatning noverbal vositalari

Noverbal kommunikatsiya noverbal vositalar yordamida amalga oshiriladi. Noverbal vositalar deganda jestlar (tana, qo'l harakatlari), imo-ishoralar (mimika), tegish (qo'l tegizish, quchoqlash, silash, o'pish va h.k.), tana holati, kishilar orasidagi masofa kabilar tushuniladi.

Jestlar – kommunikatsiya jarayonida inson nutqining tana, qo'l yoki barmoqlarning harakatlari bilan birga kechadigan va kishining bevosita suhbatdoshiga qaratilgan, qandaydir hodisaga, qandaydir shaxsga, qandaydir narsaga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan turli harakatlaridir.

Kishilarning biron hodisa yoki holatni tushuntirish maqsadida ishlatadigan qo'l harakatlari turli madaniyatlarda turlicha ma'no kasb etadi. Buning sababi madaniyatlararo ramzlar va tushunchalarning farqlanishidadir².

Salomlashuv. Dunyodagi barcha madaniy xalqlar o'zaro insoniy munosabat, muomala va muloqotni salomdan boshlashadi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog'liq o'z urf-odatlar bor. Masalan, Indoneziyaning Bali orolida ikki sevishgan bir-birini pishillab salomlashi mumkin. Birma, Mo'g'iliston va Laplandiyaliklar salomlashish tariqasida bir-birini hidlashi, eskimoslar notanish kishining boshiga va yelkasiga mushtlashi mumkin. Amazonka xalqi o'zaro yelkaga qoqish orqali, Polineziya xalqi esa suhbatdoshini quchoqlab, yelkasini silash orqali o'zining salomini ifodalaydi³.

¹ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 46-47.

² Schober O. Beden Dili: Davtaniş Anahtarı. Çeviren: Süeda Özbent. –İstanbul: Arion Yayınevi, 2003. –S. 163.

³ Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 42.

O'zbek, yapon va koreys xalqlarining salomlashish odati yoshga, sharoitga, mavqega, jinsga va marosimlarga ko'ra turli shakllarda ijro etiladi. Jumladan, o'zbeklar "assalomu alaykum" (arabcha "sizga tinchlik tilayman"), "vaalaykum assalom" ("sizga ham tinchlik tilayman") deya ¹ *ikki qo'llab, qo'lini ko'ksiga qo'yib, quchoqlashib, kiftlarini, yelkalarini silab-siypab, peshona o'pib, uzoq vaqt ko'rishmaganda bir-birini ko'tarishib, ayollar yelka qoqishib, o'pishib so'rashishadi.*

O'zbek madaniyatida qo'l qovushtirib salomlashish (ikki qo'lni kindik ustiga qovushtirib, bosh sal oldinga egilgan holat) odati erkaklarga xos bo'lib, quyidagi vaziyatlarda amalga oshiriladi:

- 1) g'oyat hurmatli keksani uchratganda;
- 2) to'yxona darvozasi yonida turganda (mehmonlarni kutib yoki kuzatayotganda);
- 3) ta'ziyaga borganda; to'y, bayram, boshqa yig'in dasturxonlariga tayyorgarlik ko'rish jarayonida yosh yigitlar shunday holatda turadi ("xizimatingizga tayyorman")².

Odatda yaponlar salomlashganda "*Ohayou*" ("*Xayrli tong*"), "*Konnichiwa*" ("*Assalomu alaykum*", "*Salom*") deb egilib, ya'ni ta'zim qilib ("ojigi") ko'rishishadi.

Yapon madaniyatida salomlashish iyerarxik munosabatlarni qamragan 15, 30, 45, 90 darajali ta'zim qilish vositasida ifodalanadi. Ta'zimning darajasi qarshidagi kishining yoshiga, jinsiga, mansabiga, mavqeyiga, shuningdek, salomlashish joyiga qarab farqlanadi.

Tik oyoqda, turgan holatda ijro etiladigan ta'zim:

¹ Сагтор М. Ўзбек удумлари. –Тошкент, 1993. –Б. 61.

² <http://fikir.uz/posts/buxdu/14537.html>

a) 15° – yengil ta'zim, faqat yo'lda uchragan tanishlarga mo'ljallangan.



b) 45° – o'rtacha ta'zim, mavqeyi va mansabi yuqori bo'lgan shaxslar, o'qituvchilar va boshqa rasmiy shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.



c) 90° – yuksak ehtiromli ta’zim, turli marosimlar chog’ida yuksak martabali mehmonlarga, shuningdek, jiddiy iltimos bilan murojaat qilinganda ijro etiladi.



O’tirgan holatda ijro etiladigan ta’zim:

- a) 15°– yengil ta’zim, qo‘l ostidagilar va tanishlar uchun qo‘llaniladi;
- b) 30° – o‘rtacha ta’zim, ehtirom darajasi biroz yuqori bo‘lib, tashkilotlarga kelgan mehmonlar uchun ijro etiladi;
- c) agar ta’zim xizmat doirasida mansabi yuqori bo‘lganlarga qaratilgan bo‘lsa, u holda o‘rindan turish lozim bo‘ladi¹.

Shunga o‘xshash holatni koreys madaniyatida ham kuzatish mumkin. Koreyslar salomlashishganda bosh hamda gavdaning butun yuqori qismini egib, belni bukib *ta’zim qilishadi*. *Ta’zim qilish* chog’ida nazokat va ehtiromning darajasi, qarshidagi kishining yoshiga, jinsiga, mansabiga, mavqeyiga qarab ortib boradi. Erkaklar qo‘llari yonda, erkin holda, ayollar bo‘lsa, erkaklarga nisbatan ko‘proq egilgan holda, qo‘llarini tizzalarining ustiga qo‘yib “*annyeonghaseyo*”, “*annyeonghashibnikka*” (“eson-omonmisiz?”) deb so‘rashishadi.

¹ Рогозная Н. Н., Мацура Аки. Японские невербальные средства общения // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. –М.: МАКС Пресс, 2001. .Вып. 16. –С. 68.





Koreys an'analari va marosimlarida ham *ta'zim qilish* odati juda keng tarqalgan. Jumladan, nikoh to'yida kelin ikki marta, kuyov bir marta bir-birlariga, so'ngra kelinning ota-onasiga, kuyovning ota-onasiga va mehmonlarga ta'zim qilishadi.

Bundan tashqari, *ta'zim qilish* harakati koreys kundalik-muomalasida "tabriklash", "iltimos qilish", "kechirim so'rash" va "minnatdorchilik izhor qilish" kabi qator ma'nolarni ham kasb etgan. Ayni ma'nolar yapon madaniyati uchun ham xosdir. O'zbeklar bu ma'nolarni biroz egilib, *qo'lni ko'ksiga qo'yish* bilan ifodalashadi.

Qator madaniyatlarda *qo'l olishib* so'rashish, "tinchlik, omonlik tilash" ma'nosini ifodalaydi. Qadimda odamlar qabila-qabila bo'lib yashashgan, aksariyat hollarda bir-birlariga raqobatda bo'lgan guruhlarining vakillari, "mana, qo'limda qurolim (bolta, pichoq, tosh) yo'q, qo'lim ochiq" mazmunida *qo'l olishib* ko'rishishgan. Shu bilan bir-birlariga tinchlik, omonlik tilashgan¹.

O'zbek madaniyatida *qo'l berib* salomlashish me'yoriy hol sanaladi. Biroq *qo'l berib* so'rashish odati yapon va koreys madaniyatiga xos emas. Shunga qaramay, bu odat Koreyada 1945-yildan keyin amerikaliklarning ta'sirida tarqala boshladi². Keyingi yillarda yaponlar orasida ham *qo'l siqishib* so'rashish tarqalib bormoqda.

Xayrlashuv. O'zbek madaniyatida yoshi katta va mavqeyi yuqori bo'lgan shaxslarga nisbatan *qo'lni ko'ksiga qo'yib*, koreys va yapon madaniyatlarida *ta'zim qilib* xayrlashiladi. O'zbek noverbal muloqotida "xayr" ishorasi yoshi teng yoki kichik bo'lgan, shuningdek, sinfdosh, kursdosh yohud kasbdoshlarga nisbatan

¹ Саттор М. Ўзбек удумлари. –Тошкент, 1993. –Б. 62.

<http://www.happycampus.com/pages/2000/10/23/D1014397.html> 03-06-05;

<http://www.elections.spb.ru/elections/razdel9/bodysign.htm> 03-06-15.

²Choi Yunhee. Biono komunikeishon. –Seul, 1999. P. 62-63.

qo'lini ko'tarib, kaftini yuqoridan pastga silkitib, koreys va yapon noverbal muloqotida esa, qo'lini ko'tarib, chapdan o'ngga silkitib xayrlashiladi.

Aytilganlar bilan birga, yapon madaniyatida erkaklar do'stlari bilan xayrlashish chog'ida *o'ng qo'lini ko'ksiga ko'tarib, keyin tezda pastga tushirishadi.* Shuningdek, *bir qo'lni yelgaga qadar pastdan yuqoriga ko'tarib* ham xayrlashiladi¹.

Rozilik. “Biror fikrni tasdiqlash, rozilikni ifodalash” ma’nosidagi *bosh irg’atish* – boshni yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga bir marta yoki bir necha marta silkitish harakati deyarli barcha xalqlarning noverbal muloqotida kuzatiladi. Ba’zan mazkur harakat suhbatdoshini eshitish, uning gaplarini ma’qullash ma’nosida ham qo’llaniladi. Bundan tashqari, yapon madaniyatida “rozilik” *bir marta yoki bir necha marta chapak chalish* yoki *qo’llarni bosh uzra ko’tarib halqa hosil qilish*² harakatlari vositasida ham ifodalanadi.

Bosh irg’atish harakati ba’zan ifodaga mos bo’lmasligi ham mumkin. Masalan, o’zbeklar *bosh irg’atib*, “yaxshi, o’ylab ko’ramiz, maslahatlashib ko’ramiz” deganida, “rozilik” emas, balki “yo’q” ma’nosi ko’zda tutilgan hollar ham kuzatiladi. Yoki ba’zan yaponlar suhbat chog’ida *bosh irg’atib* o’zlarini xuddi “xo’p” degan tinglovchidek tutishlari qarshidagi suhbatdoshda “hamma narsani tasdiqlayapti” degan taassurot qoldirishi mumkin. Aslida, mutlaqo teskarisi bo’lishi ham mumkin. Shuning uchun yaponlar bilan muloqot chog’ida ular bilan uyg’un munosabatda bo’lish, bahslardan qochish hamda ularning tuyg’ularni ifodalash tarzini tushunishga harakat qilish maqsadga muvofiqdir.

Inkor. “Yo’q” javobini bildirish ma’nosidagi *bosh chayqamoq* – boshni ikki yonga bir necha marta burish madaniyatlarning aksariyatida keng tarqalgan harakatlardan biridir. O’zbek madaniyatida *boshni ikki yelka tomon bir necha marta egish* harakatiga ham *bosh chayqamoq* deyiladi va u “taassuflanish” ma’nosida qo’llaniladi. Mazkur harakat koreyslarda “ikkilanmoq, taraddudlanmoq” (“*halka-malka*”) ma’nosida ijro etiladi.

Yapon madaniyatida inkor ma’nosi *bosh chayqash* bilan birga, *yuzning oldida bir qo’lni o’ngdan chapga harakat qildirib, bosh chayqash* orqali beriladi. *Bilaklarni yuqoriga va pastga harakatlantirish* vositasida ham inkor ma’nosi ifodalanadi. Odatda ushbu qo’l harakati katta yoshli ayollar tomonidan ularga xushomad qilinganda ijro etiladi. *Ko’rsatkich barmoqlarni kesishtirib (krest) qilib ko’ksiga qo’yish* orqali “taqiq”, “biron ishni bekor qilish” yoki “rozi bo’lmaslik” anglashiladi³.

Turk madaniyatida inkor ma’nosi *bosh chayqash* bilan birga, *boshni pastdan yuqoriga ko’tarish* harakati vositasida ham beriladi.

Aksariyat madaniyatlarda “inkor” yoki “yo’q” tushunchalari *qo’l yoki ko’rsatkich barmoqni ikki yonga bir necha marta silkitish* orqali ham ifodalanadi.

¹ Рогозная Н. Н., Мацура Аки. Японские невербальные средства общения // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. –М.: МАКС Пресс, 2001. .Вып. 16. –С. 67.

² Ko’rsatilgan asar, 69-bet.

³ Рогозная Н. Н., Мацура Аки. Японские невербальные средства общения // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. –М.: МАКС Пресс, 2001. .Вып. 16. –С. 70.

Kechirim so‘rash. O‘zbek madaniyatida *o‘ng qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib*, koreys va yapon madaniyatida *ta‘zim qilib*, kechirim so‘raladi. Koreys kundalik muomala madaniyatida biron nojoiz harakat sodir bo‘lganda kattalarning, shuningdek, boshliqlarning qarshisida *tiz cho‘kib* (“murip kkulda”) kechirim so‘rash odati keng tarqalgan. Hokim sinf qarshisida *tiz cho‘kib* “bir qoshiq qonimdan keching” deya kechirim so‘rash odati bir paytlar o‘zbeklarda ham bo‘lgan, biroq hozirgi kunda bu odat yo‘qolib ketgan.

Koreys noverbal muloqotida “kechirim so‘rash” hamda “o‘tinib so‘ramoq, iltijo qilmoq, yolvormoq” (“bilda”) ma‘nolari *kaftlarni bir-biriga ishqalash* orqali anglashiladi. O‘zbek noverbal muloqotida ushbu harakat “umidvor bo‘lmoq” ma‘nosini bildiradi¹.

Yapon madaniyatida kechirim so‘rash a) *ta‘zim* vositasida ifodalanishi bilan birga, b) *bir qo‘lni ko‘ksiga ko‘tarib, keyin uni xuddi biron nima kesayotgandek ikki yoki uch marta oldinga harakatlantirish*, c) *kaftlarni birlashtirish*, d) *pešanasiga bir necha marta urish*, e) *qo‘llarini boshi uzra ko‘tarib, kaftlarni birlashtirish* kabi qo‘l harakatlari vositasida kulimsirab amalga oshiriladi.

O‘zbek madaniyatida *pešanasiga urish* qo‘l harakati “e, attang” ma‘nosida, koreys madaniyatida esa “qilgan ishidan afsuslanish, pushaymon bo‘lish” (“shilsu”) ma‘nosida qo‘llaniladi.

Narsalarni uzatish va olish. O‘zbek madaniyatida “hurmat-izzat” ma‘nosida choy, ovqat va shunga o‘xshash narsalar *o‘ng qo‘l bilan, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib* uzatiladi. Ayollar *chap qo‘lini o‘ng qo‘lining tirsagiga*, ba‘zan *ko‘ksiga qo‘yib* uzatishadi. Uzatgan odamning yoshi ulug‘ bo‘lsa, qarshidagi kishi ham aynan shu shaklda olishi kerak bo‘ladi. Bu odat koreyslarda juda keng tarqalgan bo‘lib, kattalarga narsa berganda *o‘ng qo‘li bilan, chap qo‘lini o‘ng qo‘lining tirsagiga*, ba‘zan *ko‘ksiga qo‘yib* uzatishadi. Shu bilan birga, narsalarni *qo‘sh qo‘llab uzatish* yoki kattalardan olganda *qo‘sh qo‘llab olish* odati ham ko‘p kuzatiladi. Hatto do‘konlardagi sotuvchilar xaridor uzatgan pulni yarim ta‘zim holatida, *ikki qo‘llab olishadi*, qaytimni ham *ikki qo‘llab qaytarishadi*. Ayni holat yapon madaniyatiga ham xosdir². Binobarin, A. Kumuyama yapon madaniyatida biron narsa olinganda yoki berilganda qo‘llarning muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi. Masalan, yaponlar tashrif qog‘ozini ikki qo‘llab uzatishadi, uni olgan kishi ham ikki qo‘llab olishi lozim bo‘ladi. Aks holda, hurmatsizlik yoki qo‘pollik qilgan sanaladi. Shunga o‘xshash holat sovg‘a olinganda ham kuzatiladi. Yaponlar sovg‘ani oyoqda tik turib, ikki qo‘llab taqdim etishadi. Sovg‘ani ikki qo‘llab olish maqsadga muvofiqdir. Yapon madaniyatida sovg‘ani ikki qo‘llab olish “qadrlash”, “minnatdor bo‘lish” va “tashakkur bildirish” ma‘nolarini anglatadi³.

¹ Usmanova Sh. O‘zbekcha va Koreyscha so‘zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol. 9. - Seoul, 2004. –P. 52.

² Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда невербал воситаларнинг аҳамияти // Маданиятлараро мулоқот масалалари: тил, матн, таржима. Илмий-амалий анжумани материаллари. –Тошкент: ТошДШИ, 2016. –Б. 11-16.

³ Kumayama A. Japanese/American Cross-Cultural BusinessNegotiations // Intercultural Communication Studies, 1991. Volume: 1, Number 1. –P. 51-67.



Chaqirish. O‘zbeklar *qo‘lini oldinga uzatib, kaftini yuqoriga qaratib to‘rtta barmoq* yoki *ko‘rsatkich barmoq* bilan “bu yerga kel” deb ishora qilishadi. Koreyslarda bu ishora itlarni chaqirish uchun qo‘llaniladi. Koreys va yapon noverbal muloqotida biron kishini chaqirish uchun *qo‘lini oldinga uzatib, kaftini pastga qaratib to‘rtta barmoqni silkitish* harakatidan foydalaniladi.

Ko‘rsatish. O‘zbek madaniyatida *ko‘rsatkich barmoq to‘g‘riga yo‘naltirish* harakati biron kishi yoki narsani ko‘rsatish uchun qo‘llanilsa, Uzoq Sharq madaniyatida *ko‘rsatkich barmoq bilan ko‘rsatish* tarbiyasizlik, odobsizlik hisoblanadi; shuning uchun ham mazkur madaniyatlarda biron kishi, narsa, joy yoki yo‘l so‘ralganda kaftlarini yuqoriga yozib, ko‘rsatib ishora qilinadi. O‘zbeklar “men”, “menmi?” ma’nosida bosh yoki ko‘rsatkich barmoq bilan *o‘zini niqtab korsatsa*, koreyslar *kafti bilan o‘zini ko‘rsatadi*. Yaponlar esa ko‘rsatkich barmog‘i bilan burnini ko‘rsatib, “men” ma’nosini ifodalaydi.

Juda yaxshi. Madaniyatlarning ko‘pida *bosh barmoqni ko‘rsatish* harakati “juda yaxshi”, “zo‘r”, “mixday” ma’nolarini ifodalaydi. Koreys noverbal muloqotida “juda yaxshi” ma’nosidan tashqari “boshliq” (“udumori”) va “muhr” (“dojang”) kabi ma’nolarni ham bildiradi.

Va‘da berish. Koreys va yapon noverbal muloqotida *jimjiloq barmoqni ilgak qilish* – ikki kishining jimjiloq barmoqlarini bir-biriga tutashtirib, ilgak holatiga keltirishi ko‘pincha yosh bolalarga xos qo‘l harakati bo‘lib, o‘zaro va‘da berish, ahdlashishning ramzi sanaladi. Mazkur qo‘l harakatidan arazlashib qolgan o‘zbek bolalari yarashish uchun foydalanishadi.



Erkalatish. Yevropa, Amerika, O‘zbekiston va h.k. mamlakatlar madaniyatida bolalarni, sevgilisini yoki biron bir hayvonni erkalatib, *boshini silash* me‘yoriy hol hisoblanadi. Koreyslar “barakalla!” (“chal hesso!”) ifodasini *boshni silash* harakati orqali bildirishadi. Biroq ayrim Osiyo mamlakatlarida bunday harakat noqulay vaziyatni yuzaga chiqaradi. Chunki, Hindiston va Shri-Lankada ruhning boshda bo‘lishiga ishoniladi.

Pul. “Pul” tushunchasini ko‘pchilik xalqlar, jumladan, o‘zbeklar ham *bosh, o‘rta va ko‘rsatkich barmoqlarning uchlarini ishqalab* ifodalasa, koreyslar va yaponlar *bosh barmog‘i bilan ko‘rsatkich barmog‘ining uchlarini tutashtirib*, “o” halqa holiga keltirib ifodalashadi. Mazkur qo‘l harakati Amerikada “muammo yo‘q” yoki “muvaffaqiyat” ma‘nosida, Lotin Amerika va Turkiyada so‘kish uchun ishlatiladi.

Kulgi. Yapon va koreys madaniyatlarida ayollarning og‘zini ochib, tishlarini ko‘rsatishi odobsizlik sanaladi. Shuning uchun o‘tmishda ayollar tishlarini qoraga bo‘yab yurishgan. Hozirda ayollar kulganda og‘izlarini *kaftlari bilan to‘sishtadi*. Bunday holatni o‘zbek ayollarida ham kuzatish mumkin

Odatda aksariyat madaniyatlarda kulgi xursandlik, vaqtichog‘lik va zavqlanishni, ayrim hollarda mazah qilishni ifodalaydi. Biroq boshqa madaniyatlardan farqli o‘laroq, yaponlar uyalganda, o‘zlarini yomon his qilganlarida, qayg‘uli holatlarda kulimsiraydilar. Hatto yaqinlaridan biri vafot etganda ham qayg‘ularini kulimsirab ifodalaydilar. Bunday holat turkiy xalqlarning madaniyatida salbiy baholanadi. Shuning uchun yaponlar bilan muloqot chog‘ida ularning kulimsirashlarini har doim ham xursandlik, baxtiyorlik ifodasi sifatida tushunish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Sevgili. Koreys va yapon madaniyatida erkaklar jazmanlari haqida gaplashishganda *jimjiloq barmoqni ko‘rsatishadi*. Ikkala *ko‘rsatkich barmoqning uchini bir-biriga tegizish* harakatidan “erkak va ayol o‘rtasidagi ishqiy munosabat” tushuniladi.

Ovqatlanish. Ma'lumki, o'zbek madaniyatida palovni qo'l bilan yeyish odati keng tarqalgan. Ovqatni qo'l bilan yeyilganda *barmoqlarni yalash* ishorati "ovqatning juda mazali ekanligini" ifodalaydi. Koreys, yapon va xitoy madaniyatida taom qanchalik *chapillatib* yoki *xo'rillatib yeyilsa*, taom shunchalik mazali ekanligi anglashiladi. Hatto koreyslar taom ikrom qilinganda, o'zlarining minnatdorchiliklarini *chapillatib yeyish orqali* izhor qilishadi. Qator madaniyatlarda aksincha, ovqatni *chapillatib* yoki *xo'rillatib yeyish* tarbiyasizlik sanaladi.

Ovqatdan so'ng koreyslar *boshini egib*, "chal mogossoyo" ("mazza qildim", "yaxshi yedim") deb, yaponlar *kaftlarini birlashtirib ko'ksiga qo'yib* minnatdorchilik bildirishadi. Xitoyliklar esa tanovul chog'ida ko'rsatilgan e'tibor va iltifot uchun ikki barmog'ini stolning chetiga bir necha marta taqillatib minnatdorchilik izhor qilishadi¹. Nazokatni ifodalovchi ushbu qo'l ishorasi Sin sulolasi davridan qolgan, deb hisoblanadi. Imperator xalqdan xabar olgani chiqqanida uni uzatib borayotgan hamrohlari imperatorga bo'lgan hurmatlarini so'z bilan ifodalashga botinolmay, uni ikki barmoq bilan stolni taqillatib bildirishgan².

Uzoq Sharq madaniyatida ovqat qoshiq yoki sanchqi o'rnida qo'llaniladigan "hashi" (yapon), "chokarak" (koreys), "kuayzi" (xitoy) deb nomlanadigan tayoqchalar vositasida iste'mol qilinadi. Tayoqchalar ovqat yeyishga mo'ljallangani uchun ularni yalash, ular bilan taomlarni qorishtirish, nimanidir yoki kimnidir ko'rsatish, uchuni dasturxon atrofida o'tirganlardan biriga qaratish va shunga o'xshash xatti-harakatlarni amalga oshirish madaniyatni va an'analarni haqorat qilish, dasturxon atrofidagi qonun-qoidalariga nisbatan hurmatsizlik sifatida qabul qilinadi. Tayoqchalarni tarelkaga kesishtirib, ya'ni krest shaklida qo'yish ham haqorat hisoblanadi. Chunki, bunday xatti-harakat ovqatning yoqmaganligini ifodalaydi. Shuning uchun ovqatdan so'ng, albatta, tayoqchalarni maxsus taglikka yoki tarelkaning oldiga uchuni chap tomonga qaratib qo'yish lozim. Ayniqsa, kosadagi guruch yoki boshqa ovqatlarga tayoqchalarni tikka qilib tiqib qo'yish ham nomaqbul harakat sifatida qabul qilinadi. Binobarin, faqat marhumga atalgan ovqatgagina tayoqcha yoki qoshiq tiqib qo'yiladi.

Ichkilik ichish. Uzoq Sharq madaniyatida ichkilik ichish o'ziga xos mulozamat talab qiladi. Koreya va Yaponiyada ichkilik shishasi *ikki qo'llab ushlab* quyiladi, bunga javoban qarshidagi kishi ham qadahini *ikki qo'llab tutib* turadi.

Odob yuzasidan ayni shaklda ichkilik quyib bergan kishining qadahini to'ldirib berish kerak bo'ladi. Yana ichmoqchi bo'lgan odam bo'shagan qadahini, albatta, qo'liga olishi kerak bo'ladi. Bunday qilmasa, "bo'ldi, boshqa ichmayman" degani bo'ladi. Shuning uchun ham stoldagi bo'sh qadah to'ldirilmaydi. Stoldagi

¹ Усманова Ш. Хитой лингвомаданиятида тановул қилиш таомилининг ўзига хос хусусиятлари // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: TDSHI, 2015-yil 28-noyabr. –B. 33.

² Антонова Ю. А. Китайские традиции и приметы как носитель лингвокультурологической информации: особенности трапезы в дискурсе. <http://cyberleninka.ru/article>

bo'sh qadah faqat ma'rakada, marhumning xotirasi uchun to'ldiriladi. Koreyada "Gon be!" (건배), Yaponiyada "Kan pay!" qadah so'zi hisoblanadi.

Xitoy ziyofatlarida mezbon qo'lida qadah bilan har bir mehmonning yoniga borib u bilan ichishni taklif qiladi va qadah so'zlari aytadi. Mehmon ham o'z navbatida o'rnidan turadi va qadahini qo'lga olib mezbonga hurmat ko'rsatadi. Undan so'ng har bir mehmon navbati bilan mezbon va boshqa mehmonlarning yoniga borib qadah taklif qiladi va shu tarzda o'zining hurmatini bildiradi. Bundan so'ng "Qadahni bo'shatamiz!" "Gon be!" (干杯), deb qadahlar urishtirib ichiladi¹.



Masofa. Suhbatdoshlar orasidagi masofa noverbal muloqotning muhim komponentlaridan hisoblanadi. Kishilar o'rtasidagi muloqotda masofaning 4 xil ko'rinishi farqlanadi:

1) 50 sm – intim masofa. Agar suhbatdoshlar orasida bunday yaqin masofa bo'lsa, u holda ularning o'rtasida ishqiy munosabat mavjud bo'ladi. Yoki bunday masofa suhbatdoshlarning juda qalin do'st ekanligini ko'rsatadi. Demak, insonlarni qanchalik ko'pdan beri bilsak, suhbat chog'ida ularga shunchalik yaqinlashamiz.

2) 50-120 sm – shaxsiy masofa. Mazkur masofa bir xil ijtimoiy mavqedagi hamkorlar uchun mo'ljallangan.

3) 1,2 - 4 metrgacha – rasmiy muloqotga mo'ljallangan masofa. Rahbarning uning qo'l ostidagi xodimlari bilan muloqoti chog'ida ana shunday oraliq saqlanadi.

¹ Усманова Ш. Хитой лингвوماданиятида тановул қилиш таомилининг ўзига хос хусусиятлари // Хитойshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, TDSHI, 2015 yil 28 noyabr. –B. 31-36.

4) 4 - 7,5 metrgacha – ommaviy masofa. Bir qancha kishilarning rasmiy muloqotini anglatadi.

Madaniyatlar o‘zaro suhbat chog‘ida kishilar orasidagi masofaning uzoq-yaqinligiga ko‘ra muloqotli va muloqotsiz madaniyatlarga ajraladi¹. Masalan, arablar va turkiy xalqlar madaniyati o‘zaro muloqotda oradagi masofaning yaqin bo‘lishi jihatidan muloqotli madaniyatlar qatoriga kiradi. Xususan, o‘zbek va turk muloqotida tegish (qo‘l tegizish, quchoqlash, silash, o‘pish va h.k.) darajasining yuqoriligi kuzatiladi.

O‘zbek madaniyatida salomlashish 2 daqiqadan 5 daqiqagacha davom etadi, salomlashuv so‘zlaridan keyin, albatta, suhbatdoshning ahvoli, mehnat faoliyati, oila a‘zolarining umumiy ahvoli haqida so‘raladi. O‘zbeklar tez fursatda hol-ahvol so‘rab ketib qolishdan istihola qiladilar yoki ushbu holatni hurmatsizlikka yo‘yishadi. Salomlashish jarayoni paralingvistik vositalar (qo‘l uzatib ko‘rishish (erkaklarda), yuz urishtirib, yelkaga qoqib, qo‘lidan ushlab ko‘rishish) bilan hamohang tarzda olib boriladi. Salomlashishda emotsiya ham rol o‘ynaydi, ya‘ni ochiq chehra bilan tabassum qilib, ochiqko‘ngillilik va o‘ta samimiyat bilan so‘rashiladi. Suhbatdoshlar o‘rtasidagi masofa 60-80 sm.ni tashkil etadi².

Uzoq Sharq madaniyatida, aksincha, suhbat chog‘ida tegish darajasining pastligi va masofaning uzoqligi kuzatiladi. Yapon, koreys va xitoyliklarning muloqotida suhbatdoshga juda yaqinlashish, qo‘l tegizish, uni quchoqlash, o‘pish kabi harakatlar xushlanmaydi.

Xullas, madaniyatlararo muloqotda, ayniqsa, noverbal vositalarni to‘g‘ri talqin qilish, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Turli madaniyatlardagi noverbal vositalarni tadqiq etish madaniyatlararo muloqotda yuzaga chiqadigan to‘qnashuvlarni, kommunikativ xatolarni oldini oladi, madaniy shok holatini bartaraf etib, kommunikatsiyaning muvaffaqiyatli va samarali bo‘lishini ta‘minlaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Noverbal muloqot kommunikatsiyaning qanday shakli?
2. Noverbal xabar qanday imkoniyatlarga ega?
3. Madaniyatlararo muloqot jarayonida noverbal muloqot verbal muloqot bilan qanday aloqada bo‘ladi?
4. Noverbal muloqot verbal xabarni to‘ldirgan holatga misol keltiring.
5. Noverbal xatti-harakat verbal xabarga zid bo‘lgan holatga misol keltiring.
6. Noverbal kommunikatsiya qaysi vositalar yordamida amalga oshiriladi?
7. Jestlar qanday harakatlarni o‘z ichiga oladi?
8. O‘zbek an‘analarida salomlashish qaysi shakllarda ijro etiladi?
9. Yapon an‘analarida salomlashish qaysi shakllarda ijro etiladi?
10. Koreys kundalik muomalasida ta‘zim qilish harakati qaysi maqsadlarda qo‘llaniladi?

¹ <http://www.krugosvet.ru/articles/82/1008258/1008258a1.htm> 03-06-16.

² Юсупова Д.И. Маданиятлараро мулоқотда ўзбек ва олмон тилларида саломлашув концептининг ифодаланиши // <http://fikr.uz/posts/poems/9374.html>

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. “Sharq madaniyatida noverbal muloqot vositalari” mavzusida referat yozish.
2. O‘zingiz o‘rganayotgan til sohiblarining noverbal harakatlarini izohlab beradigan rasmlar majmuasi tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Choi Yunhee. Biono komunikeishon. –Seul, 1999.
2. Kumayama A. Japanese/American Cross-Cultural BusinessNegotiations // Intercultural Communication Studies, 1991. Volume: 1, Number 1. –P. 51-67.
3. Schober O. Beden Dili: Davranış Anahtarı. Çeviren: Süeda Özbent. –Istanbul: Arion Yayınevi, 2003.
4. Usmanova Sh. O'zbekcha va Koreyscha so'zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol. 9. - Seoul, 2004. 48-60 pp.
5. Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. -141 с.
6. Рогозная Н. Н., Мацура Аки. Японские невербальные средства общения // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. –М.: МАКС Пресс, 2001. .Вып. 16.
7. Саттор М. Ўзбек удумлари. –Тошкент, 1993.
8. Усманова Ш. Хитой лингвомаданиятида тановул қилиш таомилининг ўзига хос хусусиятлари // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, TDSHI, 2015-yil 28 noyabr. –B. 31-36.
9. Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда невербал воситаларнинг аҳамияти // Маданиятлараро мулоқот масалалари: тил, матн, таржима. Илмий-амалий анжумани материаллари. –Тошкент: ТошДШИ, 2016. –Б. 11-16.
10. Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. -77 с.
11. Юсупова Д.И. Маданиятлараро мулоқотда ўзбек ва олмон тилларида саломлашув концептининг ифодаланиши // <http://fikir.uz/posts/poems/9374.html>

III BOB. MADANIYATLARARO MULOQOT JARAYONLARI

8-MA'RUZA

SHAXS VA MADANIYATLARARO MULOQOT

Reja:

1. Shaxs va uni shakllantiruvchi omillar
2. Milliy xarakter
3. Hududiy xarakter

Tayanch soʻz va iboralar: shaxs, madaniyatlararo muloqot, konsept, individ, ijtimoiy fanlar nuqtayi nazar, talqiniy nuqtayi nazar, shaxsning dinamik tabiati, xabar almashish, tan olish, tasvirlash, tanqidiy nuqtayi nazar, shaxsning dinamik tabiati, shaxsning kontekstual shakllanishi, milliy xarakter, tabiiy-biologik omil, ijtimoiy-madaniy omil, hududiy xarakter.

8.1. Shaxs va uni shakllantiruvchi omillar

Shaxs aksariyat kishilar uchun munozarali masalalardan biridir. Shaxs bu bizning kimligimizni va biz haqqimizda boshqalarning nima deb oʻylashlarini anglatuvchi konsept. Biz oʻzimizning kimligimizni qanday anglaymiz? Bizning shaxsimiz boshqa shaxslar bilan qanday munosabatda boʻladi? Kishilar oʻzlarini qanday koʻrsatishadi va ular boshqalarning oʻzlari haqidagi taassurotlarini qaysi shaklda boshqarishadi. Taassurotlarni boshqarish nazariyasi individlarning boshqalarning oʻzlari haqidagi taassurotlarini nazorat qilishda qaysi usullardan foydalanishga urinishlarini ifodalaydi. Ayrim tadqiqotchilar individlar doimiy ravishda oʻzlarining kuchli va yaxshi fazilatlarini boʻrttirish uchun “foйда nazorati”ni, nuqsonlarini kamaytirish uchun esa “zarar nazorati”ni olib borishlarini qayd etadilar (Tedeschi, Lindsold, & Rosenfeld, 1985; Rosenfeld and Giacalone, 1991). Shunday boʻlsa-da, individlar boshqalarning taassurotlarini toʻlaligicha nazorat qila olmaydilar, bu oʻrinda shaxsning rivojlanishi va shakllanishida oʻzaro taʼsir ham muhim rol oʻynaydi.

Madaniyatlararo muloqotni, xususan, shaxs va kommunikatsiyani oʻrganishda uchta: funksional, izohlovchi (interpretiv) va tanqidiy metodologik yondashuv shakllangan. Ushbu yondashuvlar insonning tabiati, uning feʼl-atvori va bilimlari haqidagi turli tasavvurlarga asoslanadi.

Shaxs va kommunikatsiyaga uch nuqtayi nazardan yondashuv		
Funksional	Izohlovchi	Tanqidiy
Shaxs kishinig oʻzi tomonidan (guruhlar bilan munosabatda) yaratiladi.	Shaxs boshqa kishilar bilan muloqot orqali shakllanadi.	Shaxs ijtimoiy, tarixiy kuchlar orqali shakllanadi.
Individual, yaqin va maʼnaviy oʻzlikka urgʻu beriladi.	Tan olish va tasvirlashga urgʻu beriladi.	Vaziyat va shaxsga nisbat berishga urgʻu beriladi.

Funksional yo‘ndashuv ko‘ra, shaxsni bir tomondan o‘zlik, ikkinchi tomondan jamoa a‘zoli yaratadi. Mazkur yo‘ndashuvga ko‘ra, o‘zlik bir qancha shaxslardan tarkib topadi va bu shaxslar tushunchasi madaniyat bilan bog‘liq bo‘ladi¹.

1980-yillarda yuzaga kelgan funksional yo‘ndashuv sotsiologiya va psixologiyani metodlariga asoslanadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, har qanday xalqning madaniyatini turli metodlar yordamida tasvirlash mumkin. Shuningdek, madaniyatdagi har qanday o‘zgarishni ham tasvirlash va o‘lchash mumkin. Madaniyat insonning fe‘l-atvori va muomalasini belgilaydi. Shuning uchun ularni ham tasvirlash va oldindan aytish mumkin bo‘ladi. O‘zaro aloqadagi tomonlarning madaniy farqlarini qiyoslash kommunikatsiyaning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini aytib berish imkonini beradi.

Madaniyatlararo muloqot vaziyatlarida kishilar ko‘pincha o‘zlarining kommunikativ fe‘l-atvor modellarini o‘zgartirib, suhbatdoshlarining muloqot modeliga moslashadilar. Bunda kommunikatsiya usulining o‘zgarishi bamaylixtir, erkin muloqot chog‘iga yoki suhbatdoshlar o‘rtasida katta farq kuzatilmagan holatlarga nisbatan tezroq yuz beradi².

Erik Erikson singari g‘arbiy psixologlarning fikricha, kishining shaxsi shaxslararo to‘qnashuvlar, buhronlar va fikrlashdagi chalkashliklardan shakllanadi (Erikson, 1950, 1968).

Ba‘zan bu jarayonda kishilar uchun tanaffus lozim bo‘ladi. Kishining shaxsi faqat silliq, tekis jarayonda emas, balki ayrim hodisalar tufayli muayyan vaqt uzilishida kishiga o‘zi yoki shaxsi haqida ko‘p o‘ylamaslik imkonini beradigan jarayonda shakllanadi.

AQSHdagi madaniyatlararo yo‘ndashuvlarda individualizmning madaniy qadriyatlariga urg‘u berilib, unda yoshlar shaxs haqidagi kuchli hissiyotni rivojlantirishga, “o‘zligini anglash”ga, mustaqil va erkin bo‘lishga ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Biroq har doim ham bunday bo‘lavermaydi, hatto bugungi kunda ham o‘zligini jamoaviy tushunish mavjud (Min-Sun Kim (2002).

Izohlovchi (yoki interpretiv) yondashuv shaxsning dinamik tabiati, uning boshqa kishilar bilan xabar almashishi, muhokama qilishi, muloqot qilishi orqali shakllanishiga asoslanadi (Hecht, Warren, Jung, & Krieger, 2005; Ting-Toomey, 2005). Bu kishining o‘z shaxsi haqidagi tasavvurlarining oddiy emasligini bildiradi.

Izohlovchi yondashuvning maqsadi inson fe‘l-atvorini oldindan aytib berish emas, balki uni tushunish va tasvirlashdan iborat. Har kim sizni siz o‘zingizni qanday ko‘rgandek ko‘radimi? Ehtimol shunday emas. Mazkur obrazlarning bir-biriga zidligi, nomuvofiqligini anglash tushunish va tasvirlash konseptlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. –5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 50; 163.

² Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 53-54.

Tushunish – individlarning o‘zlarini tavsiflash jarayoni bo‘lsa, **tasvirlash** – boshqalar tomonidan shaxsga beriladigan tavsif jarayonidir. Masalan, biz (Judith va Tom) o‘zimizni professorlar sifatida ko‘ramiz va talabalarning ham bizni professor sifatida ko‘rishlariga umid qilamiz. Shuningdek, biz o‘zimizni yosh deb bilamiz, biroq aksariyat talabalar bizni “keksa shaxslar” deb tavsiflashadi. Ushbu ziddiyatlar biz bilan talabalar o‘rtasidagi muloqotga ta’sir ko‘rsatadi.

Turli shaxslarning e’tirof etilishi individlarning boshqa kishilar bilan muloqotga kirishuvi va suhbat mavzusiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, kimdir bilan bo‘lgan ijtimoiy suhbatda biz uchun uning boshqa (etnik yoki milliy) jihatlariga nisbatan gender yoki jinsiy jihatlari muhim hisoblanishi mumkin. Ayni paytda suhbatdoshimiz shaxsi uchun biz muhim deb hisoblagan jihatlar muloqotimizning muvaffaqiyatini ta’minlashi mumkin. Shu ma’noda yuqori saviyadagi madaniyatlararo muloqot har qanday suhbatda shaxsning alohida o‘rnini tasdiqlaydi (Collier & Thomas, 1988). Misol uchun professor bilan ilmiy loyiha haqidagi muloqot chog‘ida boshqa shaxslar (gender, etnik va diniy jihatlariga asoslangan) emas, balki o‘zaro munosabat uchun xarakteri bo‘lgan shaxslar (professor va talaba) o‘z tasdig‘ini topganda, suhbat samarali bo‘ladi¹.

Umuman, izohlovchi yondashuv tarafdorlari madaniyatga muloqot vositasida shakllangan va o‘zgaradigan insonning yashash muhiti sifatida qarashadi. Mazkur yondashuvda antropologiya va tilshunoslikning rolli o‘yinlar, kuzatish va h.k. metodlaridan foydalaniladi. Odatda asosiy e’tibor alohida guruhlar ichidagi kommunikatsiya modellarini tushunishga qaratiladi².

Tanqidiy yondashuv tarafdorlari, avvalo, kommunikatsiyaning tarixiy vaziyati bilan qiziqishdi. Ularning tadqiqotlari muloqotda har doim kuchlar munosabati mavjudligiga asoslandi. Mazkur nuqtayi nazarga ko‘ra, madaniyat jang maydoni sifatida talqin etildi. Ya’ni, madaniy hodisalarning ko‘plab izoh va talqinlari bir joyga yig‘iladi, har doim madaniy farqlarni belgilovchi va uning karakterini tushuntiruvchi hukmron kuch mavjud bo‘ladi.

Madaniyatlararo muloqotni o‘rganishdan maqsad – inson fe’l-atvorini tushuntirishdir va bu orqali insonlar hayotini o‘zgartirishdir. Tanqidiy yondashuv tarafdorlarining fikricha, madaniy vaziyatlardagi hukmron kuchlarni tadqiq etish va tasvirlash kishilarni qarshi tura olishga va boshqa madaniyat vakillari bilan yanada samaraliroq muloqotni yo‘lga qo‘yishga o‘rgatadi³.

Tanqidiy yondashuv xuddi izohlovchi yondashuvdek shaxsning dinamik tabiatiga urg‘u beradi, biroq shu bilan birga, ko‘proq shaxs rivojlanishining kontekstual hamda ziddiyatli unsurlariga ahamiyat beradi. Mazkur qarashda shaxslarni cheklovchi, ko‘pincha adolatsizlik va kamsitishlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy strukturalar va institutlarga alohida e’tibor qaratiladi (Collier, 2005).

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. —New York: McGraw-Hill, 2010. —P. 166-167.

² Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. —С. 53-54.

³ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. —С. 54.

Shaxsning kontekstual shakllanishi shaxsning tarix, iqtisod, siyosat va diskurs kontekstlarida tushunishga harakat qiladi. Bu tushunchani anglash uchun o'zingizdan: Kishilar nima uchun boshqa kishilar bilan emas, ma'lum guruhlar bilan shaxslashadi? Ular uchun qaysi variantlar mavjud? deb so'rang.

Kishilarning barchasi hatto dunyoga kelmasidan oldin shaxs kategoriyasiga yoki va kontekstlarga taalluqli bo'ladi. Aksariyat ota-onalar hali tug'ilmagan bolalariga ismlar tanlashadi va ularga ota-onalari bilan munosabatlari orqali jamiyat a'zosi deb qaraladi. Ayrim bolalarning hayoti yaxshilik bilan boshlanadi, binobarin, ular tug'ilmasidan avval yahudiy yoki chikana bo'ladi. Ularning shaxsi boshlanayotgan etnik, ijtimoiy-iqtisodiy yoki irqiy yo'llaridan ko'z yumib bo'lmaydi.

Har bir inson shaxs sifatida shakllanar ekan, faqat o'zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida bo'lib qolmasdan, shuningdek, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan, to'plangan va avloddan avlodga o'tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta'siri ostida ham shakllanadi¹.

8. 2. Milliy xarakter

E.M. Vereshchagin² ta'kidlaganidek: "Odamzot rus yoki nemis yoxud yapon bo'lib tug'ilmaydi, balki unga mos ijtimoiy guruh doirasida o'sha millat kishisiga aylanadi". Demak, **milliy xarakter** – u yoki bu millat vakiliga oid bo'lgan o'ziga xos jismoniy va ma'naviy xususiyatlar majmuyi, xulq-atvor va faoliyat me'yorida.

"Milliy xarakter" tushunchasi o'rganish obyekti sifatida murakkab, chunki bu tushuncha ko'pincha irqiy va etnik xarakter bilan aralashtirib yuboriladi. Biroq milliy xarakterni shakllanishida irqiy va etnik omillarning o'ziga xos o'rni mavjud.

Milliy xarakterni aniqlovchi omillar majmuyi va vaziyatlarni ikki guruhga ajratish mumkin: tabiiy-biologik hamda ijtimoiy-madaniy. Omillarning birinchi guruhi turli irqiy guruhlariga oid kishilarning turfa reaksiya va temperament me'yorlarini namoyon qilishi bilan bog'langandir. U yoki bu xalqda shakllangan jamiyat turi esa uning xarakteriga yana-da ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun qaysidir xalqning xarakterini tushunish, faqat shu xalq yashaydigan va u tomonidan ma'lum geografik, tabiiy sharoitlarda yaratilgan jamiyat tushunilgandagina mumkin bo'ladi.

Milliy xarakter millat hayotidagi tarixiy kategoriya bo'lib, uni o'rganish, tushuntirib berish uchun bevosita o'sha millat tilini, tarixini, hayotini, madaniyatini ham yaxshi bilish zarur. Har bir xalq butun xususiyatlari bilan olingandagina va betakror bo'lib ko'rinishi mumkin, uning har bir etnik xususiyati alohida olib ko'rilsa, mutloq noyob xususiyat bo'la olmaydi.

Milliy xarakter xalqning dini, siyosati, urf-odatlar, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o'rni bilan ham chambarchas bog'liq.

Milliy xarakterni tadqiq etishga XIX asrda e'tibor kuchaydi. Bu borada qator izlanishlar olib borgan etnopsixolog olimlar o'z asarlarida milliy xarakterning real voqelik sifatida mavjudligini e'tirof etgan. Faylasuf E. Fridrix Angliya tarixini

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. — New York: McGraw-Hill, 2010. — P. 167-168.

² Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова. — М., 1980. — С.35.

o'rganar ekan, fransuz va nemislarda bo'lmagan o'ziga xos mustaqillik, o'ziga ishonch xususiyatlari rivojlanganini ko'rsatib beradi. Olim ingliz milliy xarakteri nemislarnikidan ham, shuningdek, fransuzlarnikidan ham keskin farqlanishini aytib o'tgan. Ammo buni inkor etuvchilar milliy xarakter mavjud emas, degan fikrni olg'a suradilar va bir biriga qardosh xalqlar orasida tafovut bo'lmaydi deyishadi. Diqqat qilib o'rganish va tekshirish jarayonida hamma xalqlarning milliy xarakterida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlar borligini payqab olish mumkin. Milliy xarakterdagi bu farqlarni hatto kundalik hayotimizda ham ko'p uchratamiz.

Xalqlarning turlicha xarakter hislatlariga ega bo'lishligi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi, tarixiy taraqqiyoti va tabiiy yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Bunda ijtimoiy munosabatlar milliy xarakter rivojlanishida yetakchi o'rinni egallaydi. Har bir tarixiy davr, shu davrdagi ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida milliy mafkura manfaatlariga mos bo'lib tushadigan o'z milliy xarakter idealini yaratadi. Shu davrdagi xarakter tipi kishilarning yashash tarzini aks ettiradi.

Xalqning butun tarixi davomida orttirgan har bir xarakter hislatlarining vujudga kelishi kishilar ruhiyatiga atrofdagi voqeliklarning uzoq vaqt davomida ta'sir etib turishi bilan bog'liqdir. Milliy xarakterga qanday ruhiy hislat va sifatlarni kiritish mumkin? Shuni ta'kidlash kerakki, "milliy xarakter" tushunchasi haqida hali ham umumiy bo'lgan bir xil qarash mavjud bo'lmasa-da, lekin unga kiruvchi hislatlar to'g'risida umumiy bo'lgan fikrlar mavjud. Ko'p tadqiqotchilar milliy xarakterga, mehnatga munosabat (mehnatsevarlik), vatanparvarlik, erksevarlik, jangovorlik, dovyuraklik kabi hislatlarni kiritishadi.

Milliy xarakterni tadqiq etishdagi asosiy qiyinchilik shundaki, bir xalqqa yoki millatga xos bo'lgan hislatlar boshqa millat vakillarida ham uchrashi mumkin. Darhaqiqat, xarakterning qaysi bir xususiyatini olib ko'rmaylik, albatta, u barcha xalqlar va millatlarda ham mavjud ekanligini ko'ramiz. Masalan, erksevarlik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi hislatlar hamma xalqlarga xos bo'lgan xususiyat bo'lgani holda, bu hislatlar o'zining namoyon bo'lishi, tuzilishi jihatdan barcha xalqlarda bir xil kechmaydi. Zero, xarakter hislatlarini keltirib chiqaruvchi yashash tarzi, tarixiy taraqqiyot va faoliyat sharoitlari aynan bir xil bo'lmaganligi sababli, yuqoridagi xarakter hislatlarining namoyon bo'lishi ham ularda aynan bir xil bo'lolmaydi.

Masalan, Kavkazdagi tog'li xalqlarni o'rgangan tadqiqotchilar ularda jangovorlik, mag'rurlik kabi xarakter hislatlari kuchli ekanini e'tirof etishadi. "Ulardagi bu xarakter, – deb yozadi T.Ch.Chomayev, – tog'li xalqlarning tashvishli va havf-xatarga to'la hayotning in'ikosi bo'lib, unga moslashish zaruriyati natijasidir. Demakki, miliy xarakterning shakllanishida, avvalo, yashash sharoiti, ya'ni relefning ta'siri kuchli ekan. Bunga yana misol sifatida Gollandiya xalqlarini olaylik. Ularning yashash sharoiti doimiy mehnatni va yerga ishlov berishni talab qiladi, shu sababli ularning milly xarakterida tirishqoqlik va sabot bilan mehnat qilish hislatlari birinchi o'rinda turadi. Gollandlar o'z farzandlarini ham shu ruhda tarbiyalashga alohida e'tibor qaratar ekanlar va bolalariga

kaftlaridagi egri -bugri chiziqlarni ko'rsatib, M - man – odam , W - work – mehnat, deb yoshligidanoq uqtirar ekanlar.

Yer yuzidagi har bir xalq o'ziga xos milliy xarakterni namoyon etadi. Ammo bu milliy xarakterni mutloqlashtirib yuborish kerak degani emas. Boshqa xalqlarda va millatlarda uchramaydigan, faqat bir xalqqagina xos bo'lgan sof milliy xarakter umuman tabiatda uchramaydi. Milliy xarakterga oddiy shaxslar xarakterining yig'indisi deb qarash ham noto'g'ri. U ommaviy fenomen sifatida, individual xarakterlarning umumiy bo'lgan hislatlari ijtimoiy jihatidan qayta ishlanib, yangi, maxsus sifatga aylangan vaqtda tarkib topib namoyon bo'ladi. Masalan, xor ovozi hech bir xor qatnashchisining ovoziga o'xshamagandek, milliy xarakter ham birorta millat vakilining xarakteriga o'xshamaydi yoki millat xakteri hech bir millat vakilida tugalgicha aks etmaydi. Milliy xarakter o'zgarmas, turg'un narsa ham emas. U tarix mahsuli. Shuning uchun ham uni vujudga keltirgan tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi bilan u ham malum darajada o'zgaradi, hatto bir ijtimoiy tizimning o'zida ham u ayrim hislatlarni yo'qotib, yangi hislatlarni paydo qilib turishi mumkin.

8. 3. Hududiy xarakter

Hududiy xarakter – shaxsning muayyan geografik hududga xos bo'lgan xususiyatlari. Dunyoning turli hududlarida alohida, o'ziga xos muhim madaniy xususiyatlar mavjud. Shimoliy Shotlandiyadagi tog'lik hududi Shotlandiyaning pasttekisliklaridan mutlaqo farq qiladi va tog'liklar juda kuchli hududiy harakteri bilan ajralib turadi.

Hududiy xarakter kundalik-madaniy turmushdagi bir-biridan farq qiladigan milliy taomlar, kiyim-kechaklar, xulq-atvor va tilning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Mazkur xususiyatlar madaniyatlararo muloqot vaziyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Aytaylik, siz bironta xitoylik bilan uchrashdingiz. Bu kishi Pekindan, Gonkongdan yoki Xitoyning boshqa joyidan bo'lishi va suhbatda dolzarb masalalar ko'tarilishi mumkin. Oxirida mandarin vakilining kanton so'zlashuvchisini tushunmaganligi ayon bo'ladi. Holbuki, mandarin ham kanton ham Xitoy tilining dialektlari hisoblanadi¹. Binobarin, XXRning hududida yettita yirik dialekt guruhi mavjud bo'lib bu dialektlarning sohiblari bir-birlarini tushuna olmaydilar.

Xitoy tilining birligi nazariyasi ko'pincha dialektlarning maxsus yozuvi yo'qligiga tayanadi. Odatda iyeroglif yozuvi hozirgi xitoy tili hududiy shakllarini birlashtiruvchi asosiy omil bo'lib, turli dialektlarning egalari undan foydalangan holda, bir-birlari bilan har doim erkin muloqotda bo'lishlari mumkin, deb hisoblanadi. Aslida bunday emas. Haqiqatda dialektlarning yozuv tizimida katta farqlar mavjud. Misol tariqasida kanton tilining Gonkong varianti (Yue guruhi)ni keltirish mumkin. Mandarin dialekti egalarining aksariyati uning yozuv variantini tushuna olmaydi. Vaziyat Gonkong kabi hududlarda yana ham chuqurlashadi. Gonkongda 60-yillarda Xitoy qit'asida iyerogliflarni soddalashtirish yuzasidan

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. —New York: McGraw-Hill, 2010. —P. 199.

o'tkazilgan islohotlar qabul qilinmadi va shimoliy viloyatlarda yashovchilarning ko'pchiligi tushunmaydigan iyerogliflarning klassik yozilishi hozir ham qo'llanishda davom etmoqda. Mandarin dialektida so'zlashuvchilar orasida mamlakatning boshqa hududlaridagi dialektlarni tushunuvchilar juda ozchilikni tashkil qiladi¹.

Hududiy xarakterning tildagi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etishini O'zbekiston misolida ham ko'rish mumkin. Jumladan, o'zbek tilining Xorazm shevasini boshqa viloyat vakillari tushunmaydilar. Yoxud Toshkentda yoki vodiya xayrlashuv chog'idagi "biznikiga boringlar" ifodasi shunchaki mulozamat tariqasida qabul qilinsa, Xorazmda "biznikiga boringlar" ifodasi to'g'ri qabul qilinadi va ertasiga shu xorazmlik uyingizga kelishi mumkin.

Hududiy xarakter qishloq va shahar muhitiga ko'ra ham farq qiladi:

"Ko'p yillik kuzatishlarda ham, badiiy adabiyot namunalaridan ham ma'lumki, qishloq odamlarining nutqi birmuncha sodda, zamonaviy nutq madaniyati talablariga hamma vaqt ham to'liq javob beravermaydigan, shevachilik qusurlaridan butunlay qutilib keta olmagan nutq sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda, ko'nglimizga qanchalik ma'qul bo'lgan-bo'lmaganligidan qat'iy nazar, uning to'g'ri, samimiy bo'lishini ham ta'kidlaymiz. Buning aksincha, necha ming yillar davomida madaniyat va ma'rifat markazi sanalib kelingan shahar muomala madaniyatida boshqacha manzarani kuzatamiz. Shaharning tub aholisi yoki unda uzoq yillar davomida yashayotgan kishilarning, ziyolilarning muomalasidagi xushmuomalalik, vaziyatga, jamoaga, suhbatdoshning kayfiyatiga qarab muomalada bo'lish singari tahsinga sazovor holatlarni alohida qayd etish mumkin. Ayni paytda, bu muloqotning samimiylig yoki aksincha, sun'iylik, soxtalik darajasini baholash tinglovchi – suhbatdoshlarning aqlu zakovatiga havola etiladi".

Xullas, hududiy xarakter shaxsning ma'lum geografik hududga xos bo'lgan xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi va shu hududning farqli madaniy jihatlarini aks ettiradi.

Nazorat uchun savollar

1. Shaxs qanday konsept?
2. "Foyda nazorati" tushunchasini izohlang.
3. "Zarar nazorati" tushunchasini izohlang.
4. Funksional yo'ndashuvda shaxs qanday tavsiflanadi?
5. Izohlovchi yondashuvning maqsadi nimadan iborat?
6. Shaxs tanqidiy nuqtayi nazardan qanday tavsiflanadi?
7. Tushunish va tasvirlash qanday jarayonlar sanaladi?
8. Shaxsning kontekstual shakllanishida shaxs qanday tushuniladi?
9. Milliy xarakter nima?
10. Hududiy xarakter nima?

¹ Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Universitet, 2014. –B. 122-123; Usmanova Sh. Xitoydagi til siyosati // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. –Toshkent: TDSHI, 2013. –B. 165- 167.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. “O‘zbekistonda hududiy xarakter” mavzusida taqdimot tayyorlash.
2. O‘zingiz o‘rganayotgan madaniyat vakillarining milliy xarakteri izohlang.

Adabiyotlar

1. Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Universitet, 2014. -136 b.
2. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
3. Usmanova Sh. Xitoydagi til siyosati // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. –Toshkent: TDSHI, 2013. –B. 165-167.
4. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова. – М., 1980.

9-MA'RUZA

MADANIYATLARARO MULOQOTDA STEREOTIPLARNING AHAMIYATI

Reja:

1. "Stereotip" tushunchasi
2. Stereotip turlari
3. Stereotip yuzaga kelishining sabablari

Tayanch soʻz va iboralar: stereotip, tasavvur, milliy stereotip, etnik stereotip, ijtimoiy stereotip, muloqot stereotiplari, mental stereotiplar, madaniy stereotiplar, etnomadaniy stereotiplar.

9. 1. "Stereotip" tushunchasi

Har qanday madaniyat oʻzining dunyoni idrok qilishiga asoslangan, oʻz tafakkuri va xulq-atvorining stereotipini shakllantiradi.

Stereotip – muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional boʻyoqdor va favqulodda barqaror boʻlgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining oʻziga xosligidir.

Stereotip u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv maʼlumot beradi. V.A. Maslovaning taʼbiricha, "stereotip dunyoda mavjud tip boʻlib, u faoliyat, xatti-harakat va h.k.ni oʻlchaydi"¹. Stereotiplar hech qachon alohida kishilarda paydo boʻlmaydi, ular har doim guruhlarda yuzaga keladi.

"Stereotip" termini (yunon. stereos – qattiq, typos – iz, tamgʻa) amerikalik sotsiolog Uolter Lippman tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U 1922-yilda nashr etilgan "Jamoat fikri" nomli kitobida stereotiplarning jamoat fikri tizimidagi oʻrni va rolini aniqlashga harakat qilgan. U. Lippman stereotipni bizning ongimizga yetib bormasidan oldin his-tuygʻularimizdagi maʼlumotlarga muayyan taʼsir koʻrsatadigan atrof-muhitni alohida idrok qilish shakli sifatida tushuntirgan².

U. Lippmanga koʻra, inson uni oʻrab olgan atrof-muhitni uning butun qarama-qarshiliklari bilan anglashga harakat qilib, oʻzi bevosita kuzatmagan hodisalar haqida "oʻzining miyasida manzara" hosil qiladi. Inson oʻz hayotida bevosita qarshilashmagan juda koʻp narsalar haqida oldindan aniq tasavvurga ega boʻladi. Shunga oʻxshash stereotiplar tasavvuri mazkur individumning madaniy muhiti taʼsirida shakllanadi: "Aksariyat hollarda biz u yoki bu hodisani oldin koʻrib, keyin unga aniqlik kiritmaymiz, aksincha, oldin u yoki bu hodisani oʻzimiz uchun aniqlab, soʻngra uni kuzatamiz. Tashqi dunyoning butun chalkashliklaridan bizning madaniyatimizga aloqadorinigina yulib olamiz va biz mazkur maʼlumotni

¹ Маслова В.А. Связь мифа и языка // Фразеология в контексте культуры. –М., 1999. –С. 123-134.

² Lippman Walter. Public Opinion. –New York: Greenbook, 2010. –P . 23, 95.

stereotip shaklida qabul qilishga moyil bo‘lamiz”¹. Stereotiplar insonga olam haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish, o‘zining tor ijtimoiy, geografik va siyosiy muhitidan chiqishga imkon beradi.

Stereotiplarni o‘rganishga qiziqish 1930-yillardan 1950-yillargacha bo‘lgan davrda keng quloch yoydi. Xususan, etnik stereotiplarning barqarorligi va beqarorligi masalalari R. Clarke va D. Campbell; D. Katz va K. Braly; R. La Pierre kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganildi².

Keyingi yillardagi etnik stereotiplarni o‘rganishga bag‘ishlangan qator tadqiqotlarni tahlil qilgan psixolog O. Klenberg “etnik stereotip” tushunchasini quyidagicha belgilagan: “Etnik stereotip – insonlar ongidagi o‘zlari yoki boshqa milliy guruhlar haqidagi manzara. Bunday obrazlar yoki tasavvurlar jamiyatda keng tarqalgan bo‘ladi; odatda ular obyektiv borliqqa nisbatan o‘ta jo‘n va qabul qilinmaydigandir”³.

Aksariyat tadqiqotchilar etnik stereotiplarni muqarrar, lekin xavfli hodisa hisoblashadi. Binobarin, qatoq lug‘atlarda “stereotip” so‘zi salbiy ma’noda qayd qilingan. Masalan, M. Korduellning psixologiyadan tuzgan lug‘atida stereotipga shunday ta’rif berilgan: “Stereotip – ma’lum guruh yoki kategoriyadagi kishilar haqidagi keskin, ko‘pincha yuzaki tasavvur. Biz umumiyatda yuzakilikka moyil bo‘lganimiz uchun ham boshqa insonlarning xulq-atvorini oldindan ko‘rish uchun stereotiplarni shakllantiramiz. Mazkur stereotiplar ko‘pincha salbiy mohiyat, soxta tasavvur va tahqirlash asosiga ega bo‘ladi. Stereotiplar har doim ham yolg‘on bo‘lmaydi; odatda ularda ma’lum ma’noda haqiqat bo‘ladi. Stereotiplarni ko‘pchilik tomonidan bo‘lishilishi ularning singib ketishiga yordam beradi. Stereotiplar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin, lekin stereotip sohiblarining o‘zlashtirilgan tasavvurlardan qutulishi qiyin bo‘ladi”⁴.

9. 2. Stereotip turlari

Stereotip hodisasi nafaqat tilshunoslarning ishlarida, balki sotsiologlar, etnograflar, kognitologlar, psixologlar va etnopsixologvistlarning ham tadqiqotlarida o‘rganiladi. Ushbu fanlarning har qaysi vakili stereotiplarning xususiyatini o‘z sohasining tadqiqoti nuqtayi nazaridan belgilaydi. Shunga ko‘ra, ijtimoiy stereotiplar (kasbiga, yoshiga ko‘ra), muloqot stereotiplari, mental stereotiplar, madaniy stereotiplar, etnomadaniy stereotiplar va h.k. farqlanadi. Masalan, ijtimoiy stereotiplar shaxsning tafakkuri va muomalasini ko‘rsatadi. Etnomadaniy yoki milliy stereotiplar eng ko‘p o‘rganilgan bo‘lib, ular biron bir xalqqa xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni ifodalaydi. Etnomadaniy stereotiplar milliy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rsatadi, muayyan millatning o‘zini

¹ Lippman Walter. Public Opinion. –New York: Greenbook, 2010. –P. 81.

² Clarke R. B. & Campbell D. T. A demonstration of bias in estimates of Negro ability // Journal of Abnormal and Social Psychology. Vol 51. 1955. –P. 585-588; Katz D. & Braly K. W. Racial stereotypes of one-hundred college students // Journal of Abnormal and Social Psychology. Vol. 28. 1933. –P. 280-290; La Pierre R. T. Social forces type-rationalizations of group antipathy // Social Forces. Vol. 15. 1936. –P. 232-237.

³ Klenberg O. Tensions Affecting International Understanding. –New York, 1950. –P. 93.

⁴ Кордуэлл М. Психология А-Я. Словарь-справочник. –М.: Фаир-пресс, 2000. -448 с.

o‘zi anglashi va mentalitetining tarkibiy qismi hisoblanadi, shuningdek, milliy karakter bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi¹.

Lingvokulturologiyani ko‘proq etnomadaniy, ya’ni milliy stereotiplar qiziqtiradi. Masalan, yaponlar bilan dastlab muloqotga kirishgan yevropaliklar yaponlarning qayg‘uli hodisalar, jumladan, yaqin qarindoshlarining kasalligi yoki o‘limi haqida yuzlarida tabassum bilan gapirishlaridan hayratga tushishgan va hozirgacha hayratlanishadi. Bu kabi hodisalar berahm, shavqatsiz yapon stereotipining shakllanishiga asos bo‘lgan. Biroq mazkur holatda tabassumni Yevropa madaniyatining o‘lchovlaridan emas, balki yapon madaniyatining o‘lchovlaridan kelib chiqqan holda tushunish maqsadga muvofiqdir. Chunki qayd qilingan holat yaponlarning atrofdagilarni o‘zining qayg‘usi bilan bezovta qilmasligini namoyon qiladi.

Yuqorida qayd etilganlar bilan birga, stereotip tafovutlar tadqiqida kuzatilgan ayrim istisno holatlarni ham ta’kidlash joiz bo‘ladi. Yaponlar va g‘arbliklarning sukut saqlashga bo‘lgan yo‘ndashuvlarini qiyosiy o‘rgangan psixolog Helmut Morsbach o‘zining Yaponiyadagi katta tajribasi asosida sukut saqlashning ayrim madaniy nozikliklaridan namunalar keltiradi². Masalan, yapon uylarining ko‘pchiligida televizor doim yoqilgan hamda magnit lentasiga yozigan Zen bog‘ining g‘o‘zalligi haqida sharhlar yangrab turadi. Demak, tadqiqotchilarning aksariyati sukut saqlashning madaniyat namunasi bo‘la olishini qayd etsalar-da, amaliyotda narsalar farq qilishi mumkin. O‘ta maxsus vaziyatlarda (ona va qizining munosabatlari yoki haqiqiy hissiyotni yashirish singari holatlarda) Yaponiyadagi sukut saqlash holati AQSHga qiyosan yaqqolroq namoyon bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, Yaponiyada begonalar bilan muloqot chog‘ida sukut saqlash AQSHdagiga nisbatan salbiy ma’no kasb etadi³.

Umuman, madaniyatlararo muloqotda o‘zbeklar mehmondo‘stligi, ruslar tavakkalchiligi, qozoqlar qaysarligi, turklar hissiyotlilik, xitoyliklar sertakallufliigi, yaponlar xushmuomalaligi, estonlar sustkashligi, italyanlar qiziqqonligi, inglizlar sovuqqonligi, nemislar tartibga aniq rioya qilishi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqargan⁴.

Qayd qilingan etnomadaniy stereotiplar orasida, ayniqsa, nemis stereotipi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Nemis madaniyatida tartib, aniqlik, puxtalik, o‘z vaqtida bo‘lishlik, buyruqqa, qonunlarga hurmat, pog‘onalilik, maqsadga intilish, ratsionalizm sifatida tushuniladi. Nemis mentalitetining stereotiplari asosida protestantlik etikasining xususiyatlari yotadi. Unda har bir kishi o‘zining xatti-harakatlari uchun Xudo oldida javob beradi. Shuning uchun ham nemislar uchun

¹ Madon S., Guyll M. Ethnic and National Stereotypes: The Princeton Trilogy Revisited and Revised. Iowa State University // <http://public.psych.iastate.edu/madon/katz.braly.replication.pdf>

² Morsbach H. The importance of silence and stillness in Japanese nonverbal communication // A cross cultural approach. In F. Poyatos (Ed.). Cross cultural perspectives in nonverbal communication –Lewiston, NY: Hogrefe, 1988. –P. 201–215.

³ Hasegawa T., & Gudykunst W. B. Silence in Japan and the United States // Journal of Cross-Cultural Psychology. Vol. 29, 1998. –P. 668–684.

⁴ Усманова Ш. Этномаданий стереотипларнинг лингвомаданий тахлили // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. VI. –Тошкент: “Akademnashr”, 2015. –Б. 120-121.

qonun muqaddas, barcha narsadan ustun hisoblanadi: “Die Gesetze ohne Ansehen der Person handhaben” (Mansabdan qat’iy nazar, qonun barcha uchun bir).

Nemis stereotipidagi tartib, qonunlarga hurmat xususiyatini quyidagi misolda ham yaqqol ko‘rish mumkin:

“Germaniyada faoliyat olib borayotgan bir ingliz jurnalisti tungi soat 2da baxtsiz hodisaning guvohi bo‘lgan: bo‘sh yo‘lni kesib o‘tayotgan piyodani birdaniga paydo bo‘lgan mashina urib yuborgan. Jabrlangan piyodani kasalxonaga olib ketishgan. Jurnalist nemis politsiyachisidan endi nima bo‘lishini so‘raganda, politsiyachi: “Hech narsa bo‘lmaydi, agarda yashab ketsa, 50 marka jarima to‘laydi, chunki u yo‘lni o‘tish mumkin bo‘lmagan joyda kesib o‘tdi”, - deb javob qaytargan”.

Xalqaro latifalar, turli ko‘rinishdagi hazillar, milliy badiiy adabiyot, folklor, xalq og‘zaki ijodi va milliy til stereotip tasavvurlarning keng tarqalgan manbalari hisoblanadi. Stereotip tasavvurlar asosida milliy xarakterlarni ochib berishga qaratilgan quyidagi latifani ko‘rib chiqamiz:

“Bir kuni turli millat vakillarini kino ko‘rishga yuborishibdi. Filmning mazmuni quyidagicha ekan: cho‘g‘dek yonayotgan cho‘l va qizdirayotgan quyosh. Erkak va ayol zo‘rg‘a sudralib ketishmoqda. Birdan erkak qayerdandir sersuv apelsin topadi va uni ayolga beradi. Tomoshabinlarga shunday savol berilibdi: U qaysi millat vakili?”. Fransuz-tomoshabin shunday javob beribdi: “Faqat fransuzgina ayolga shunday sermulozamat bo‘lishi mumkin!” Rus: “Yo‘q. Bu rus! Buni qarang, ahmoq. O‘zi yeyishi mumkin edi”. Yahudiy: Yo‘q, bu yahudiy. Kim ham cho‘ldan apelsin topa olardi?” Mazkur stereotiplar vositasida fransuzlarning sermulozamatligi, ruslarning beparvoligi va yahudiylarning uddaburonligi ko‘rsatilgan.

Stereotiplarning avtostereotip va geterostereotip turlari ham mavjud. Avtostereotiplar kishilarning o‘zlari haqida nima o‘ylashlarini, geterostereotiplar boshqa xalqlar haqidagi o‘y-fikrlar, munosabatlarni (ko‘proq tanqidiy munosabatlarni) aks ettiradi. Masalan, o‘z xalqida tejamkorlik hisoblangan odat, boshqa xalqda kuzatilganda xasislik sifatida baholanadi¹.

Kishilar etnomadaniy stereotiplarni namuna sifatida qabul qilishadi va “boshqalarga kulgi bo‘lmaslik” uchun ularga moslashishga harakat qilishadi. Shuning uchun ham stereotiplar kishilarga katta ta’sir ko‘rsatadi. Stereotiplarda aks etgan xususiyatlar kishilarda ham shakllana boshlaydi. Etnomadaniy stereotiplarni o‘rgangan etnopsixologiya mutaxassislarining qayd qilishlaricha, iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlangan millatlarda aqllilik, ishbilarmonlik, uddaburonlik, iqtisodiy jihatdan qoloq bo‘lgan millatlarda esa mehr-muruvvat, samimiylik, mehmondo‘stlik kabi fazilatlar mujassamlashgan bo‘ladi².

¹ Акиншина А. А. Стереотипы национальной культуры в межкультурном общении. –Н.Новгород: НГТУ, 2009.

² Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 108.

S.G.Ter-Minasovaga ko'ra, ingliz jamiyatida kasbiy mahorat, mehnatsevarlik, mas'uliyat va h.k., rus jamiyatida esa mehmondo'stlik, kirishimlilik, haqqoniylik singari hislatlar qadrlanadi¹.

V.A.Maslovaning fikricha, "stereotiplar har doim milliy bo'ladi, agar boshqa madaniyatlarda ayni stereotiplar uchrab qolsa, unda ular haqiqiy emas. Yoki ular bir-biriga to'la mos kelsa ham baribir qaysidir jihatlari bilan farq qiladi. Masalan, turli madaniyatlarda navbatga turish holatlari har xil bo'ladi, shunga ko'ra stereotip muomalasi ham farq qiladi. Rossiyada "Kim oxiri?" deb so'raladi yoki shunchaki navbatga turiladi. Yevropa mamlakatlarining aksariyatida navbatga turish uchun maxsus apparatdan chipta (raqam yozilgan kichik kvitansiya) yirtib olinadi va shundan keyin darcha tepasidagi elektron raqamlar ta'qib qilinadi"².

Amerika va Janubiy Koreyada ham bank, pochtaxona, kasalxona va h.k.dagi navbat maxsus apparatdan yirtib olingan chiptaga muvofiq ta'qib etiladi. O'zbek madaniyatida ham navbatga turish uchun "Kim oxiri?" deb so'raladi. Ba'zan juda katta navbat bo'lgan holatlarda ro'yxat qilinadi.

9. 3. Stereotip yuzaga kelishining sabablari

Stereotip yuzaga kelishining sabablari turlichadir. Ulardan asosiylari quyidagicha:

1. *O'ngning himoyali reaksiyasi.* Informatsiyalar hajminig doimiy ravishda o'sib borishidan miyani haddan ziyod zo'riqishi himoyalash. Axborotlarni stereotiplashtirish miya zo'riqishini tabiiy shaklda himoyalashni yuzaga chiqaradi. Mazkur himoyasiz inson ongi doimiy mulohazalardan boshi berk ko'chaga kirib qolishi mumkin. Stereotiplarning mavjudligi bu jarayonni yengillashtiradi. Kishilar sodir bo'layotgan hodisalarga har doim ham e'tibor bermasdan, ya'ni har safar hissiyot, iztipoblarga berilmasdan ularni o'zlarining tajribasidan ma'lum bo'lgan mavzuiy guruhlariga kiritishadi. Doimo o'zgarishda bo'lgan dunyo insonni kelib tushayotgan axborotlarni qulayroq va ixchamroq modellarga tasniflashga majbur qiladi. Bunday modellar stereotiplar, deb nomlanadi. Stereotiplarni rad etish insondan butun diqqat-e'tiborini jalb etishni talab qilib, uning hayotini bitmas-tuganmas sinovlar va xatolarga to'ldirgan bo'lardi. Stereotiplar insonga o'rab olgan dunyoni farqlay olishi, uni soddalashtirishi, tartibga solishida yordam beradi. Insonni har safar "Amerika ochish" yoki "radio ixtiro qilish"dan xalos qiladi. Demak, insonning o'z hayotida stereotiplardan foydalanishi tabiiy hol sanaladi.

2. *O'z guruhining qadriyatlarini, qiziqishlari, o'bro'yi va h.k.ni himoyalash.* O'zini muayyan madaniyatga aloqador qilish va boshqa xalqlar bilan qiyoslash har bir insonga uning o'ziga xosligini, individualligini his qilishiga yordam beradi. Masalan, fransuzlar nazdida belgiyaliklar hazil-mutoyibadan yiroq, kaltafahm, shetsariyaliklar – xasis, ziqna, maydakash, italyanlar – yolg'on-yashiqlarni qo'shib gapiradigan, turklar – jismonan baquvvat, inglizlar – xudbin xalqdir.

Inson stereotiplarni turli yo'llar vositasida o'zlashtiradi. Birinchidan, boshqa guruhlar haqida o'ylash "odati" ma'lum ma'noda "ona suti orqali" o'zlashtiriladi.

¹ Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. –М.: Слово, 2000. –С. 255.

² Маслова В. А. Ko'rsatilgan asar, 110-bet.

Stereotiplarning aksariyati ota-onalar tomonidan farzandlarning ongiga singdirilgan obrazlar orqali o'tadi va rivojlanadi. Stereotiplar 12 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan davrda batamom shakllanib mustahkamlanadi va ularni bu yoshdan kayin o'zgartish juda qiyin kechadi. Binobarin, bu nafaqat begona guruhlariga aloqador, balki boshqa guruhlar nazdidagi o'z millatiga ham tegishli bo'ladi. Masalan, o'zbek xonadonida bolaga "o'zbeklar mehmodo'st, bag'rikeng" yoki "lo'lilar firibgar, tovlamachi" deyilsa, bola so'zsiz mazkur stereotiplarni qabul qiladi.

Ikkinchidan, stereotiplar cheklangan shaxsiy aloqalar vositasida ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, sizni bozorda Tojikistondan kelgan savdogar aldasa, siz butun tojik xalqi haqida tovlamachi degan noto'g'ri xulosaga kelishingiz mumkin. Bunday holatda stereotip insonning cheklangan informatsiyasi natijasida paydo bo'ladi.

Uchinchidan, stereotiplarning vujudga kelishida ommaviy-axborot vositalarining alohida o'rni bo'ladi. Ommaviy-axborot vositalarining stereotiplarni shakllantirish imkoniyati cheklanmagan. Ko'pchilik uchun matbuot, radio va televideniya ishonchli manba sanaladi. Ommaviy-axborot vositalarining fikri ommaning fikriga aylanadi.

Umuman, har qanday shaxs muayyan madaniyatlar bilan bog'langan stereotiplar olamida yashaydi. Stereotip turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir. Stereotiplarni o'rganish, madaniyatlararo muloqotlarda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarni, to'qnashuvlarni oldini oladi.

S.G.Terminasova M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (MGU) talabalari bilan 10 yil davomida AQSH va Rossiyadagi lisoniy hamda madaniy manzarani aniqlash uchun assotsiativ eksperiment o'tkazadi¹. Quyida ana shu tajriba natijalarini keltirish ingliz va rus stereotiplari haqida muayyan tasavvur hosil qilishga ko'mak beradi:

Данные опроса 2002 г. по тематическим группам:			
Черты характера американцев		Черты характера русских	
1	патриотизм	1	гостеприимство
2	индивидуализм	2	доброта
3	невоспитанность, независимость, неискренность	3	патриотизм
4	глупость, необразованность, раскованность, самомнение, самоуверенность	4	открытость
5	доброжелательность, напористость	5	веселье, духовность, искренность, простота
6	отсутствие чувства юмора, ограниченность	6	грубость, алкоголизм, наивность, радушие, щедрость
7	прагматизм, стремление к лидерству	7	глупость, дураки, лень, радость,

¹ Тер-Минасова С. Г. Языки межкультурная коммуникация. –Москва: Слово, 2000. –С.141-144.

			серьезность, добродушие, общительность, отзывчивость, скромность
8	хвастовство	8	сочувствие другим людям, трудолюбие
9	бездуховность, благополучие	9	эмоциональность, антипрагматизм
10	жестокость, гордость	10	безалаберность, зависть

Данные опроса 2002 г. по тематическим группам:			
Современная жизнь в США		Современная жизнь России	
1	фаст-фуд	1	водка
2	Американский флаг	2	культура
3	кино (боевики)	3	икра, балалайка, блины
4	бизнес, доллар	4	коррупция
5	свобода, демократия	5	коммунизм
6	война, наркотики, агрессия, Пентагон, армия, борьба с терроризмом	6	церковь
7	джинсы, ковбои, индейцы	7	толкучка в общественном транспорте, валенки
8	грин карта	8	театр, царь, красивые девушки
9	реклама, Рождество	9	бедность, беспорядок, нищета, община, президент, разруха, перестройка, юмор
10	казино, Американский футбол, баскетбол	10	перспектива, надежда, любовь, экономика, хлеб, пельмени, хоккей

Nazorat uchun savollar

1. “Stereotip” tushunchasiga ta’rif bering.
2. “Stereotip” termini qachon va kim tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan?
3. U. Lippman stereotipni qanday tushuntirgan?
4. D. Kas va K. Breyllarning tadqiqotida qanday stereotiplar o‘rganildi?
5. O. Klenberg “etnik stereotip” tushunchasini qanday belgilagan?
6. M. Korduellning lug‘atida stereotipga qanday ta’rif berilgan?
7. Stereotipning qanday turlari bor?
8. Nemis stereotipini tavsiflang.
9. V.A.Maslovaning fikricha, stereotiplar qanday bo‘ladi?
10. Stereotiplar yuzaga kelishining sabablarini ko‘rsating.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Etnomadaniy stereotipining o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish.
2. “Stereotip va madaniyatlararo muloqot” mavzusida taqdimot tayyorlash.
3. Stereotiplarni tasniflash.

Adabiyotlar

1. Clarke R. B. & Campbell D. T. A demonstration of bias in estimates of Negro ability // Journal of Abnormal and Social Psychology. Vol 51. 1955. –P. 585-588.

2. Hasegawa T., & Gudykunst W. B. Silence in Japan and the United States // *Journal of Cross-Cultural Psychology*. Vol. 29, 1998. –P. 668–684.
3. Judith Martin, Thomas Nakayama. *Intercultural communication in contexts*. 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
4. Klenberg O. *Tensions Affecting International Understanding*. –New York, 1950. Lippman Walter. *Public Opinion*. –New York: Greenbook, 2010. -218 p.
5. Madon S., Guyll M. *Ethnic and National Stereotypes: The Princeton Trilogy Revisited and Revised*. Iowa State University
<http://public.psych.iastate.edu/madon/katz.braly.replication.pdf>
6. Morsbach H. The importance of silence and stillness in Japanese nonverbal communication // *A cross cultural approach*. In F. Poyatos (Ed.). *Cross cultural perspectives in nonverbal communication* –Lewiston, NY: Hogrefe, 1988. –P. 201–215.
7. Акиншина А. А. *Стереотипы национальной культуры в межкультурном общении*. –Н.Новгород: НГГУ, 2009.
8. Кордуэлл М. *Психология А-Я. Словарь-справочник*. –М.: Фаир-пресс, 2000. -448 с.
9. Маслова В. А. *Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений*. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. -208 с.
10. Сорокин Ю.А. *Стереотип, штамп, клише: К проблеме определения понятий // Общение: Теоретические и прагматические проблемы*. –М., 1978. –С. 133-138.
11. Тер-Минасова С. Г. *Язык и межкультурная коммуникация*. –М.: Slovo, 2000. -624 с.
12. Усманова Ш. *Этномаданий стереотипларнинг лингвомаданий таҳлили // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. VI*. –Тошкент: “Akademnashr”, 2015. –Б. 120-122.

10-MA'RUZA

MADANIYATLARARO MULOQOTDA GENDER VA YOSH XUSUSIYATLARI

Reja:

1. "Gender" tushunchasi
2. Genderga oid xususiyatlar
3. Yoshga oid xususiyatlar

Tayanch soʻz va iboralar: gender, gender xususiyatlar, gender qarama-qarshiligi, gender tafovuti, jins, erkak, ayol, ziddiyat, maskulinizm, feminizm, genderolingvistika, erkaklar nutqi, ayollar nutqi, submadaniyat, sotsio-madaniy kategoriya, madaniy tushuncha, nutqiy muloqot, nutqiy xulq-atvor, nutqiy odat, til variantlari, nutq uslublari, suhbatdagi rollar, nutqiy muomala modellari, yosh xususiyatlari, yoshning nisbiy tabiati.

10. 1. "Gender" tushunchasi

Inson oʻz hayotini gender xususiyat bilan boshlaydi. Binobarin, chaqaloq dunyoga kelganda, u qiz boʻlsa pushti rangli, oʻgʻil boʻlsa koʻk rangli kiyimlar va yoʻrgaklar bilan qarshi olinadi. Tugʻruqxonaga chaqaloqni koʻrgani kelganlar gender xususiyatni aniqlash uchun uning oʻgʻil yoki qiz ekanligini soʻrashadi. Biroq gender biologik jins yoki jinsiy xususiyat emas. Mazkur farq bizning biologik jins haqidagi qarashlarimizning gender xususiyatga qay darajada taʼsir koʻrsatishini tushunishda juda muhim sanaladi¹.

Gender – sotsio-madaniy kategoriya boʻlib, jinslar rolini anʼanaviy oʻrganishni nazarda tutmaydi. Gender – ijtimoiy va psixologik jarayonlarning yirik majmuyi, shuningdek, jamiyatda vujudga keladigan va milliy lisoniy shaxsning axloqiga taʼsir koʻrsatadigan madaniy koʻrsatmalar, qoidalaridir.

Gender xususiyat deganda, maskulinizm va feminizm madaniy tushunchalari hamda ayollik yoki erkaklikning oʻziga xos xususiyatlari tushuniladi.

Sharqiy slavyan tillarida, xususan, nemis, fransuz va boshqa tillarda ingliz tilidan farqli oʻlaroq, "sex" (biologik jins) va "gender" (jinsning sotsio-madaniy kategoriya sifatida tushunilishi) tushunchalari farqlanilmaydi. Biroq jinsga faqat biologik hodisa sifatida yondashish mazkur kategorial tushunchani toraytirib, yuzakilashtirib qoʻyadi, chunki maskulinizm (jasorat) va feminizm (nazokat) bir tomondan psixikaning filogenetik bogʻlangan xususiyati boʻlsa, ikkinchi tomondan ontogenezda toʻplanadigan sotsio-madaniy hosiladir. Zamonaviy sotsiologlar va faylasuflar "jins" va "gender" tushunchalarini qarama-qarshi qoʻyishadi.

Jamiyatda ayol yoki erkaklik oʻrniga ega boʻlish sezilarli darajada madaniy tushunchalarga bogʻliq boʻladi. Masalan, ayrim faoliyatlar koʻproq erkaklarga yoki koʻproq ayollarga xosligi bilan xarakterlanadi. Shunday qilib, insonlarning ov qilishi yoki bichish-tikish bilan shugʻullanishi, jang qilishi yoki sheʼr oʻqishi

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. —New York: McGraw-Hill, 2010. —P. 180-181.

boshqalarning ular haqida bildirgan fikrlaridan o'zgarishi mumkin. Kishilarning teleko'rsatuvlar, teleseriallar, futbol o'yinlari va h.k. tomosha qilishi ularning boshqalar bilan genderlashgan kontekstlarda muloqotga kirishuviga ta'sir ko'rsatadi¹.

10. 2. Genderga oid xususiyatlar

Gender ko'p qirrali tarmoq bo'lgani uchun u nafaqat faylasuf va sotsiologlarning, balki tilshunoslarning ham e'tiborini tortgan. Tilshunoslikda gender elementlariga e'tibor doim ham mavjud bo'lgan. Erkak va ayol nutqining muayyan farqlarga ega ekanligi yaqqol ko'rinib turishi dunyoning barcha tillari uchun xosdir. Ayrim tillarda bu omil ochiq namoyon bo'lsa, boshqa tillarda uning lingvistik asoslarini ko'rsatib berish oson emas².

1960-yillarning o'rtalariga kelib tilshunoslikda gender masalasiga bo'lgan qiziqish uch yo'nalishdagi tadqiqotlarda o'z aksini topdi:

- 1) erkak va ayol nutqining ijtimoiy tabiati;
- 2) nutqiy muloqotning o'ziga xos xususiyatlari;
- 3) tafovutlarning kognitiv aspekti³.

Genderolingvistika o'z tadqiq yo'nalishida ikki jihatga: muayyan tilda erkaklar va ayollar nutqining tafovutlari hamda muayyan til tizimida erkaklik va ayollik belgilari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi til birliklari tadqiqiga e'tibor qaratadi.

Gender masalasi tilshunoslikning sotsiolingvistika yo'nalishida keng miqyosda o'rganila boshlandi. Sotsiolingvistika doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda erkak va ayollarning nutqidagi aksent, urg'u, ohang, xos so'zlar va so'zlashuv shakllari o'rganildi. Jumladan, U. Labov, o'zining "Nyu-Yorkda ingliz tilining ijtimoiy stratifikatsiyasi" (1966) nomli asarida erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlarni ko'rsatib berishga urindi. L. Milroy Belfastda amalga oshirgan tadqiqotida (1980) ishchilar sinfini uch guruhga ajratadi. L. Milroy mazkur guruhlardagi ayollar nutqining erkaklarnikidan qaysi jihatlari bilan farq qilishiga e'tibor qaratadi va ayollar nutqida erkaklarnikiga qaraganda mahalliy shevalarning kam qo'llanilganini ta'kidlaydi.

Feminizm bilan bir paytda vujudga kelgan "zo'ravonlik" nazariyasida asosiy e'tibor tildan foydalanishda erkak va ayollar o'rtasidagi tafovutlarga qaratildi va mazkur tafovutlar jamiyatdagi hukmronlik munosabatlari bilan bog'landi. Jamiyatdagi hukmronlik munosabatlariga ko'ra, erkaklarning tili me'yor sifatida qabul qilinishi, ayollarning esa bu tilda gapirishga majburlanishi turli bahslarni keltirib chiqardi.

Amerikalik tadqiqotchi R.Lakoffning 1972-yilda chop etgan "Language and the Women's Place" ("Til va ayolning maqomi") nomli maqolasi (keyinroq 1975-yilda shu nom bilan nashr qilingan asari) qayd etilgan bahs-munozaralarga chek

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. —New York: McGraw-Hill, 2010. —P. 180-181.

² Пирматова М. Ундовлар ва гендер дифференциацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. -№ 3. -Тошкент, 2013. -Б. 87.

³ Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. —М.: Издательский центр «Академия», 2001. —С. 83.

qo'ydi. R. Lakoff ushbu asarida ayollarning erkaklar qo'llaydigan tildan butunlay farq qiladigan "ayol tili"ni qo'llashlariga alohida urg'u berdi. R. Lakoffga ko'ra, mazkur "ayol tili" o'ziga xos qator xususiyatlarga ega bo'lib, u erkaklar tilidan quyidagi jihatlariga ko'ra farq qiladi:

1) erkaklar ishlatmaydigan so'zlarni (*mauve* "qizg'ish binafsharang") ishlatadilar;

2) "quruq" baholovchi sifatlardan (*sweet, divine, cute*) ko'proq oydalanadilar;

3) erkaklar ishlatadigan tasdiq shakli o'rnida so'roq shakllarini (shuningdek, tag questions) qo'llaydilar;

4) nazokat shakllarini ko'p ishlatishadi;

5) ko'pincha qat'iyatsizlikni ifodalovchi shakllardan (*well, you know, I guess, I wonder, I think*) foydalanadilar;

6) Undalmalarni (*so nice, very nice*) ko'p ishlatishadi;

7) o'ta to'g'ri grammatikadan foydalanadilar¹.

R. Lakoffning tadqiqoti ayrim doiralarda qo'llab-quvvatlangani holda, ba'zi doiralarda ayovsiz tanqid ostiga olindi va bu tanqidlar hali ham davom etmoqda. Jumladan, 1974-yilda W. O'Barr va B. Atkinlar Shimoliy Karolinadagi Oliy mahkamada 150 soat davom etgan sud jarayonida erkaklar va ayollarning nutqini kuzatib, R. Lakoff "ayol tili" o'rniga "zaiflik tili"dan gapirishi lozim, degan xulosaga kelishdi.

Tadqiqotchi C. West Janubiy AQSHdagi oilaviy poliklinikadagi 21 ta qayd varaqasini o'rganib chiqdi. C. Westning mazkur tadqiqotida erkak shifokorlar bemorlar bilan suhbat chog'ida ularning gaplarini ko'p marotaba bo'lganini, bemorlarning esa shifokorning gapini juda kam holatlarda bo'lganini, aksincha, shifokor ayol bo'lgan holatlarda bemorlar uning gapini ko'p marotaba bo'lganini qayd qildi.

Ayrim tadqiqotlarda erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlar submadaniyat farqlariga bog'lanini ko'rish mumkin. Xususan, D. Tannen: "ayollar munosabat va yaqinlik tilida, erkaklar mavqe va erkinlik tilida gaplashishsa, u holda erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi muloqot, so'zlashuv uslublari kesishmasidagi madaniyatlararo muloqotni yuzaga chiqaradi"², deb yozgandi. "Erkak va ayollar o'rtasidagi lisoniy tafovutni qancha anglasak, "siz meni tushunmaysiz" degan shikoyatlarni shuncha kam eshitamiz". Xullas, D. Tannen erkak va ayollarning bir-biridan farq qiluvchi so'zlashuv uslublari tavofutli submadaniyatlardan o'sib chiqqanligini da'vo qiladi.

Umumiyatda "erkak va ayollar kommunikativ xulq-atvorini o'rganishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladigan tayyor qolip va andozalar mavjud emas"³. Faqat yapon tilidagina bunday qoliplarni kuzatish mumkin. Masalan, yapon tilida erkak va ayollarning nutqiy muomalasi bir-biridan keskin farq qiladi. Erkakning

¹ Lakoff Robin. Language and The Women's Place. –New York: Oxford University Press, 2004. –328 p.

² Tannen Deborah. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. –New York: William Morrow Paperbacks, 2007. –P. 29.

³ Абдувахобова М. Аёллар вербал нуткининг лексик преференциялари (инглиз, итальян ва ўзбек фольклор матнлари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. -№ 4. – Тошкент, 2013. –Б. 98.

“ayolcha” gapirishi yoki aksincha, ayolning “erkakcha” gapirishi jiddiy kulgili holatlarni keltirib chiqaradi. Yapon tilidagi erkak va ayol variantlarining farqi til tizimining barcha sathlarida namoyon bo‘ladi ¹.

Los-Anjeleslik bir biznesmen yapon tilini mukammal o‘rganishga ahd qilibdi. Buning uchun yapon millatiga mansub o‘qituvchi yollabdi va tilni mukammal o‘rganibdi. So‘z boyligi juda zo‘r, grammatikasi benuqson, aksenti esa bilinmas darajaga yetibdi. Ammo u Yaponiyaga borib, mahalliy biznesmenlar bilan yaponcha gaplashishni boshlaganda uning tili g‘alatiligi bilan hammani hayron qoldiribdi. Nega? Buning sababi shuki, biznesmen yapon tilini ayol o‘qituvchidan o‘rgangandi. Ko‘p xalqlarda bilinmasligi mumkin, ammo Yaponiyada nutq intonatsiyasi ayollar va erkaklarda bir-biridan juda katta farq qiladi. Erkaklarning nutqi ayollarnikiga nisbatan ochiq (dangal) va agressiv (hatto ayollar o‘zaro gaplashganda yapon erkaklari ularni yaxshi tushinishmaydi degan gaplar ham yuradi). Shuning uchun Amerikadan kelgan janobning yapon ayollari manerasida gapirishi g‘alati va kulguli holatni keltirib chiqargan.

Gendershunoslik sohasida amalga oshirilgan keyingi yillardagi tadqiqotlarda ham muloqot uslubidagi o‘ziga xos gender xususiyatlar o‘rganildi ². Ularning aksariyatida R. Lakoffning ta’limoti davom ettirilib, erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlar quyidagicha ko‘rsatib berildi:

MULOQOT	ERKAKLAR	AYOLLAR
Muloqotga kirishishda	- salomlashishning qisqa bo‘lishi; - ba’zi holatlarda salomlashmasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri maqsadga o‘tish.	- salomlashish, hol-ahvol so‘rashning uzun bo‘lishi;
Muloqot jarayonida	- oldindan rejalashtirilgan fikrlarning ifodalanishi;	- bir xil fikrlarni takror qo‘llash;
	- dalil va isbotlar keltirish;	- hissiyotlarni ochiq ifodalash;
	- buyuk insonlar, olimlar va faylasuflarning fikrlaridan foydalanish;	- boshqalarning gaplarini suhbatdoshiga yetkazish;
	- aforizmler, latifalar ve maqollarni qo‘llash;	-tanishlarining gaplaridan foydalanish;
	- aniq, qisqa va lo‘nda gapirish, suhbat chog‘ida bir ma’noli so‘zlardan foydalanish;	- mavhum, uzun gapirish, suhbat chog‘ida ko‘p ma’noli so‘zlardan foydalanish;
Muloqot jarayonida	- ko‘proq siyosat, iqtisod, texnika va h.k. haqida gaplashish;	- pazandalik, tikish-bichish, kiyim-kechak, pardoz-andoz mahsulotlari va oiladagi muammolar haqida gaplashish; - muloqot chog‘ida uy jihozlari,

¹ Usmanova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. –Toshkent: Universitet, 2014. –B. 23.

² Wood J. T. Gendered lives: Communication, gender and culture (11 th ed). –Boston: Cengage Learning, 2014; Canary D. J. & Hause K. S. Is there any reason to research sex difference in communication?// Communication Quarterly. Vol. 41. 1993. –P. 129–144; Pennebaker J. W., Mehl M.R., & Niederhoffer K.G. Psychological aspects of natural language use // Our words, our selves. Annual Review of Psychology. –N. 54. 2003. –P. 547–577.

		mashinalar, taqinchoqlar, pardoz-andoz mahsulotlari va h.k.ning maqtanish obyekti bo'lishi;
	- erishilgan natijalarni odatda 50%ga mubolag'a qilish;	- erishilgan natijalarni odatda 200%ga mubolag'a qilish;
	- muloqot chog'ida pauzalarning uzun bo'lishi;	- muloqot chog'ida pauzalarning deyarli bo'lmasligi;
	- muloqot chog'ida sukutning uzoq davom etishi;	- muloqot chog'ida sukutning bo'lmasligi yoki sukutning juda qisqa davom etishi;
	- muloqot chog'ida suhbatdoshining gapini bo'lish hollarining juda kam bo'lishi;	- muloqot chog'ida suhbatdoshining gapini bo'lish hollarining tez-tez uchrashi;
	- jumalarning qisqa bo'lishi.	- jumalarning uzun bo'lishi.

Gender qarama-qarshiligi dunyo tillarida turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, ularni tizimlashtirishga urinish J. Sherser ilmiy ishidan boshlangan¹:

1. Tildagi erkak-ayol belgisi bo'yicha farqlanishining majburiyligi. Bunda bir tilning ikki xil varianti – erkak va ayol tilidagi majburiy farqlanish haqida so'z boradi. Mazkur farq ko'pincha fonetik yoki morfologik darajada seziladi. Eng ko'p tarqalgan misollardan biri – markaziy Amerikadagi Karib orolliklarining tili. Yevropaliklar Kichik Antil orollariga borib qolishganida, ular erkak va ayollarning “boshqa-boshqa tillarda” so'zlashayotganini sezib qolishadi: leksikaning bir qismi, shuningdek, grammatik ko'rsatkichlari farq qilardi. Erkaklarga murojaat chog'ida har doim “erkakcha” variantdan, ayollarga murojaatda esa faqat “ayol” variantdan foydalanilgan.

XVII asr manbalarida ta'kidlanishicha, o'rnatilgan me'yorlarning buzilishi jiddiy jinoyat hisoblangan. Mahalliy aholi XVII asrdayoq tilning ikki xil varianti mavjudligini quyidagicha izohlagan: Karibliklar ilk bor Kichik Antil orollarini bosib olganlarida (ular tub aholi bo'lmagan) u yerda Aravak hindulari yashagan. Karibliklar barcha erkaklarni qirib tashlab, faqat ayollarni qoldirishadi. Ayollar va ularning bolalari o'z ona tillarida so'zlashishni davom ettiradilar. Karib erkaklari bir oz muddatdan so'ng bu tilni o'zlashtirib oladilar va uni qabul qiladilar, lekin bu tilga “erkaklik belgisini” farqlanishi uchun ba'zi bir karib elementlarini kiritadilar. Natijada ikki xil turli guruhga mansub tillar qisman aralashib ketadi (faqat erkaklar nutqida).

Bunday hodisalarni tushintirish uchun tabu farazi olg'a suriladi. Erkaklar urishga kirganlarida, ehtimol, ularga ma'lum bir “erkakcha” so'zlar majmuyidan foydalanish buyirilgan. Bunda ayollar va bolalarning ba'zi bir so'zlarini aytish taqiqlangan, negaki ular “dushmanlarini ogohlantirish”, “ruhlarni jalp etish” yoki “o'ljani cho'chitib yuborishi” mumkin edi. Aks holda, harbiy va ovchilardan omad yuz o'girardi. Tabu jinsga bog'liq holda tilning differentsiatsialashuviga ta'sir

¹ Бахтин Н. Б., Головкин Е. В. Социоллингвистика и социология языка: Учебное пособие. –СПб.: ИЦ «Гуманитарная Академия»; Изд-во Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2004. –С. 71.

ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Tabu tizimi bo'lgan Zulus tili jins belgisi bilan farqlanishiga sabab bo'lganligi bunga yaqqol misoldir. Turmushga chiqqan Zulus ayoli erining otasi va aka-ukalarining ismini ovoz chiqarib aytmagan. Ba'zi hollarda u ayolga qanday bo'lmasin tabu otlar bilan o'xshashligi bo'lgan tovushlarni aytish taqiqlangan, ya'ni ayol kishining erkak qarindoshlari ismidagi tovushlari bor so'zlarni aytishga haqqi bo'lmagan. Tabu tizimining bu holati tilning jinsiy bo'linishiga olib kelgan bo'lishi ehtimoli yo'q emas. Biroq, tabu tizimi qanchalik maqbul bo'lmasin, u tildagi jinsiy farqlanishning holatlarini tushintirib berolmaydi.

2. *Erkak va ayollar nutqining turli uslublari.* Mazkur holatda uslub deganda lingvistik xususiyatlar majmuyi tushiniladi – fonetik, ritm, intonatsiya, morfologik, sintaksis, leksik xususiyatlar erkak yoki ayollarga xos nutqiy xulq-atvor bilan tasvirlanadi. Ayollar erkaklarga nisbatan tezroq yoki sekinroq, ko'proq yoki kamroq, ifodali yoki soddaroq gapirishlari mumkin. Ayollar so'zning oxirini "yutib yuboradilar", erkaklar esa, aksincha, ayollar (yoki erkaklar) o'ziga xos ohangda so'zlashishi mumkin va boshqalar.

Shuni ta'kidlash joizki, jamoa shuurida o'rnashib qolgan ma'daniy me'yorlar hayotiy amaliyot bilan mos kelmasligi mumkin. Ko'rib o'tilayotgan muammoda ma'lum bir jamiyatda bu kabi farqlar erkak va ayollar nutqida haqiqatda mavjudmi yoki yo'qmi bu muhim emas. Bu jamiyatda ayollar va erkaklar turlicha so'zlashishi haqidagi e'tiqodni mavjudligi muhimroq sanaladi. Masalan, rus tili sohiblari ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq va tezroq gapirishadi deyishlari mumkin, biroq buni, albatta, statistika tasdiqlashi shart emas.

3. *Nutqiy xulq-atvorni tashkil etishning turli ko'rinishlari.* Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'zlashuv chog'ida erkak va ayollar o'zlarini turlicha tutishadi, suhbat jarayonida tilni turlicha qo'llashadi. Bunday tadqiqotlarda, odatda asosiy mavzudan "chetlashish" miqdori hisoblanadi, ya'ni bir mavzudan boshqa mavzuga o'tish, to'satdan boshqa suhbatdoshga murojaat etish, suhbatdoshning so'zini bo'lish va h.k. Bunga ba'zi bir lisoniy xususiyatlar qo'llanilishidagi farqni ham daxl qilish mumkin. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, erkak va ayollar nutqida ayrim fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarning qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega (bunda avvalgi vaziyatdan farqli o'laroq, jamiyat a'zolari "barcha bir xilda so'zlashayotganiga" ishonch hosil qilishi mumkin).

Shunday qilib, ingliz ayollari savol berib suhbatni davom ettirishga, suhbatdoshiga dalda berishga, suhbatni qisqa javoblar bilan qo'llab turishga moyil bo'ladilar. Erkaklar, aksincha, suhbatdoshining gapini tez-tez bo'ladilar, suhbatdoshlari bilan har doim ham kelishmaydilar, suhbatdoshlarining aytganlarini ma'qullamaydilar, suhbat mavzusini qattiq nazorat qiladilar, fikrlarini to'g'ridan-to'g'ri aytishga moyilroq bo'ladilar. Ayollar suhbatda ochiq raqobatdan qochadilar (odatda ularning raqobatlari ochiq bo'lmaydi), tasdiq va qo'llab-quvvatlash ma'nosidagi bosh silkitishlarni kutishadi, o'zlari ham qiziqish va e'tibor ishoralarini namoyon etadilar. Bu tafovutlarning ildizi o'g'il va qizlar tarbiyasidagi farqlarga, ular xulq-atvoridagi boshlang'ich yo'nalishga borib taqaladi.

P. Trudgil ingliz tilida soʻzlashuvchi mamlakatlardagi erkak va ayollar nutqining “nufuzli / nufuzsiz” oʻlchovlarga koʻra qaysi variantlarni tanlashlarini koʻrsatib beradi. Olimning fikricha, ayollar koʻproq talaffuzning nufuzli variantini tanlaydilar. Bu mazkur madaniyatdagi ayol va erkak xulq-atvorining stereotiplari bilan bogʻliq boʻladi¹.

4. Koʻptillilik hamda ikkitillilik sharoitida erkak va ayollar tomonidan tilning tanlanishi. Erkak va ayollar koʻptillilik va ikkitillilik sharoitida oʻzlarini turlicha tutishadi. Erkaklar ikkitillilikka faolroq jalb qilinganlar, negaki, ular savdoda, ovda va boshqa mashgʻulotlarda uydan chiqishga majbur boʻladilar. Buning natijasida ular tilni yaxshi oʻrganadilar. Binobarin, Avstriyaning chegaradosh hududlarida aholining bir qismi orasida ikkitillilik mavjud boʻlib, ular nemis hamda venger tillarida soʻzlashadilar. U yerdagi erkaklar vengercha, ayollar esa nemischa soʻzlashishini maʼqul koʻradilar. Umuman olganda, shunday holatlar aniqlanganki, bunda ayollar shu ikki tildan faol va ikkitillilikning murakkab boʻlgan holatlaridan unumli foydalanganlar.

5. Suhbatdagi rollar va “janrlar”ninig gender jihatdan taqsimlanishi. J. Sherserning taʼkidlashicha, Panama hududida yashaydigan Kuna hindulari orasida ommaviy chiqishlar, qabila miflari, ilohiy qoʻshiqlar aytish erkaklar janri; alla aytish, yigʻi qoʻshiqlarni ijro etish ayollar janri hisoblangan.

6. Erkaklar va ayollar tomonidan nutqiy muomalaning turli modellarining tanlanishi. Bunga misol tariqasida koʻpincha malagasiya jamiyati keltiriladi. Malagasiya jamiyatida ikki: bevosita va bilvosita nutq modeli mavjud. Bevosita nutq modeli, asosan, ayollar nutqiga xos boʻlib, u savdo-sotiq munosabatlarida ishlatiladi. Bu xalqlarda savdo-sotiq bilan, asosan, ayollar shugʻullanishadi. Shuning uchun ham bevosita nutq modeli ayollarga xosdir. Bilvosita nutq modeli daganda ommaviy chiqishlar tushiniladi, yaʼni bu model siyosat va boshqa ijtimoiy faol sohalar bilan bogʻliq boʻladi. U, asosan, erkaklarga xosdir.

Turli tillarda erkak va ayollarga xos belgilarning ifodalanishida jamiyatning erkak va ayollarga turli ijtimoiy rollarni berishi tushiniladi. Biroq bu rollar vaqt oʻtishi bilan oʻzgarishi mumkin. Binobarin, tildagi oʻzgarishlar ijtimoiy rollardan ortda qoladi.

Erkak va ayollar turlicha soʻzlashadilar va bu variantlar vaziyatga bogʻliq emas: “ayollarga xos” yoki “erkakcha vaziyatlar” deyarli mavjud emas. Bir odam u yoki bu variantni oʻz xohishiga koʻra tanlashi mumkin emas. Ayol kishi erkakka qaraganda oʻzgacha gapiradi, tinglayotgan odam buni ovoz ohangidan farqlay oladi².

Oʻzbek nutqiy odatlarining tadqiqotchisi prof. Sh. Iskandarova oʻzbek nutqiy odatlarining gender xususiyatlariga alohida toʻxtalib, ayollar oʻrtasidagi muloqot jarayonida qoʻllanilishi odat tusiga kirgan ayrim soʻz va iboralarni quyidagicha qayd qiladi: *“dugonajon, ovsinjon, egachi, aylanay, oʻrgilay,*

¹ Trudgill P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. –Harmondsworth: Penguin Books, 1995. – P. 62-83.

² Бахтин Н. Б., Головкин Е. В. Социоллингвистика и социология языка: Учебное пособие. –СПб.: ИЦ «Гуманитарная Академия»; Изд-во Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2004. –С. 71-77.

giritton, qoqindiq, asalim, shirinin, toychog'im va boshqalar. Bular barcha ayollar uchun umumiy til birliklari – ayol, buvi, ona, turmush o'rtog'i, dugona, farzand, opa, singil, amma, xola va notanish kishi bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda ularning har birining boshqa bir ayol bilan muloqot odati yana o'ziga xos tarzda shakllangan bo'ladi"¹.

O'zbek xotin-qizlari nutqiga xos *aylanay, girgitton, o'rgilay, qoqindiq* kabi so'zlar ijobiy ma'no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar sanaladi. Ular ko'proq keksa ayollar tomonidan qo'llanadi. Chunonchi:

1. *Qo'shnilar ahvol so'rasa, ularniyam o'ziniyam yupatadi:*

- *Ha, endi keksalikda, o'rgilay, lekin onamning oyoq og'rig'i faqat keksalikdan emas.*

2. *–Kel-a, bo'yningdan girgitton bo'lib ketay, seni qaysi shamol uchirdi, akam tirilib keldimi, haligina qovog'im uchib turgan edi, - dedi ammam.*

- *Ha, balli azamat, necha kundan buyon ko'zim uchib, yo'lpashsha aylanib yurgan edi, haytovur yaxshilikka ko'rindi. Sen kelar ekansan balli - balli, - dedi pochcham. (G'. G'ulom. "Shum bola").*

Xotin-qizlar nutqining individual xususiyatlarini voy undovining qo'llanilishi asosida ham oydinlashtirish mumkin: ma'lum bo'lishicha, voy undovi o'ndan ortiq ma'no nozikliklarini ifodalaydi. Bularga: sevinish, erkalash, achinish, qo'rqish, havas, sarosimalanish, koyish, alam singari holatlar kiradi. Masalan: *–Voy o'lay, qutluq uydan quruq ketasanmi, bolam? Bir nima olib ket. (G'. G'ulom. Jomasi pok o'zi nopok bandalar).*

Umuman, aksariyat mutaxassislar ta'kidlashganidek, ayollar va erkaklar nutqidagi farqlar asosida jinslarning psixologiyasi, tafakkuri o'rtasidagi tafovutlar, jamiyatdagi gender o'lchovlarini belgilovchi me'yorlar yotadi. Jamiyatda jinsga oid faoliyat ko'rsatmalari, me'yorlarni belgilovchi ma'lum qoidalar, o'ziga xosliklar, tafovutli holatlar paydo bo'ladi va shunga nisbatan ijtimoiy hayotda ayollarga va erkaklarga xos bo'lgan ayricha tushunchalar, g'oyalar tug'iladi.

¹ Искандарова Ш. Ўзбек нутқ маданияти мулоқот шакллари: Филол. фанлари ном... дисс. автореферати. – Самарканд, 1993. –Б. 26.

10. 3. Yoshga oid xususiyatlar

Yosh xususiyatlari deganda, kishining yoshiga muvofiq qarashlari, xatti-harakatlari hamda o'zini qanday tutishini madaniy-me'yoriy qoidalarga ko'ra aniqlanishi tushuniladi.

Yoshimiz ulg'aygani sayin biz bilan tengdosh kishilarning qanday harakat qilishi, qanday ko'rinishi va o'zini qanday tutishi kerakligi haqida madaniy tasavvur hosil qilamiz; ya'ni yosh xususiyatini rivojlantirib boramiz. Yoshimiz ulg'aygani sayin do'kon peshtaxtalaridagi yoki gazeta va jurnallarda reklama qilinayotgan kiyimlarga qarab, o'zimizni juda keksa yoki juda yosh his qilamiz. Bu hislar yoshni qanday tushunishimiz, shuningdek, boshqa kishilarning yoshini qanday aniqlashimiz bilan bog'liq bo'ladi.

Ayrim kishilar o'zlarini 30 yoshda keksaygan hisoblashsa, boshqalar o'zlarini 40 yoki 50da ham yosh hisoblashadi. Yosh bilan bog'liq bo'lgan hech narsa bizning yosh yoki keksa ekanligimizni aytmaydi.

Bizning yosh haqidagi tasavvurlarimiz ko'pincha ulg'ayish bilan bog'liq holda o'zgarib boradi. O'smirlik chog'imizda oliygoh talabasi bizga keksaygan bo'lib ko'rinadi; o'zimiz talaba bo'lganimizda esa ulg'ayganimizni tan olgimiz kelmaydi.¹

Biroq yoshning nisbiy tabiati yoshni aniqlash jarayonining bir tomoni xolos. Bu o'rinda yoshning ijtimoiy tuzilishi ham muhim rol o'ynaydi. Har qaysi avlodning farqli falsafasi, qadriyati va o'ziga xos so'zlashuv usuli bo'ladi². Masalan, so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, 1982-2001-yillarda tug'ilgan avlod globallashtirishga yo'nalganligi, kompyuter hamda texnologiyalar sohasida bilimdonligi bilan o'zidan oldingi avloddan farq qiladi. Bu avlodda 1961-1981-yillarning vakillariga nisbatan hayotga komil ishonch bilan qarash ruhi kuchli bo'lib, ular jamiyatga imkon qadar ko'proq hissa qo'shishga moyilligi bilan ajralib turadi. Ular oldingi avloddan farqli o'laroq, ish bilan o'yin o'rtasida muvozanatni saqlashga intiladi. Shuningdek, bu xususiyatlar ularning o'qishi va ishlashi (ko'p tarmoqli vazifarni bajarish, multimediyadan foydalanish va h.k.)da ham o'z aksini topadi³.

Qayd etilganlar bilan birga, yoshlarda kuch-quvvat, katta avlodda esa tajriba mavjud. Aksariyat yoshlarda individualizm, shaxs "men"ligi yuqori bo'lsa, katta avlodda kollektivizm, muammolarni kengashib hal qilishga moyillik kuchli bo'ladi. Avlodlar orasidagi mazkur farqlar ba'zan jamiyatda, ish joyida, ta'lim muassasalarida va h.k. turli to'qnashuvlar, tushunmovchiliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Keksalikka bo'lgan turli munosabatlar. Odatda g'arbliklar keksalikdan qo'rqishadi. Ularning fikricha, keksalik "yemirilish, inqiroz"ni tamsil etadi. Shuning uchun ham aksariyat G'arb mamlakatlarida boshqalardan yoshini so'rash beodoblik sanaladi. Chunki "yosh" juda nozik masala hisoblanadi. Binobarin,

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. —New York: McGraw-Hill, 2010. —P. 182-183.

² Strauss W., & Howe N. Millennials and the pop culture. Great Falls, VA: Life Course Associates, 2006.

³ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. —New York: McGraw-Hill, 2010. —P. 183-184.

keksa yoshlilarni ifodalash uchun ingliz tilida “*senior citizen* (keksa, oqsoqol), *advantage in age* (yoshdagi afzallik), *the mature* (yetilgan, pishgan), *seasoned man* (tajribali), *full of ages* (yoshi ulug‘), *be feeling one’s ages* (yoshi sezilarli bo‘lib qolmoq), *past one’s prime* (davri-davroni o‘tmoq, keksayib qolmoq)” singari qator evfemizmlar qo‘llaniladi¹.

Aksincha, Sharq an‘analarida keksalarga chuqur hurmat-ehtirom ko‘rsatiladi. “Keksalik” deganda donolik va tajriba tushuniladi. Zero, Sharqda yoshi ulug‘ kishilar doimo hurmat-e‘tiborda bo‘lib, keksalik gashtini suradilar. Binobarin, o‘zbek lingvomadaniyatida *Qari kelsa oshga, yosh kelsa ishga* maqoli bejizga qo‘llanilmaydi.

Sharq madaniyatida “mendan katta //kichik” shartiga amal qilinadi. Kattalarga har doim “sizlab” gapiriladi. Yoshi katta kishilarga ismi bilan murojaat qilish me‘yoriy hol sanalgan G‘arb madaniyatidan farqli o‘laroq, Sharq madaniyatida keksalarga *otaxon, onaxon*, koreys tilida *abonim, omonim, haraboji, halmoni*, xitoy tilida “老” “lao” (yoshi ulug‘, tajribali) deb murojaat qilinadi. Ba‘zi turk oilalarida farzandlar otasiga yoki kelinlar qaynotasiga *efendi baba* deb, hurmatning yuqori darajasini qo‘llaydilar. Odatda yaqinlik, sevgi va hurmat singari modal munosabatlar ‘-ciğim’ va ‘-ciğim’ qo‘shimchalari vositasida ifodalanadi: *Babacığım, pencereyi kapatabilir miyim?* “Otajon, derazani yopsam maylimi?”.

Sharqda, ayniqsa, ota-onalarga yuksak ehtirom ko‘rsatish farzandlarning muqaddas burchi sanaladi. Ota-onalarni e‘zozlash, ularga chuqur hurmat va ehtirom ko‘rsatish Sharq mutafakkirlarining asarlarida doimo ta‘kidlab kelingan. Xususan, Alisher Navoiy “Nazmu-l-javohir” asarida shunday yozgan:

Ista ato yo‘lida fido jon qilmoq,
Qulluq anog‘a ham ulcha imkon qilmoq,
Zuhri abad istasang farovon qilmoq,
Bil ani ato-anog‘a ehson qilmoq.

Otangni deb joningni fido qilsang, onagga ham shuncha e‘tibor qilgin,
o‘zing uchun qadrlı, ehtiyotli narsangni ham ota-onangga ehson qil, deb uqtiradi².

Nazorat uchun savollar

1. Gender qanday kategoriya?
2. “Jins” va “gender” tushunchalarini izohlang.
3. Gender masalasi qaysi tadqiqotlarda o‘rganilgan?
4. Tilshunoslikda gender masalasiga bo‘lgan qiziqish qaysi yo‘nalishdagi tadqiqotlarda o‘z aksini topdi?
5. R.Lakoffning “Language and the Women’s Place” asarida qanday ta‘limot ilgari surildi?
6. Qaysi tadqiqotchi erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlarni submadaniyat farqlariga bog‘langan?
7. Erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlarni ko‘rsating.

¹ Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. –P. 68.

² Алишер Навоий. Ибратли ҳикоятлар ва ҳислатли ҳикматлар. Нашрга тайёрловчилар А.Тилавов, И.Сайдуллаев. –Тошкент: “Sano-standart”, 2016. –Б. 82.

8. Yosh xususiyatlari qanday aniqlanadi?
9. Yosh ulg'ayganda nimalarga e'tibor qaratiladi?
10. Yosh haqidagi tasavvurlar qanday o'zgaradi?
11. G'arb madaniyatida keksalikka qanday munosabatda bo'linadi?
12. Sharq madaniyatida keksalikka qanday munosabatda bo'linadi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Gendershunolikda amalga oshirilgan tadqiqotlarni tasniflash.
2. Erkaklar va ayollar nutqidagi tavofutlarni ko'rsatish.
3. Yosh va katta avlod qarashlaridagi farqlarni tushuntiring.
4. G'arb va Sharq madaniyatida keksalikka bo'lgan munosabatlarni izohlang.

Adabiyotlar

1. Canary D. J. & Hause K. S. Is there any reason to research sex difference in communication?// Communication Quarterly. Vol. 41. 1993. –P. 129–144.
2. Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiologiyat. –Toshkent: Universitet, 2014. -136 b.
3. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
4. Kindaichi H. The Japanese Language. –Tokyo, 1978. -256 p.
5. Lakoff Robin. Language and The Women's Place. –New York: Oxford University Press, 2004. -328 p.
6. Pennebaker J. W., Mehl M.R., & Niederhoffer K.G. Psychological aspects of natural language use // Our words, our selves. Annual Review of Psychology. –№. 54. 2003. –P. 547–577.
7. Strauss W., & Howe N. Millennials and the pop culture. Great Falls, VA: Life Course Associates, 2006.
8. Tannen Deborah. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. –New York: William Morrow Paperbacks, 2007. -342 p.
9. Trudgill P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. – Harmondsworth: Penguin Books, 1995. –P. 62-83.
10. Usmanova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. Sotsiologiyat. – Toshkent: Universitet, 2014. -84 b.
11. Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. –P. 66-70.
12. Wood J. T. Gendered lives: Communication, gender and culture (11 th ed). – Boston: Cengage Learning, 2014. -341 p.
13. Абдувахобова М. Аёллар вербал нутқининг лексик преференциялари (инглиз, италян ва ўзбек фольклор матнлари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. -№ 4. –Тошкент, 2013. –Б. 97-100.
14. Алишер Навоий. Ибратли ҳикоятлар ва хислатли ҳикमतлар. Нашрга тайёрловчилар А.Тилавов, И.Сайдуллаев. –Тошкент: “Sano-standart”, 2016. - 520 б.

15. Бахтин Н. Б, Головкин Е. В. Социоллингвистика и социология языка: Учебное пособие. –СПб.: ИЦ «Гуманитарная Академия»; Изд-во Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2004. -336 с.
16. Бубер М. Проблема человека. Перевод с немецкого. –Киев: “Ника-Центр”, “Вист-С”, 1998. -132 с.
17. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ маданияти мулоқот шакллари: Филол. фанлари ном... дисс. автореферати. –Самарканд, 1993.
18. Латышев И. А. Семейная жизнь японцев. –М.: Наука, 1985. -287 с.
19. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.
20. Пирматова М. Ундовлар ва гендер дифференциацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. -№ 3. –Тошкент, 2013. –Б. 87-90.

11-MA'RUZA

TIL VA MADANIYATLARARO MULOQOT

Reja:

1. Diskurs tuzilishining milliy-madaniy xususiyatlari
2. Diskursda evfemizmlarning o'рни
3. Kodlar aralashuvi
4. Interferensiya

Tayanch so'z va iboralar: diskurs, matn, milliy-madaniy xususiyat, nutqiy faoliyat, lisoniy faoliyat, strategiya, usul, ekstralingvistik sharoit, ekvivalent, lisoniy vosita, kodlar aralashuvi, bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tish, interferensiya.

11. 1. Diskurs tuzilishining milliy-madaniy xususiyatlari

Diskurs termini fransuz tilidan olingan bo'lib (discours), matnning og'zaki so'zlashuv shakli, dialog, bir-biriga ma'no jihatidan bog'langan mulohazalar yig'indisi, nutqiy asar ma'nolarini bildiradi.

Diskurs shaxsning ruhiy holati, ichki kechinmalari, tafakkur malakasi kabi ruhiy-idrokiy xususiyatlar bilan uzviy aloqador bo'ladi. Shu bilan birga, shaxsning muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi, ijtimoiy mavqeyi, savodxonlik, tafakkur, madaniyat darajasi va h.k. diskursning tuzilishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, diskurs tuzilishidagi milliy-madaniy xususiyatlar har bir millatning o'ziga xos nutqiy faoliyati, lisoniy faoliyati va muloqoti bilan chambarchas bog'liqdir. Bu o'rinda turli lingvomadaniyatlardagi ayrim leksemalarni qiyoslash alohida ahamiyat kasb etadi.

“Jonim” so'zi o'zbek tilida “azizim, mehribonim, sevgilim” ma'nosida qo'llaniladi. Turk tilida esa “canım” so'zi er-xotinlar, sevishganlar orasida sevgi-muhabbatni ifodalashi bilan birga, neytral ma'noda ham ishlatiladi:

– *Su içmek için çıktım da... Salondan geçiyordum. Annem beni görünce, babama **canım**, şekerim...demeye başladı. Babam da ona, –Ruhum, bitanem diyordu: Ne zaman kavga ederlerken birden üzerlerine gitsem, terbiyem bozulmasın, diye birbirlerine işte böyle -canım, ciğerim derler. Oysa kavga etmedikleri zaman, birbirlerine adlarıyla seslenirler* (Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika).

Tarjimasi:

*Suv ichgani ketayotuvdim, oyim ko'rib qoldilar. Darrov dadamga qarab: “**Jonginam**” dedi. Dadam ham “Sevgan yorim, asalim” deb javob berdilar. Ikkovlari janjallashib turishgan bo'lsa meni ko'rishlari bilan nuqul shunaqa deyishadi. Bir-birlariga shirin gap qilishmasa, mening tarbiyam buzilarkan. Boshqa paytlari bir-birlarining otini aytib chaqirishadi* (M. Hakimov tarjimasi. G'aroyib bolalar, 187).

Mazkur parchada turk tilidagi “*canım*” er-xotin o‘rtasidagi sevgi-muhabbatni anglatadigan so‘z bo‘lib, u o‘zbek tilidagi “*jonim*” so‘zining to‘la ekvivalenti hisoblanadi.

Quyidagi parchada “*canım*” neytral ma’noda shirinsuxanlik ifodalovchi so‘z vazifasida kelgan:

O pazar, babam çak erkenden kalktı; oysa pazarları yataktan geç kalkardı.

– *Misafir bu kadar erken mi gelecek baba? Dedim.*

– *Ben onun için mi kalktım **canım!**.. dedi* (Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika).

Tarjimasi:

Yakshanba kuni dadam juda erta turdi. Dam olish kunlari bermalol uxlardi, shuning uchun hayron bo‘ldim.

– *Mehmon shunaqa erta keladimi, dada?*

– *Mehmon kelarkan, deb barvaqt turganim yo‘q, **o‘g‘lim*** (M. Hakimov tarjimasi. G‘aroyib bolalar, 189).

Ko‘rinadiki, “*canım*” so‘zi ota tomonidan o‘g‘liga nisbatan qo‘llanilgan. Bunday vaziyatlarda tarjimon aldoqchi so‘zlar girdobiga tushib qolmasligi lozim. Tarjimon mazkur so‘zning ixtisoslashgan holda qo‘llanilganini sezgan va uni “*o‘g‘lim*” so‘zi orqali to‘g‘ri ifodalagan.

Diskursning milliy-madaniy xususiyatlari haqida gap ketganda, avvalo, “tilning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq ifodalarni yuzaga kelishidagi turli strategiyalarning imkoniyati” (A. A. Leontev) nazarda tutiladi. Shuningdek, diskurs va matn tuzilishida ham turli strategiyalarning kuchli imkoniyatini e’tibordan qochirmaslik lozim¹.

Yaponlarga xos bo‘lgan vaziyatni Saxoko Kadzi, Toriko Xama va Jonatan Rayslar shunday tasvirlaydi:

¹ Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. –М.: «Гнозис», 2002. –С. 215.

Yozning jazirama kunlarining birida yapon ota oilasi bilan aylanishga chiqadi. U muzqaymoq sotuvchisidan uning furgonida tasvirlangan “supa-kurimu” – super muzqaymoq nimadan tayyorlanganligini so‘raydi. Sotuvchi muzqaymoqning tarkibini erinmasdan, batafsil tushuntiradi: vanilin, qulupnayli muzqaymoq, xandon pista, asal va shokolad. Tabiiyki, mijozning ko‘ngli sust ketdi va undan: “Marhamat qilib, ikkita muzqaymoq berib yuboring”, deb so‘raydi. “Uzr, – dedi sotuvchi, – bugun bizda “supa-kurimu” yo‘q”. Yevropada sotuvchi oila otasining bu savolini mahsulotni sotib olish niyatida ekanligini tushunib, tafsilotlarga to‘xtab o‘tirmasdan, darhol: “Kechirasiz, ser, bugun bizda bunday muzqaymoq yo‘q”, deb javob bergan bo‘lardi. Yaponiyalik sotuvchi mijozning obro‘yini saqlash va ko‘nglini cho‘ktirmaslikka harakat qilib “aylanma yo‘l” tanlaydi. Sotuvchi mahsulotni tasvirlarkan mijozning uni sotib olish fikridan aynishiga umid qiladi, shunda u muzqaymoqning yo‘qligini tan olishga majbur bo‘lmaydi. U, albatta, savolning haqiqiy mohiyatini tushunadi, biroq aniq savolga aniq javob berishni ma’qul ko‘radi. Yaponiyada shunga o‘xshash vaziyatlarni har qadamda uchratish mumkin. Yaponlar bunday noqulay vaziyatlardan qochish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solishadi.

Uzoq Sharq madaniyatida “inkor” yoki “yo‘q” tushunchalarini ifodalashga juda ehtiyotkorlik bilan yondashiladi. Uzoq Sharq tillarida so‘zlashuvchilar soatlab davom etgan suhbat chog‘ida o‘z fikrlarini aniq va lo‘nda ifoda etmasliklari mumkin. Binobarin, ularni o‘zaro aloqadagi ma‘lum so‘z va ifodalarning ma‘nosidan ko‘ra ko‘proq hissiy tomoni, nazokat jihati qiziqtiradi.

Dunyoning deyarli barcha madaniyatlarida “*Bu kitob sizniki emasmi?*” yoki “*Ertaga band emasmisiz?*” kabi inkor mantig‘idagi savollarga deyarli barcha madaniyatlarda “*Yo‘q, meniki emas*”, “*Yo‘q, band emasman*”, deb inkor ma‘nosida javob beriladi. Koreys madaniyatida “*Ne, ne cheki animnida*” (“Ha, mening kitobim emas”) va “*Ne, babiji ansimnida*” (“Ha, band emasman”), yapon madaniyatida “*Hai, watashino dewa arimasen*” (“Ha, meniki emas”) deb avval, tasdiq, keyin inkor ma‘nosida javob qaytariladi. Chunki koreys va yapon muloqotida asosiy e‘tibor suhbatdoshga qaratilgan bo‘lib, uni ranjitmaslikka, savollarga iloji boricha ijobiy va tasdiq ma‘nosida javob berishga harakat qilinadi¹.

Umuman, diskurs tuzilishinig milliy-madaniy xususiyatlari kommunikatsiyaning ekstralingvistik sharoitlari (birinchi navbatda muloqot masofasi)dan tortib muloqot strategiyasi va usullarigacha, kommunikativ aktning paralingvistik komponentlari (qo‘l harakatlari, yuz ifodalari)dan matnning tuzilishigacha, so‘zlarni yozish va tartiblashdan ularning tarjimalarida ekvivalent hisoblangan lisoniy vositalardan foydalanishgacha bo‘lgan barcha sathlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

11. 2. Diskursda evfemizmlarning o‘rni

Evfemizmlar ijtimoiy va madaniy xususiyatlariga ko‘ra diskursda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Turli xalqlarning ruhiyati ularning diskursida evfemizmlarning yuzaga chiqishi orqali namoyon bo‘ladi.

Routledge Dictionary of Language and Linguistics (2000)da “evfemizm – kishilar uchun ishlatilishi yoqimsiz va beadab bo‘lgan ayrim so‘zlar o‘rniga noaniq, ko‘p ma‘noli so‘zlarni qo‘llash va bu orqali o‘zlarini noqulay holatlardan chiqarishga urinishlarini ifodalaydigan o‘ziga xos bir usuldir”, deb izohlangan.

Evfemizmlarning kelib chiqishida ijtimoiy asos yotadi. Kishilar ba‘zan boshqalar bilan muloqot chog‘ida o‘zlari xohlagan narsani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ayta olmaydigan yoki iboralarning o‘z ma‘nosida qo‘llab, suhbatdoshlarini noqulay ahvolga solib qo‘yadigan vaziyatlar bilan to‘qnashib qoladilar. Bunday qiyin vaziyatlardan chiqib ketish maqsadida, kishilar o‘z fikr-mulohazalarini vositali, “o‘rab-chirmab” ifodalashga harakat qiladilar. Buning natijasida evfemizmlar yuzaga keladi².

Jamiyatning rivojlanishi bilan barcha tillardagi evfemizmlar ham o‘zgarib borgan. Tabiiyki, bunday davomli o‘zgarishlar madaniyatga bog‘liq bo‘lgan. Turli mamlakatlar o‘ziga xos atrof-muhitga, ijtimoiy tuzilishga, mafkuraga,

¹ Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда новербал воситаларнинг аҳамияти // Маданиятлараро мулоқот масалалари: тил, матн, таржима. Илмий-амалий анжумани материаллари. –Тошкент: ТошДШИ, 2016. –Б. 14.

² Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. –P.66.

qadriyatlarga va ishlab chiqarish tizimiga ega. Bularning barchasi til qo‘llanishida, binobarin, evfemizmlarning qo‘llanishida ham o‘z aksini topadi.

Evfemizmlar madaniy hodisa sifatida madaniyat taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Turli xalqlar evfemizmlaridagi madaniy o‘xshashliklar ularga yuklangan vazifalarning bir xilligidan kelib chiqadi.

Mavjud so‘zga evfemistik ma‘no yuklanar ekan, bu ma‘no so‘zning qo‘llanmay qolgan ma‘nosi bo‘ladi. Ya‘ni u leksik sathga mansub hisoblanadi. Uni asosan tabu bilan bog‘laydilar. Tabuga uchragan so‘z yoki ibora o‘rnida to‘g‘ridan-to‘g‘ri evfemizm qo‘llanadi, ya‘ni ma‘lum so‘zga tabuga uchragan lug‘aviy birlikning ma‘nosi yuklanadi, u evfemistik ma‘no bo‘lib qoladi¹.

“Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ijtimoiy ishlab chiqarish darajasi past bo‘lgani sababli, kishilarda ilmiy va madaniy bilimlar yetishmagan. Shuning uchun ham ular turli irim-chirimlarga ishonishgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Xudodan yoki ruhlardan so‘rash baxtsizlik keltiradi, deb o‘ylashgan. Natijada Xudo va ruhlarning ismi tabuga aylangan va ular boshqa nom bilan atala boshlangan. Masalan, G‘arb mamlakatlarida nasroniylik rivojlangan davrlarda Xudoning “Iyegova” ismi eng katta tabu hisoblangani uchun uning o‘rniga “Quadratli”, “Yaratuvchi”, “Qutqaruvchi”, “Bizning Otamiz” va h.k. evfemizmlar qo‘llanilgan. Yoki qadimgi Xitoyda imperatorlarning ismi bilan atash taqiqlangan.

Xitoyning birinchi imperatori Chin Shi Xuang 正月 “Zheng yue” (qamariya yilining birinchi oyi – the first month of a lunar year)dagi 政 “Zheng” (siyosat; adolat) belgisini talaffuz qilishdan qochish maqsadida, 正 “Zheng” (to‘g‘ri) belgisiga mos keladigan 端月 “Duan yue” (to‘g‘ri)ga o‘zgartirilgan”².

Aksariyat lingvomadaniyatlarda keng tarqalgan evfemik so‘zlardan biri “o‘lim”dir. Insonlarning tasavvurida o‘lim eng katta baxtsizlik sanaladi. Shuning uchun ko‘pchilik xalqlarning tilida *o‘lim* so‘zi tilga olinmaydi va u turli evfemik so‘zlar va iboralar vositasida ifodalanadi. Masalan, o‘zbek tilida: “vafot etmoq”, “olamdan o‘tmoq”, “bandalik qilmoq”, “bandalikni bajo keltirmoq”, “halok bo‘lmoq”, “qazo qilmoq”, “ketmoq”, “o‘tmoq”, “kuzatmoq”, “xayrlashmoq”, “mangu uyquga ketmoq”, “abadiy uyquga ketmoq”, “tuproqqa qaytmoq”; turk tilida: “vefat etmek”, “gitmek”, “uğurlamak” (kuzatmoq), “vedalaşmak”, “gözünü yummak”, “yaşamını yitirmek”, “dünyaya gözlerini kapamak”, “hayatını teslim etmek”, “hayata gözlerini yummak”, “helak olmak”, “ebediyete intikal etmek”; koreys tilida: “torakata” (qaytib ketmoq), “hanil nara kata” (osmon shohligiga ketmoq); xitoy tilida: “chu shi” (hayotdan ketmoq), “sang ming” (halok bo‘lmoq), “chang mian” (abadiy uyquga ketmoq), “yao zhe” (hayotdan bevaqt ketmoq), “ming mu” (ko‘z yummoq); hindiy tilida: “chale jana” (ketmoq), “guzar jana” (o‘tmoq), “dam nikalna” (ruhi chiqmoq), “kxo jana” (unut bo‘lmoq), “dehant hona” (kuni bitmoq); rus tilida: “скончатся”, “уйти”, “ушёл из жизни”; ingliz tilida: “to pass away” (o‘tmoq), “to expire” (vafot etmoq), “to be no more” (boshqa

¹ Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. –М.: Флинта, 2012. –С. 284.

² Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. –P.67.

bo‘lmaslik), “to breathe one’s last” (so‘nggi nafasini bermoq), “to come to an end” (abadiyatga ketmoq), “to sleep the final sleep” (mangu uyquga ketmoq), “return to dust” (tuproqqa qaytmoq), “to be at peace” (huzurga qovushmoq), “to be asleep in the arms of God” (Xudoning qo‘llarida uyquga ketmoq) va h.k. shular jumlasidandir.

Kishilar ko‘pincha o‘z nutqi va xatti-harakatlari bilan boshqa shaxsga nisbatan hurmat va ehtirom darajasini ifodalash uchun qo‘pol, beadab so‘z va iboralar o‘rnida yoqimli evfemik so‘z va iboralardan foydalanishadi. Masalan, *ikkiqat*, *bo‘g‘oz* (o‘zbek tilida), *gebe* (turk tilida) so‘zlari o‘rnida *homilador*, *og‘ir oyoqli* (o‘zbek tilida), *hamile* (turk tilida) so‘zlari qo‘llaniladi. Yoki *nogiron* (o‘zbek tilida), *özürlü* (turk tilida), 残废 “*tsan fei*” (xitoy tilida), инвалид (rus tilida) *handicapped* (ingliz tilida) so‘zlari “kuchsiz, yaroqsiz” ma’nolarini ifodalagani uchun hozirda ularning o‘rniga *imkoniyati cheklangan shaxs* (o‘zbek tilida), *engelli kishi* (turk tilida), 残疾 “*tsan ji*” (xitoy tilida), человек с ограниченными возможностями (rus tilida), *disabled* (ingliz tilida) kabi evfemik so‘z va iboralar ishlatilmoqda. Shuningdek, bugungi kunda mazkur so‘z va iboralar barqarorlashib, ulardan ommaviy axborot vositalarida, qonun hujjatlarida va BMTning rasmiy materiallarida keng foydalanilmoqda.

Madaniyatlar qiyosida raqamlar haqidagi turli tabularni ham ko‘rish mumkin. G‘arb madaniyatida 13 raqamiga baxtsizlik keltiradi, deb qaraladi va kundalik hayotda bu raqamdan foydalanmaslikka harakat qilinadi. Masalan, 13 kishining stol atrofida yig‘ilib, tushlik qilishi yoki majlis o‘tkazishi deyarli kuzatilmaydi. Shuningdek, dasturxonga 13 kishilik idish-tovoq qo‘yish taqiqlanadi. Uy, xonadon, qavat va boshqalarda barcha bu raqamdan foydalanishdan qochadi¹.

Xitoy va Koreyada 4 raqami qat’iyan an’anaviy tabu hisoblanadi. Chunki xitoy tilining talaffuz qoidalariga ko‘ra, 4 soni “si” (to‘rtinchi ohang) shaklida talaffuz qilinib, u “o‘lim/ o‘lmoq” ma’nosidagi boshqa “死” “si” (uchinchi ohang)ga juda yaqin turadi. Shuning uchun mazkur raqam xushlanilmaydi va undan eshik, uy, xona, qavat, telefon va tarixiy sanalarni belgilashda foydalanilmaydi. Hatto, xitoyliklar 4 raqamli turar joylar sotib olishdan ham qo‘rqishadi. Aksincha, xitoy tilidagi 8 raqami “ba”ning talaffuzi “boy bo‘lmoq”, “pul topmoq” ma’nolarida qo‘llaniladigan “fa” so‘ziga yaqin bo‘lgani uchun undan keng foydalaniladi.

Xullas, evfemizmlar kelib chiqishi jihatidan uzoq tarixga ega bo‘lgan lisoniy va ijtimoiy-madaniy hodisadir. Evfemizmlar xalqning ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatlar, udumlari, irim-sirimlari va inonchlarini aks ettiradi. Turli madaniyatlar diskursidagi evfemizmlarni qiyosiy o‘rganish madaniyatlararo muloqot jarayonida yuzaga chiqadigan tushunmovchiliklarni, qiyinchiliklarni oldini oladi, pragmatik to‘siqlarni bartaraf etib, muloqotning muvaffaqiyatli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

11. 3. Kodlar aralashuvi

¹ Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. –P. 68.

Kodlar aralashuvi (yoki *bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tish*) inglizcha *code mixing* (yoki *code-switching*) termining tarjimasini bo'lib, u XX asrning 70-yillarida ingliz tilshunosligida paydo bo'lgan¹. Biroq mazkur termin iste'molga kirmasidan oldin bu hodisaga R.Yakobson e'tibor qaratgan: "Har qanday umumiy kod ko'p shaklli bo'lib, u xabarning vazifasi, adresat va suhbatdoshlar orasidagi munosabatga ko'ra so'zlovchi tomonidan erkin tanlanadigan turli subkodlarning iyerarxik (pog'onali) majmuyidir"². Keyingi yillarda kodlar aralashuvi hodisasi turli jihatdan Auer (1998), Myers-Scotton (1993), Poplack (1980), McCormick (2002), Mahootian and Santorini (1996), Rampton (1995) kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan³.

Ijtimoiy-kommunikativ tizimni tarkib toptiruvchi kodlar va subkodlar vazifalariga ko'ra taqsimlangandir. Bu mazkur til jamoasini tashkil etgan xuddi o'sha so'zlashuvchilar kontingentining umumiy muloqot vositalari majmuyini muloqot sharoitidan kelib chiqqan holda qo'llashini bildiradi. Masalan, agar gap adabiy til subkodlari haqida ketadigan bo'lsa, unda adabiy til egalari ilmiy faoliyatda ilmiy uslubdan, boshqaruv organlarining yozishmalarida, ish yuritishda, yurisprudensiyada, albatta, rasmiy uslubdan, diniy marosimlarda esa diniy-tashviqot uslublaridan foydalanishi kerak bo'ladi. Boshqacha aytganda, so'zlovchi muloqot sharoitidan kelib chiqqan holda, bir til vositasidan boshqasiga o'tadi.

Bunga o'xshash manzara ikki yoki undan ortiq til qo'llaniladigan jamiyatlarda ham kuzatiladi. Ikki yoki undan ortiq tilda so'zlashuvchilar, odatda bu tillarni muloqot sharoitiga ko'ra "taqsimlashadi": rasmiy sharoitda hokimiyat vakillari bilan bir tilda, kundalik hayotda, uyda, qo'shnilar va boshqalar bilan ikkinchi tilda gaplashadilar. Mazkur holatda ham bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tiladi, faqat bu yerda birinchi misoldagidek kod tilning uslublari sifatida emas, balki turli tillar sifatida namoyon bo'ladi.

Nutqiy muloqot chog'ida so'zlovchining kommunikatsiya sharoitidan kelib chiqqan holda, bir tildan (yoki til variantlaridan, dialektdan, uslubdan) boshqa bir til ko'rinishiga o'tishi ***kodlar aralashuvi, ya'ni bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tish*** deyiladi.

Kommunikatsiya sharoitidagi qanday o'zgarishlar so'zlovchining bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tishga majbur qiladi? Masalan, *adresatning almashinishi*, ya'ni so'zlovchi murojaat qilgan kishining o'zgarishi kodlarning aralashuviga sabab bo'lishi mumkin. Agar adresat so'zlashuvchi bilgan ikki tildan faqat birini bilsa, shu paytgacha muloqotda bilingv (zullisonayn) suhbatdoshlar boshqa til yoki har ikkala tilni qo'llagan bo'lishlariga qaramay, muloqot oxirida adresatga tanish bo'lgan tilni qo'llashga o'tiladi. Masalan, men (ta'kid bizniki – Sh.Usmanova) Indiana universitetida (AQShda) ishlagan chog'imda vaziyatga ko'ra, o'zbek, rus va ingliz tillaridan foydalanishimga to'g'ri kelgan. O'zbeklar doirasida suhbatlashganimda, tabiiyki, o'zbek tilidan foydalanganman. Agar

¹ Miriam Meyerhoff. *Introducing Sociolinguistics*. –New York: Routledge 2006. –P. 287; Беликов В.И., Крысин Л.П. Социоллингвистика. –М., 2001. –С. 28.

² Jakobson R. *Linguistics in its relation to other sciences* //Main Trends of Research in the Social and Human Sciences. - Paris, 1970. –P. 458.

³ Miriam Meyerhoff. *Introducing Sociolinguistics*. –New York: Routledge 2006. –P. 287.


suhbatimizga qozoq yoki qirg'iz kelib qo'shilsa, o'z-o'zidan rus tilini qo'llashga o'tganmiz (qozoq yoki qirg'iz tilini bir o'zbek tushunishi mumkin, lekin o'zbekchani qozoq, qirg'iz va h.k. til egalari to'liq tushunmaydi). Yoki suhbat rus tilida borayotgan bir paytda oraga amerikalik kelib qo'shilsa, unda ingliz tilini qo'llashga to'g'ri kelgan. Muloqotga kirishuvchilar sonining o'zgarishi ham kodlarning ko'chishini keltirib chiqaradi. Bunday holat ikki bilingvning suhbatiga faqat bir tilni biladigan uchinchi kishi kelib qo'shilganda yuz beradi.

So'zlovchi rolining o'zgarishi ham kodlar aralashuvini keltirib chiqaruvchi omillardan biri bo'lishi mumkin. Masalan, Toshkentda yashovchi ota yoki ona rolidagi xorazmlik so'zlovchi oilada, yoxud hamyurtlari bilan muloqot chog'ida xorazm shevasida gapiradi, lekin u ish joyida, boshqaruv organlariga murojaat qilganda, hatto, kundalik hayotda adabiy tilning me'yoriy shakllaridan birini qo'llashga majbur bo'ladi. Agar bunday kod o'zgarishi yuz bermasa, ularni ish joyidagi hamkasblari yoki boshqaruv organlarining vakillari tushunishmaydi va ular o'zlarining maqsadi (arizasi yoki shikoyatini ko'rib chiqish)ga erisha olmaydilar, ya'ni kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar.

Muloqot mavzusi ham kodlarning tanlanishiga ta'sir qiladi. Masalan, bir tilshunos lingvistik fanlar doirasida ma'ruza qilganda yoki tilshunoslar bilan munozara qilganda lingvistik terminlardan tashkil topgan ilmiy uslubdan foydalanadi. Lekin mavzu kundalik maishiy hayotga o'tganda, boshqa subkod o'zgarishi yuz beradi.

Insonning kodlarni almashtirish qobiliyati uning tilni (yoki til subkodlarni) yuqori darajada bilishini, uning muayyan kommunikativlik va madaniyat darajasini ko'rsatadi. Kodlarning aralashuvi mexanizmi kishilar orasidagi o'zaro tushunish va nutqiy muloqot jarayonining qulayligini ta'minlaydi. Aksincha, individning muloqot sharoitiga ko'ra o'z nutqini taqsimlay olmasligi anomaliya sifatida qabul qilinishga va kommunikativ to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin.

Kodlar aralashuvining ikki turi mavjud:



1. Kodlarning vaziyatli aralashuvi. Bunda til yoki tilning mavjud shakllarini tanlash rasmiy va norasmiy vaziyatlarga bog'liq bo'ladi.

2. Kodlarning metaforik aralashuvi. Ijtimoiy vaziyatning to'liq o'zgarishini emas, balki uning unsurlaridan birining o'zgarishi (mavzu o'zgarishi, muloqotchilar o'rtasidagi ijtimoiy-kommunikativ to'siqlarni bartaraf qilish yo'nalishining o'zgarishi)ni taqozo qiladi.

Aytilganlar bilan birga, bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tish noverbal vositalar bilan verbal vositalarning aralashuvida ham kuzatiladi. Binobarin, salomlashish chog'ida yaponlar uchun ta'zim majburiy hisoblansa, amerikaliklar ko'p hollarda verbal salomlashish bilan cheklanadi. Masalan, AQSHda yashayotgan yaponiyalik ma'lum bir muddat inglizcha *How do you do?* ifodasini yaponcha ta'zim bilan birga qo'llashi mumkin. Bunda yaponiyalik o'zining noverbal muomala tizimidagi unsurni to'laligicha amerikacha konseptga ko'chirganini ko'rish mumkin.

Bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tishning badiiy adabiyotdagi namunasi sifatida L.N.Tolstoyning "Urush va tinchlik" romanidagi rus zodagonlari nutqida rus tilining fransuz tiliga (yoki aksincha) almashtirilishini ko'rsatish mumkin.

Xullas, ***bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tish*** deganda, so'zlashuvchining bir tildan (yoki til subkodlaridan) boshqa bir tilga to'liq o'tishi tushuniladi.

11. 4. Interferensiya

Ikki tilni biladigan shaxs (bilingv)larning nutqida u qo'llaydigan tillarning o'zaro ta'siri kuzatiladi. Bu o'zaro ta'sir nutqda, tilda, shuningdek, har qanday til osti tizimlarida: fonetikada, grammatikada, leksikada namoyon bo'lishi mumkin.

Interferensiya keng ma'noda ikki tillilik sharoitida til sistemalarining o'zaro ta'sirini; ikki tilli shaxslar nutqida u yoki bu til me'yorining buzilishini ifodalaydi. Tor ma'noda ikki tilli shaxsning og'zaki va yozma nutqida ona tili ta'sirida ikkinchi til me'yorlarining buzilishini anglatadi¹.

Umuman, ikki tilni biladigan shaxsning bir tilining ikkinchi tilga ko'rsatgan har qanday ta'siri va bu ta'sirning natijasi **interferensiya** deyiladi. Odatda interferensiya deganda, faqat nazorat qilib bo'lmaydigan jarayonlar tushuniladi, ongli ravishdagi o'zlashmalar unga taalluqli bo'lmaydi.

Interferensiyaning yo'nalishlari turlicha bo'lishi mumkin. Ona tilining ikkinchi tilga interferensiyasi ko'proq kuzatiladi. Biroq ikkinchi til asosiy tilga aylanganida u ham ona tiliga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, o'zbek bolasi ruslar yashovchi hududga ko'chib boradi va rus maktabida o'qiy boshlaydi. Astasekin rus tili uning ona tilisiga ta'sir qila boshlaydi va u ko'proq rus tilida gapira boshlaydi. Masalan, uning nutqida "*Mam, ujin qilamizmi?*", "*Ponedelnik kuni fizkultura bor*". Yoki ko'p yillar davomida chet elda muhojir bo'lib yashagan o'zbeklarning nutqida ham bu ta'sirni ko'rish mumkin. Masalan, "*Hammasi okey bo'ladi*", "*O, yes! Zo'r bo'ldi*".

Rossiyadagi bozorlardan biridagi savdogarlar nutqida "*Такой прайс только за лейбл что ли?*" tarzidagi inglizcha leksik interferensiya asosida qurilgan ruscha jumlaning kuzatish mumkin. Mazkur matnda ruscha *цена* leksemasining o'rniga inglizcha *price* so'zi individual qo'llanilgan bo'lib, unda yosh (yosh-molodoy), mavzu (tijorat), holat (bozor) va maqom ("chelnok") singari ijtimoiy omillar ishtirok etgan.

¹ Словарь социолингвистических терминов. –М., 2006. –С. 82.

Interferensiya lisoniy aloqalar nazariyasida markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. U til darajasiga muvofiq ravishda quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

Interferensiya ko‘rinishlari			
fonetik interferensiya	grammatik interferensiya	sintaktik interferensiya	leksik-semantik interferensiya

Fonetik interferensiya ikki tilli shaxs nutqida aloqadagi tillarning fonetik tizimidagi o‘zaro ta’sir hodisasi bo‘lib, talaffuzdagi aksentda namoyon bo‘ladi. Masalan, koreyslarning o‘zbekcha nutqida <r> va <l> undoshlarining farqlanmasligi (karavot → kalavot, marta → malta), <z> undoshining <j> (Zuhra → Juhra, zo‘r → jo‘r, zirak → jirak), <f> undoshining <p> deb talaffuz qilinishi (hafta → hapta, fasl → pasl) yoki ruslarning o‘zbekcha nutqida <q> ning <k> (qiz → kiz, qara → kara), <g‘> ning <g> (tog‘ → tog, og‘rimoq → ogrimoq) deb talaffuz h.k.

Grammatik interferensiya – ikki tilli shaxs nutqida ona tili grammatik tuzilishining ta’siri. Bu kelishiklarni qorishtirish (uyga boradi → uyda boradi), fe’l zamonlarini nomuvofiq qo‘llash (ertaga keldi), son+ot+-lar qolipini qo‘llash (ikki kishilar) va h.k.

Sintaktik interferensiya – ikki tilli shaxs nutqida ona tili sintaksisi ta’sirida sintaktik qoidalarining buzilishi (Keldi u biznikiga kecha).

Leksik-semantik interferensiya – aloqadagi tillarning leksik-semantik darajadagi o‘zaro ta’siri, so‘zdagi ma’nolar farqliligi natijasida ikki tilli shaxs nutqida me’yorlarning buzilishi; so‘zlarning bog‘lanishidagi buzilish; parafaziya (nutqda biron so‘zni boshqa so‘z o‘rnida noto‘g‘ri qo‘llash) va h.k. Masalan, *dugonam uylandi; og‘aynim turmushga chiqdi.*

Xullas, interferensiya individlarga xos hodisa. Lekin ommaviy ikki tillilik holatlarida bir turdagi interferensiyalar jarayonlar ko‘pchilikning nutqini tavsiflashi ham mumkin. Masalan, sobiq Sho‘rolar davrida rus tili ommaviy ravishda turli til egalarining nutqiga ta’sir ko‘rsatgan.

Nazorat uchun savollar

1. Diskurs nima?
2. Diskurs shaxsning qaysi xususiyatlari bilan uzviy aloqador bo‘ladi?

3. Evfemizm qanday hodisa?
4. Kodlar aralashuvi nima?
5. Kim “kodlar aralashuvi” terminiga ilk e’tiborini qaratgan?
6. Ijtimoiy-kommunikativ tizimni tarkib toptiruvchi kodlar va subkodlar nimaga ko‘ra taqsimlanadi?
7. Kommunikatsiya sharoitidagi qanday o‘zgarishlar so‘zlovchining bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tishga majbur qiladi?
8. Interferensiya qanday hodisa?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Diskursning milliy-madaniy xususiyatlarini izohlang.
2. Uzoq Sharq madaniyatida “inkor” yoki “yo‘q” tushunchalarini ifodalanishini tushuntiring.
3. “Turli lingvomadaniyatlarda evfemizmning ifodalanishi” mavzusida referat tayyorlang.
4. Turli madaniyatlarda raqamlarning qo‘llanishidagi farqlarni ko‘rsating.
5. Kodlar aralashuvini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlang.

Adabiyotlar

1. Jakobson R. Linguistics in its relation to other sciences //Main Trends of Research in the Social and Human Sciences. - Paris, 1970.
2. Meyerhoff Miriam. Introducing Sociolinguistics. –New York: Routledge, 2006. -320 p.
3. Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. –P. 66-70.
4. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. –М.: Флинта, 2012. -376 с.
5. Беликов В.И., Крысин Л.П. Социолингвистика. Учебник для вузов –М.: Рос. гос. гуманитар. ун-т, 2001. -315 с.
6. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. –М.: «Гнозис», 2002. -285 с.
7. Словарь социолингвистических терминов. Отв. ред.: В.Ю. Михальченко – М., 2006.
8. Усманова Ш. Нуткий мулоқотда кодлар ўзгариши ва интерференциянинг намоён бўлиши // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. Илмий тўплам. № 6.–Тошкент: ТошДШИ, 2015. –Б. 9-13.

IV BOB. INSON MADANIYATLAR CHORRAHASIDA

12-MA'RUZA MADANIYATGA MOSLASHISH

Reja:

1. Madaniyatga moslashish boshqa madaniyatni o'zlashtirish sifatida
2. Madaniyatga moslashishning asosiy shakllari

Tayanch so'z va iboralar: madaniyatga moslashish, madaniyatlar o'zaro ta'siri, madaniyatlar o'zaro aloqasi, o'zga madaniyat, ixtiyoriy ko'chish, majburiy ko'chish, ommaviy ko'chish, muhojir, madaniy muhit, madaniyatlar aralashuvi, madaniy bir xillik, "madaniyatlar qozoni", madaniy hudud, "hukmron" madaniyat, "tobe| madaniyat, assimilyatsiya, separatsiya, marginalizatsiya, integratsiya, psixologik moslashish, ijtimoiy-siyosiy moslashish.

12. 1. Madaniyatga moslashish boshqa madaniyatni o'zlashtirish sifatida

Madaniyatga moslashish – madaniyatlarning o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, u biron bir xalq yoki biron bir xalq vakili tomonidan boshqa xalq madaniyatining to'liq yoki qisman qabul qilinishini ifodalaydi.

Madaniyatga moslashish turli ijtimoiy-madaniy tizimlar bilan bevosita aloqada bo'lish va o'zaro ta'sir natijasida yuz beradigan moddiy madaniyat, urf-odatlar hamda inonchlarning o'zgarish jarayonidir. "Madaniyatga moslashish" terminidan mazkur jarayonning o'zini hamda uning natijalarini ifodalash uchun foydalaniladi. "Madaniyatga moslashish"ga yaqin ma'noda "madaniy aloqa" va "transmadaniylashish" terminlari ham qo'llaniladi¹.

"Madaniyatga moslashish" tushunchasi ilk bor XIX asrning oxirida Amerika antropologiyasida Shimoliy Amerikalik hindu qabilalaridagi madaniy o'zgarish jarayonlari bilan bog'liq tadqiqot (F.Boas, U.Xolms, U.Mak-Ji, R.Loui)da ilmiy muomalaga kiritilgan. Ushbu tushuncha dastlab tor ma'noda qo'llanilgan va oq tanli amerikaliklar madaniyati bilan aloqa bo'lish natijasida hindular qabilasida yuz bergan assimilyatsiya (bir xil bo'lish, o'zlashtirish) jarayonlarini ifodalagan.

1930-yillarga kelib Amerika antropologiyasida mazkur terminning qo'llanilishi mustahkamlanib, madaniyatga moslashish jarayonlari empirik tadqiqotlar va nazariy tahlillarning asosiy mavzularidan biriga aylanadi. M.Herskovits, M.Mid, R.Redfield, M.Xanter, L.Spayer va R.Linton kabi olimlarning tadqiqotlarida madaniyatga moslashish bilan bog'liq masalalar yetakchi o'rin egallaydi. Madaniy antropologlar R.Redfield, R. Linton va

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. -5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 320.

M.Herskovitslar madaniyatga moslashishni, dastavval, turli madaniyatlarni namoyon etuvchi guruhlarining uzoq davom etgan aloqalari natijasi sifatida izohlashdi¹. Mazkur jarayonlar o'z-o'zidan yuz beradi va bunda madaniyatlar aralashuvi madaniy hamda etnik bir xillik holatiga erishadi, deb hisoblandi. Tabiiyki, rivojlangan madaniyatga nisbatan rivojlanishi past bo'lgan madaniyat ko'proq o'zgarishga uchraydi. Madaniyatga moslashish natijasi o'zaro munosabatdagi guruh a'zolarining soniga bog'landi. Aynan ana shu nazariya doirasida Amerika "madaniyatlar qozoni" konsepsiyasi vujudga keldi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, Amerikaga kelgan turli xalqlarning madaniyatlari bu "qozon"da qaynab, aralashadi va natijada yangi umumiy Amerika madaniyati shakllanadi.

1950-yillargacha madaniyatga moslashish G'arb tamadduning ta'sirida an'anaviy madaniyatlar o'zgarishiga oid tadqiqotlar bilan cheklanadi. 1950-60-yillardan boshlab tadqiqotlarning istiqboli sezilarli darajada kengayadi: G'arbga oid bo'lmagan madaniyatlarning o'zaro munosabati va o'zaro ta'siri, shuningdek, alohida madaniy hududlarga xos bo'lgan ispanlashish, yaponlashish, xitoylashish va h.k. jarayonlarga bag'ishlangan tadqiqotlar (J.Foster, J.Felan va b.)ning soni ortadi; madaniyatga moslashishning tadqiqot metodlari murakkab jamiyatlardagi urbanizatsiya (shaharlashtirish) jarayonlarini o'rganishga tatbiq etiladi (R.Bilz). Ilgari asosiy e'tibor "hukmron" madaniyatning "tobe| madaniyatga ta'siriga qaratilgan bo'lsa, endilikda buning aksi bo'lgan ta'sir tadqiqotlarning dolzarb masalasiga aylandi.


Madaniyatga moslashish masalasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar, ayniqsa, XX asrning oxirlarida gurkirab rivojlandi. Buni so'nggi yillarda dunyo aholisi orasida tobora keng tarqalib borayotgan ommaviy ko'chishlar bilan bog'lash mumkin. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyoda 100 milliondan ortiq aholi o'z mamlakatidan tashqarida yashaydi².

Madaniy aloqalar xalqlarning o'zaro muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatlarning o'zaro ta'sirida ular bir-birini to'ldirish bilan birga, murakkab munosabatlarga ham kirishadi. O'zaro ta'sir jarayonida har bir madaniyatning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi, o'zga madaniyatning yaxshi, ijobiy tomonlari o'zlashtiriladi. Mazkur madaniyat vakillari o'zga madaniyat o'zlashmalariga bog'liq bo'lgan o'zgarishlarga moslashishga va ulardan o'z hayotlarida foydalanishga majbur bo'lishadi.

Madaniyatlararo aloqaga kirishuvchi guruhlar va shaxslar uch asosiy omilga ko'ra ajratiladi:

¹ Redfield R., Linton R., Herskovits M.H. Memorandum on the study of acculturation. // American Anthropologist. № 38. 1936.–P. 149-152.


² Берри Д.У. Аккультурация и психологическая адаптация. –М: Наука, 2002. –296 с.



Yangi madaniy sharoitlarga moslashish zarurati bilan muayyan muddatga xorijga chiqqan va o‘zga madaniyat bilan munosabatga kirishgan ishbilarmonlar, olimlar; chet ellarda ko‘p yillar yashagan talabalar; xorijiy shirkat vakillari; missionerlar; davlat rahbarlari, diplomatlar; boshqa davlatga doimiy yashash uchun ixtiyoriy yoki majburiy ravishda ko‘chib kelgan muhojirlar, qochoqlar va h.k. yangi jamiyat va madaniyatga shunchaki moslashishi emas, balki uning to‘laqonli a‘zosi bo‘lishi lozim. Odatda boshqa mamlakatga ko‘chishga va u yerdagi hayot sharoitiga ruhiy jihatdan tayyor bo‘lmagan qochoqlarga nisbatan ko‘chishni ixtiyor qilgan muhojirlar bunga yaxshi tayyorlangan bo‘ladi. Bunday murakkab jarayon oqibatida kishi ko‘proq yoki ozroq darajada yangi madaniy muhitga moslashishga erishadi. Bularning barchasi madaniyatga moslashish jarayoni hisoblanadi¹.

12. 2. Madaniyatga moslashishning asosiy shakllari

Madaniyatga moslashish jarayonida har bir inson bir vaqtning o‘zida ikki asosiy masalani – o‘zining madaniy xususiyatlarini saqlash hamda o‘zga madaniyatga aralashishni hal etishi lozim bo‘ladi. Mazkur masalalar yechimi uchun madaniyatga moslashishning to‘rtta asosiy strategiyasi beriladi:



Assimilyatsiya – madaniyatga moslashishning varianti bo‘lib, bunda kishi o‘z madaniyatining qadriyat va me‘yorlaridan voz kechib, o‘zga madaniyatning qadriyat va me‘yorlarini to‘laligicha qabul qiladi.

¹ Берри Д.У. Аккультурация и психологическая адаптация. –М: Наука, 2002. -296 с.

Separatsiya – o‘z madaniyatining xususiyatlarini saqlagani holda, o‘zga madaniyatni rad etishi. Bunday holatlarda hukmron bo‘lmagan guruhlarining vakillari hukmron madaniyatdan u yoki bu darjada uzoqroq turishni ma’qul ko‘rishadi.

Marginalizatsiya – bir tarafdin o‘z madaniyati xususiyatlarini yo‘qotish va boshqa tarafdin ko‘pchilik, ya’ni o‘zga madaniyat xususiyatlarining mavjud emasligini anglatadi. Bunday vaziyat o‘ziga xos xususiyatlarni saqlab qolish imkoniyati bo‘lmagan (odatda qandaydir tashqi ta’sirlar sababli) va yangi xususiyatlarni o‘zlashtirishga qiziqishning yo‘qligi tufayli yuzaga chiqadi.

Integratsiya – ham eski, ham yangi madaniyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.

Olimlar yaqin kunlargacha madaniyatga moslashishning eng yaxshi strategiyasi hokim madaniyat bilan to‘liq moslashadigan assimilyatsiya, deb hisoblashgan. Hozirgi kunda madaniyatga moslashishning maqsadi bimaganiyatli yoki multimaganiyatli shaxsni shakllantiruvchi madaniyatlar integratsiyasiga erishish sanaladi.

Ilgari integrallashayotgan guruhlarining etnik xususiyatlarini saqlashi madaniyatga moslashishning murakkab jarayoni sifatida baholangan bo‘lsa, bugungi kunda u qiyin jarayonni yumshatadigan ijobiy hodisa sifatida baholanmoqda. Bu ayniqsa, qochoq muhojirlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda hokim bo‘lmagan guruh a’zolari madaniyatga moslashish strategiyasini tanlashda erkin hisoblanadi. Biroq har doim ham bunday bo‘lavermaydi. Hokim madaniyat vakillari ularni madaniyatga moslashishning muayyan shaklini tanlashini cheklashi yoki majburlashi mumkin. Demak, hokim bo‘lmagan guruhlarining tanlovi separatsiya bo‘lishi mumkin. Biroq separatsiya majburuy xarakter kasb etgan bo‘lsa, ya’ni hukmronlik qilayotgan ko‘pchilikning kamsitishi natijasida yuzaga chiqqan bo‘lsa, u segregatsiyaga aylanadi. Agar hokim bo‘lmagan guruh assimilyatsiyani tanlagan bo‘lsa, bunday holatda ular madaniyatlarni “eritadigan qozon” g‘oyasini qabul qilishga tayyor bo‘ladi. Agarda ularni bunga majbur qilishgan bo‘lsa, u holda “qozon” “bosim o‘tkazadigan iskanja”ga aylanadi. Juda kam holatlarda ozchilik guruhi marginalizatsiyani tanlaydi. Ko‘pincha assimilyatsiya segregatsiya bilan birga zo‘ravonlik bilan amalga oshirilganda kishilar marginal strategiyani tanlashga majbur bo‘lishadi¹.

Integratsiya ozchilik tomonidan ham, ko‘pchilik tomonidan ham faqat ixtiyoriy ravishda bo‘lishi mumkin. Binobarin, mazkur guruhlarining bir-biriga moslashuvini, har qaysi guruh huquqlarini o‘zaro tan olinishini va farqli madaniyatga ega bo‘lgan turli xalqlar manfaatini ko‘zda tutadi.

Madaniy moslashish natijalari. Madaniy moslashishning muhim natijasi va maqsadi o‘zga madaniyat hayotiga uzoq muddatli moslashish hisoblanadi. U o‘rab olgan muhit talablariga javob beradigan individlar yoki guruhlar ongidagi barqaror o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi.

Moslashishga odatda ikki: psixologik va ijtimoiy-siyosiy jihatdan qaraladi. Psixologik moslashish yangi madaniyat doirasida ruhiy qoniqishga erishishni aks

¹ Берри Д.У. Аккультурация и психологическая адаптация. –М: Наука, 2002. -296 с.

ettiradi. Bu yaxshi kayfiyat, ruhiy sog'lomlik, shuningdek, shaxsiy yoki madaniy o'ziga xoslikning aniq shakllanganligi bilan ifodalanadi.

Ijtimoiy-siyosiy moslashish yangi madaniyat va jamiyatda erkin yo'nala olishni, kundalik hayotda, oilada, ish joyida, maktabda va h.k.dagi muammolarni hal qilishni nazarda tutadi. Chunonchi, muvaffaqiyatli moslashishning ko'rsatkichlari biri o'z kasbiga mos ish bilan ta'minlanganlik, undan qoniqish hosil qilish, yangi madaniyatdagi farovon turmush tarzi sanaladi.

Umuman, madaniy moslashish natijalari bir-biri bilan chambarchas aloqadagi ham psixologik, ham ijtimoiy-siyosiy omillarga bog'liq bo'ladi. Psixologik moslashish shaxsning xarakteriga, uning hayotidagi hodisalarga, shuningdek, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bog'liq bo'lsa, ijtimoiy-siyosiy moslashish madaniyatni bilish, kirishimli bo'lish, guruhlar bilan o'zaro munosabatlar o'rnatish olish darajasi bilan belgilanadi. Moslashishning bu har ikki jihati kishining integratsiya strategiyasining afzalligi va muvaffaqiyatiga bo'lgan qat'iy ishonchiga bog'liq bo'ladi.

Madaniyatga moslashish kommunikatsiya sifatida. Madaniyatga moslashishning asosida kommunikativ jarayon yotadi. Xuddi shunga o'xshash mahalliy aholi ham bir-biri bilan o'zaro munosabatlar orqali o'zining madaniy xususiyatlarini egallab boradi, o'z navbatida boshqa joydan kelganlar ham yangi madaniy sharoitlar bilan tanishadi va muloqot orqali yangi malakalarga ega bo'lishadi. Shuning uchun madaniyatga moslashish jarayoniga yangi madaniyatda kommunikativ qobiliyatlarni egallash sifatida qarash mumkin. Kishilar muntazam muloqot orqali yangi sharoit uchun kerakli bo'lgan narsalarni o'zlashtirib boradilar.

Muloqot kishining o'rab olgan atrof-muhit bilan o'zaro munosabati ko'rsatadi. Zero, bu jarayonda faol qatnashishga intilayotgan har bir individga o'ziga xos ochiq tizim sifatida qarash mumkin. Mazkur o'zaro munosabatlar bir-biri bilan chambarchas bog'langan ikki jarayon – shaxsiy va ijtimoiy muloqotdan tarkib topadi. Bu muloqot chog'ida xabarlarini qabul qilish, qayta ishlashning yuz berishi, insonni o'rab olgan obyektlar va kishilarga qaratilgan harakatlarining amalga oshishi bilan bog'liq bo'ladi. Mazkur jarayonda shaxs qabul qilingan xabardan foydalangan holda, uni o'rab olgan muhitga moslashadi.

Nazorat uchun savollar

1. Madaniyatga moslashish qanday jarayon?
2. "Madaniyatga moslashish"ga yaqin ma'noda yana qanday terminlar qo'llaniladi?
3. "Madaniyatga moslashish" tushunchasi ilk bor qaysi tadqiqotda ilmiy muomalaga kiritilgan?
4. Qaysi olimlarning tadqiqotlarida madaniyatga moslashish bilan bog'liq masalalar yetakchi o'rin egallaydi?
5. 1950-60-yillardagi madaniyatga moslashish haqidagi tadqiqotlar qaysi jihatlari bilan oldingi tadqiqotlardan farq qiladi?

6. Madaniyatlararo aloqaga kirishuvchi guruhlar va shaxslar qaysi omillarga ko‘ra ajratiladi?
7. Assimilyatsiya madaniyatga moslashishning qanday strategiyasi?
8. Separatsiya madaniyatga moslashishning qanday strategiyasi?
9. Marginalizatsiya madaniyatga moslashishning qanday strategiyasi?
10. Integratsiya madaniyatga moslashishning qanday strategiyasi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Madaniy moslashish natijalarini izohlang.
2. “Madaniyatga moslashish kommunikatsiya sifatida” mavzusida taqdimot tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
2. Redfield R., Linton R., Herskovits M.H. Memorandum on the study of acculturation. // American Anthropologist. № 38. 1936.–P. 149-152.
3. Берри Д.У. Аккультурация и психологическая адаптация. –М: Наука, 2002. -296 с.

13-MA'RUZA

MADANIYATLARARO TO'SIQLAR VA TO'QNASHUVLAR

Reja:

1. Madaniyatlararo to'siqlar va ularning turlari
2. Madaniyatlararo to'qnashuvlar va ularning yuzaga kelish sabablari

Tayanch so'z va iboralar: madaniyatlararo to'siqlar, madaniyatlararo to'qnashuvlar, madaniyatlararo o'zaro munosabatlar, kommunikativ to'siqlar, lisoniy to'siqlar, lisoniy salohiyat, kommunikativ salohiyat, noverbal to'siqlar, stereotip to'siqlar, qadriyat farqlaridagi to'siqlar, til bilimi, shaxslararo to'qnashuvlar, ijtimoiy to'qnashuvlar, milliy to'qnashuvlar, xalqaro miqyosdagi to'qnashuvlar.

13. 1. Madaniyatlararo to'siqlar va ularning turlari

Madaniyatlararo aloqalar hamkorlarning dunyoqarashi, odob-axloq me'yorlari, qadriyatlari va h.k.ning mos kelmasligi kabi ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi.

Turli madaniyat vakillari bilan muloqot jarayonida yuzaga chiqadigan va o'zaro munosabatlar samaradorligini pasaytiradigan qiyinchiliklar va murakkabliklar to'siqlar, deb nomlanadi. Madaniyatlararo o'zaro munosabatlar jarayonida yuzaga chiqadigan kommunikativ to'siqlarni an'anaviy tarzda quyidagi turlarga ajratiladi¹:

Madaniyatlararo muloqotdagi lisoniy to'siqlar. Turli madaniyat vakillari ijtimoiy borliqni til konstruksiyalari, kommunikatsiyaning og'zaki va yozma shakllarida o'z aksini topgan ramziy tizimlar vositasida qabul qilishning turfa modellaridan foydalanadilar.

Madaniyatlararo muloqot muhitida lisoniy salohiyat hamkorlar orasida aloqa vositasi sifatida foydalaniladigan til qoidalarining mavhum tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Lisoniy salohiyat muloqot jarayonidagi zaruriy shartlardan biri hisoblanishiga qaramay, u o'zaro ta'sir samaradorligi uchun yetarli bo'lmaydi. Binobarin, hamkorlar kommunikativ salohiyatga ega bo'lishi – aniq ijtimoiy vaziyatlarda qo'llaniladigan qoidalarni bilishi, shuningdek, kognitiv salohiyatga – muloqot tilida so'z yasash va fikrlarni jamlash (nutq hosil qilish) malakasiga ham ega bo'lishi lozim. Turli madaniyat sohiblari bilan muloqot chog'ida ko'pincha lisoniy xarakterdagi muammolar birinchi planga chiqadi.

Stefaniya ismli talaba Ispaniyada o'qiyatgon paytda yuz bergan vaziyatni tasvirlab beradi. U mezbon oiladagi opalari bilan birga yopiq hovuzga boradi. Arizonadan kelgan Stefaniya bunday sovuq suvda cho'milishga odatlanmagan edi. Shuning uchun u quyoshda toblanish uchun tashqariga chiqadi. Uning "opalari"

¹ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 12-14.

undan nega ular bilan cho‘milmaganini so‘rashadi. Stefaniya shunday tushuntiradi¹:

Ayni damda men ular bilan birga bo‘lishim kerak, deb o‘yladim... Men ularga holatimni qanday qilib yetarli darajada tushuntirishni bilmas edim... Harakat qildim, biroq buni yaxshi natija berishiga ishonmadim... Shuning uchun kechirim so‘rab qoya qoldim... To‘qnashuvga umuman e‘tibor bermadim. Bu muammoni hal qila olardim, lekin holatimni batafsil tushuntirish uchun lisoniy qobiliyatimning yetarli emasligi anglab yetdim... Bu muammo men aytishni xohlaganlarimni ifodalab berolmaganim uchun yuzaga kelgan edi.

Kishilar tilni yaxshi bilmagan holatlarda ularning to‘qnashuvlari bartaraf etishi juda qiyin kechadi. Bunday vaziyatlarda sukut ham yaxshi natija berishi mumkin. .

Noverbal muloqotdagi to‘siqlar. Madaniyatlararo muloqot jarayonida noverbal muomala muhim o‘rin tutadi. Biqor mazkur muloqotda qo‘llanilgan ramzlar o‘zaro aloqa ishtirokchilari uchun turli ma‘no kasb etishi mumkin. Bunday nomuvofiqlik o‘zaro aloqa samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, aksariyat madaniyat vakillari bironi chiqirish uchun *qo‘lini oldinga uzatib, kaftini yuqoriga qaratib to‘rtta barmoq yoki ko‘rsatkich barmoq* bilan “bu yerga kel” deb ishora qiladilar. Uzoq Sharq madaniyati mazkur qo‘l harakati itlarni chaqirish uchun qo‘llaniladi. Kishilarga nisbatan esa *qo‘lini oldinga uzatib, kaftini pastga qaratib to‘rtta barmoqni silkitish* harakatidan foydalaniladi.

Turfa madaniyat vakillarining noverbal muomalasidagi sezilarli darajadagi farqlar madaniyatlararo o‘zaro munosabatlarda har doim ham jiddiy to‘siq sifatida qabul qilinmaydi. Ko‘pincha nomuvofiqlik, dastlab kishilarning ajablanishi va bezovtalanishiga sabab bo‘ladi, ularga g‘ayrioddiy va g‘alati bo‘lib tuyuladi. Biroq ma‘lum vaqtdan so‘ng noodatiy vaziyatga ko‘nikiladi va hamkordan o‘zlashtirilgan ramzlardan foydalanishga kirishiladi.

Stereotiplar madaniyatlararo muloqotdagi to‘siq sifatida. Turli madaniyat vakillarining o‘ziga xos milliy va etnik tafakkuri ko‘pincha madaniyatlararo o‘zaro munosabatlarda to‘siq sifatida namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda ongning quyidagi jihatlari alohida qiziqishni yuzaga chiqaradi:

- etnosentrizmga bo‘lgan moyillik – o‘zga madaniyat sohibini o‘z madaniyati standartlaridan kelib chiqqan holda salbiy baholash;

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 429.

- o'z madaniyati va boshqa madaniyat vakillarining etnik ongidagi yuzaki obrazlarning shakllanishi, ya'ni stereotiplashishi;
- madaniyatlararo aloqalar jarayoniga yolg'on tasavvurlar, shu jumladan, o'tmishdagi salbiy tajribalarni va h.k. daxldor qilish.

Mazkur hodisalar madaniyatlararo o'zaro munosabatlar jarayonining hamkorlar shaxsi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmagan dastlabki bosqichlarda kuchli to'siqlar sifatida ko'zga tashlandi.

Qadriyat farqlari madaniyatlararo muloqotdagi to'siq sifatida. Madaniyatlararo o'zaro aloqalar qatnashchilarining qadriyatlarga bo'lgan turli munosabatlari qadriyatlar tizimidagi farqlarga bog'liq bo'lib, u o'zaro muloqot samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Turli madaniyat vakillari tomonidan qo'llaniladigan kognitiv tuzilmalardagi farqlar o'zaro muloqot samaradorligini pasaytiruvchi asosiy to'siq hisoblanadi. Dunyoni qabul qilish modellaridagi eng katta farqlar o'zga dunyoqarash va tasavvurlar bilan to'qnashganda yuzaga chiqadi.

13. 2. Madaniyatlararo to'qnashuvlar va ularning yuzaga kelish sabablari

Hozirgi kunda madaniyatlararo to'qnashuvlarni tushunish har qachongidan ham dolzarblik kasb etadi. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, to'qnashuvlar muqarrar va ulardan qochishning imkoni yo'q. To'qnashuvlar dunyoning hamma joyida, har doim va turli darajalarda yuz beradi¹.

To'qnashuvlarning yuzaga kelishi turli sabablar bilan izohlanadi. Xususan, "kishilar orasidagi dushmanlik va noto'g'ri tushunchaga ega bo'lish insonning tabiati va qonida bo'lgan azaliy xususiyat", degan qarashlar ham mavjud. Tadqiqotlar ushbu gipotezani rad etadi va xorijliklarga dushmanlik ham, biron bir xalqqa qarshi bo'lgan noto'g'ri tushuncha ham barchaga taalluqli emasligini isbotlaydi. To'qnashuvlar ijtimoiy xarakter sabablari ta'sirida yuzaga chiqadi. Mazkur xulosa xalqaro xarakterga ega bo'lgan to'qnashuvlarga ham taalluqlidir.

Madaniyatlararo to'qnashuvlar (umuman to'qnashuvlar) yuzaga kelish sabablarining ko'lami nihoyatda keng: to'qnashuv asosida nafaqat til bilimining yetarli emasligi hamda suhbatdoshini tushunmaslik, balki kommunikatsiya qatnashchilarining o'zi ham aniq anglab yetmagan chuqurroq sabablar yotadi.

To'qnashuvlarga kommunikatsiya jarayonining faqat buzilish, salbiy tomoni sifatida qarash mumkin emas. Binobarin, ular o'ziga xos ijobiy tomonga ega bo'lishini ham unutmazlik lozim. Ijobiy to'qnashuv nazariyasiga ko'ra, to'qnashuvlar kundalik hayotning ajralmas qismi sifatida tushuniladi va ularning, albatta, buzg'unchi xarakter kasb etishi shart emas².

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. -P. 426.

² Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. -С. 14-15.

To‘qnashuv – har qanday qarshilik ko‘rsatish turi yoki manfaatlarning mos kelmasligi.

Madaniyatlararo to‘qnashuvlar – ikki yoki undan ortiq madaniy guruhlar orasidagi to‘qnashuvlar.

To‘qnashuvlar shaxslararo, ijtimoiy, milliy hamda xalqaro miqyosda bo‘lishi mumkin. Shaxslararo to‘qnashuvlar do‘stlar yoki sevishtanlar, oila a‘zolari yoki hamkasblar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarida yuz berishi mumkin. Masalan, kimdir yaqin do‘stiga nisbatan bo‘lgan romantik sevgisiga sevgi bilan javob ololmayapti. Bu holatda tomonlarning his-tuyg‘ularidagi farq, nomutanosiblik to‘qnashuvga sabab bo‘ladi. Shaxslararo to‘qnashuvlarga o‘jarlik, qaysarlik, shaxsiy ehtiyojlar, moslashishga tayyorgarlik darajasining past bo‘lishi, g‘azablanish, gapga ko‘nmaslik, mansabparastlik, kuchli ishonchsizlik va h.k. sabab bo‘lishi mumkin. To‘qnashuvlarning mazkur sabablari shaxslarning o‘ziga xos fe‘l-atvoriga bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy to‘qnashuvlarga kuchli raqobat, qobiliyatlarni yetarli darajada tan olinmasligi, murosasozlikning yetishmasligi, maqsadlarning zidligi va o‘zaro manfaatlarning mos kelmasligi sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish sanoatni rivojlantirishga nisbatan muhimroq degan qarashlardagi madaniy farqlar atrof-muhitni muhofaza qiluvchilar bilan biznes manfaatdorlari orasidagi nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

To‘qnashuvlarning birinchi navbatda bir-biriga o‘zaro bog‘liq aloqada bo‘lgan kishilar o‘rtasida yuzaga keladi. Mazkur munosabatlar qanchalik yaqin bo‘lsa, to‘qnashuvlarning yuzaga chiqish ehtimoli shunchalik muqarrar bo‘ladi. Zero, boshqa kishi bilan aloqa darajasining yaqinligi u bilan bog‘liq munosabatlarda to‘qnashuvli vaziyatlarning sodir bo‘lish imkoniyatini yuksaltiradi. Bu ham rasmiy, ham norasmiy munosabatlarga tegishlidir¹.

Xalqaro miqyosdagi to‘qnashuvlarga nafaqat madaniy farqlar, balki hokimiyat yoki maqom, ijtimoiy tabaqalanish masalalari hamda avlodlar orasidagi to‘qnashuvlar sabab bo‘lishi mumkin.

Xalqaro miqyosdagi to‘qnashuvlarga misol tariqasida Nigeriyadagi musulmonlar va nasroniylar o‘rtasida muntazam davom etayotgan kurashni keltirish mumkin. 2004-yilning fevral tonggida Yelva shaharchasidagi cherkovda ibodat qilayotgan 70ga yaqin kishi qo‘shni masjidning radiokarnayidan “Oллоhu Akbar, hamma jihodga!” degan da‘vatni va o‘q ovozlari eshitadi. Ibodat qilayotganlar darhol tashqariga qochib chiqishadi va harbiy kiyimdagi kishilarni ko‘radilar. Harbiy kiyimdagi kishilar ibodat qilayotganlarga hech qanday xavf-xatar tahdid solmayotganini aytib, ularni cherkovga qaytarib kiritib yuborishadi. Keyin harbiy kiyimdagi kishilar (hukumat harbiylari bo‘lmagan) cherkovni o‘qqa tutishadi va qochishga uringanlarning barchasini o‘ldirishadi. Ikki oydan so‘ng nasroniylar Yelva shahrini har tomondan o‘rab olishadi va unga shiddatli hujum

¹ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 14-15.

uyushtirishadi. “Human Rights Watch” ma’lumotlariga ko‘ra, ikki kun davom etgan hujumda 660 nafar musulmon o‘ldirilgan. 12 ta masjid va 300 ta xonadonning kuli ko‘kka sovurilgan. Yosh qizlar nasroniylar yashaydigan qo‘shni shaharga yuborilib, cho‘chqa go‘шти yeyishga hamda ichkilik ichishga majbur qilingan. Ularning ko‘pchiligi badnom qilingan, 50 nafar kishi o‘ldirilgan (Griswold, 2008).

Yuqoridagi misoldan ko‘rinadiki, to‘qnashuv shunchaki kelishmovchilik masalasi emas. Madaniy guruhlar orasidagi to‘qnashuvlar avj olib, avlodlar orasidagi katta fojealarga aylanib ketishi mumkin¹.

Umuman, madaniyatlararo to‘qnashuvlarni tushunish madaniyat va to‘qnashuvning o‘zaro aloqada bo‘lgani uchun ham alohida ahamiyatga ega. Ya’ni madaniy farqlar to‘qnashuvlarni keltirib chiqarar ekan, kishilar bu to‘qnashuvlarni bartaraf etish yo‘llarini bilishlari lozim.

Nazorat uchun savollar

1. Madaniyatlararo aloqalar qanday muammolarni keltirib chiqaradi?
2. Madaniyatlararo to‘siqlar deganda nimani tushunasiz?
3. Madaniyatlararo muloqotdagi lisoniy to‘siqlarni izohlang.
4. Noverbal muloqotdagi to‘siqlarni tushuntiring.
5. Turli madaniyat vakillarining o‘ziga xos milliy va etnik tafakkuri qanday to‘siqlarni yuzaga chiqaradi?
6. Qadriyat farqlari qanday to‘siqlarni yuzaga keltiradi?
7. To‘qnashuvlarning yuzaga kelishi qanday sabablar bilan izohlanadi?
8. Shaxslararo to‘qnashuvlar kimlarning o‘rtasidagi yuz beradi?
9. Ijtimoiy to‘qnashuvlarning yuzaga kelishiga nimalar sabab bo‘ladi?
10. Xalqaro miqyosdagi to‘qnashuvlarni izohlang.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. “Madaniyatlararo to‘siqlar” mavzusida yozma ish tayyorlash.
2. “Madaniyatlararo to‘qnashuv turlari” mavzusida taqdimot tayyorlash.

Adabiyotlar

1. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
2. Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. -77 с.

¹ Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 426.

14-MA'RUZA

MADANIYATLARARO MULOQOTDA MADANIY VA LINGVISTIK SHOK HODISALARI

Reja:

1. Madaniy shok va uning shakllari
2. Madaniy shok rivojlanishining mexanizmlari
3. Madaniy shokka ta'sir ko'rsatuvchi omillar
4. Lisoniy shok yoki aldoqchi so'zlar

Tayanch so'z va iboralar: madaniy shok, lisoniy shok, madaniyat omillari, madaniyat me'yorlari, psixologik moslashish, madaniyat farqlari, madaniy shok belgilari, yangi madaniyatga o'tish jarayoni, madaniyatga to'la moslashish, madaniy masofa, aldoqchi so'zlar.

14. 1. Madaniy shok va uning shakllari

Yangi madaniyatning insonga bo'lgan qattiq ta'sirini mutaxassislar madaniy shok deb nomlashadi.

Madaniy shok – individning o'ziga tanish signallar bo'lmagan yangi muhitda o'zini ma'lum bir muddat noqulay, besaranjom his qilishidir.

Madaniy shok termini 1955-yilda antropolog Kalvero Oberg tomonidan taklif qilingan. Olimning fikricha, madaniy shok ham muayyan belgilalar (qo'lni qayta-qayta yuvish, jahldorlik, asabiylashish va h.k.)ni o'zida aks ettirgan kasallikka o'xshaydi. Agarda u to'g'ri yo'l bilan davolansa (ya'ni, muhojir til o'rgansa, do'stlar orttirs va h.k.), muhojir yangi madaniy muhitga moslashishi va o'zini uyidagidek his qilishi mumkin bo'ladi¹.

Madaniy shok muhojir yoki chet tili o'rganuvchisining ajablanishi, hayratlanishi yoki tili o'rganilayotgan madaniyat omillarini qabul qilmaslik holatini ifodalaydi. Madaniy shok til o'rganuvchining yangi madaniyatga noto'liq moslashishi yoki bu madaniyat me'yorlarini bilmasligi, tushunmasligidir.

Har qanday xorijliklikning o'z boshidan madaniy shok holatini kechirishi tabiiydir. Shuningdek, kishi o'z vatanida ham begona muhitga tushib qolganida madaniy shokka duch kelishi mumkin. Madaniy shok boshqa madaniyat bilan yaqinroq tanishish va yangi dalillarni qiyoslash natijasida o'z madaniyatini unuta borgan sayin barham topa boshlaydi².

Madaniy shok yuzaga kelishining quyidagi shakllari mavjud:

- psixologik moslashishga intilish oqibatidagi zo'riqish;

¹ Oberg K. Cultural shock: Adjustment to new cultural environments // Practical Anthropology. № 7, 1960. –P. 177-182.

² Кавинкина И.Н. Психолингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. –Гродно: ГрГУ, 2010. –С. 162-163; Беянин В. П. Психолингвистика. –М., 2004. –С. 163.

- do‘stlari, qarindosh-rug‘laridan ajralish, o‘z yurtidagi kasbi va maqomini yo‘qotish hissi;
- yangi madaniyatdagi yolg‘izlik hissi;
- rollardagi buzilish;
- madaniyatlardagi farqlardan bezovtalanish;
- vaziyatni boshqara olmaslikdan cho‘chish.

Madaniy shokning asosiy sababi madaniyatlar o‘rtasidagi farq hisoblanadi. Madaniy shok belgilari turli-tuman: idish-tovoq, o‘rin-ko‘rpa, kiyim-kechak tozaligi, suv yoki yeguliklar sifati haqida qayg‘urishdan tortib uyqusizlik, qo‘rquv, asabiylashish kabi organizm funksiyalarining buzilishigacha bo‘lishi mumkin. Ular depresiyaga, ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka, hatto joniga qasd qilishga olib kelishi mumkin¹.

Madaniy shok o‘zga madaniyat me‘yorlarini bilmaslik holatlarida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Masalan, bir paytlar O‘zbekistonga Xitoydan tashrif buyurgan delegatsiyani oq xrizantema gullari bilan qarshi olingan. O‘sha paytda xitoylik mehmonlarning madaniy shok holatiga tushganliklarini tasavvur qilish qiyin emas. Chunki, Xitoyda oq xrizantema qayg‘u, dard-alam, motam ramzi hisoblanadi. Odatda qadimda oq xrizantema marhumning qabriga qo‘yilgan. Bu an‘ana hozirgi kungacha saqalanib qolgan. Jumladan, Pekindagi Mao Tszedun maqbarasining kiraverishiga buyuk dohiyga chuqur qayg‘u va hurmat belgisi sifatida oq xrizantema gulini qo‘yish mumkin.

Madaniy shokka faqat salbiy oqibatlar sifatida qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Garchi, madaniy shok yangi madaniyatga o‘tish davridagi muqarrar jarayon bo‘lsa-da, unga madaniy aloqa sifatida qarash jarayonni yengil kechishiga olib keladi. Binobarin, zamonaviy tadqiqotchilar madaniy shokka yangi sharoitga ko‘nikish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraydilar. Bundan tashqari, shaxs ushbu jarayonda yangi madaniyat va uning me‘yorlari haqida bilimga ega bo‘ladi, uning dunyoqarashi kengayadi, o‘zga madaniyatlarga hurmati ortadi. Bunga o‘z (Sh.Usmanova) tajribamda uchragan quyidagi holatni misol qilib

¹ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. –СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 17; Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. –М.: Русский язык, 2009. –С. 128; Бороноев А.О. Этническая психология. –СПб.: СПбГУ, 1994. -168 с.

keltirmoqchiman:

*2000-yili Busan chet tillari universitetining taklifiga binoan koreys talabalariga o'zbek tilidan dars berish uchun Janubiy Koreyaga bordim. Janubiy Koreyadagi hayotimning dastlabki haftasida bir koreys talabaga saqich berdim. U saqichni chapillatib chaynashga tushdi. Talaba qiz juda odobli, tarbiyali va nazokatli edi. Bunday qizning madaniyatning oddiy qoidalaridan bexabar ekanligi meni hayratga soldi. Bu voqeadan 3-4 kun o'tgach, o'zbek tili kabinetida choy tashkil qilib, bir guruh talabalarni choyga taklif qildim. Ularni o'zbek shirinliklari bilan mehmon qildim. Talabalarining aksariyati shirinliklarni chapillatib yeyishga boshlashdi. Men **“madaniy shok”** holatiga tushdim. Toqatim toq bo'lib, koreys talabalarini **“tarbiyalab”** qo'ymoqchi bo'ldim va chapillatib yeyish madaniyasizlik ekanligi, boshqalarda yaxshi tasavvur qoldirmasligini tushuntirdim. Talabalar juda noqulay ahvolga tushishdi, uzr so'rashdi. Keyin xijolatomuz ohangda chapillatib yeyishning Koreyada biron yegulik bilan mehmon qilgan kishiga nisbatan hurmat, minnatdorchilik, qolaversa, yegulikning juda mazaliligiga ishora ekanligini aytishdi. Men juda noqulay ahvolga tushib qoldim. Shundan so'ng koreys xalqiga, madaniyatiga hurmatim oshdi.*

14. 2. Madaniy shok rivojlanishining mexanizmlari

Madaniy moslashish bir qancha bosqichlarga ajraladi:

Boshlang'ich bosqichda inson chet elga ketish arafasida hayajon, quvonch yoki xavotir va tashvishga tushadi. Boradigan mamlakati haqida ma'lumotlar to'playdi, til bilan chuqurroq tanishadi. U yerga to'la kuch-g'ayrat va shijoat bilan boradi. Bundan tashqari, chet elda ham uning kelishiga tayyorgarlik ko'riladi, uni kutishadi. Dastlabki vaqtlarda u atrofdagilardan yordam oladi, ma'lum imtiyozlarga ega bo'ladi. Biroq mazkur davr juda tez o'tib ketadi.

Ikkinchi bosqichda xorijiy mamlakatdagi notanish muhit va yot madaniyat o'zining salbiy ta'sirini ko'rsata boshlaydi. Bu davrda inson o'zini musofir, yolg'iz his qiladi. Mahalliy aholini tushunmaslik oqibatida u umidsizlikka tushishi, ruhiy zo'riqishi, asabiylashishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, madaniy shokning barcha belgilari kuzatiladi. Shuning uchun bu davrda muhojirlar reallikdan qochib, hamyurtlari bilan muloqot qilishni afzal ko'rishadi.

Uchinchi bosqich keskin, og'ir payt hisoblanadi va bu davrda madaniy shok o'zining yuqori cho'qqisiga chiqadi. Mazkur holat jismoniy va ruhiy kasalliklarga olib kelishi mumkin. Muhojirlarning ma'lum qismi yangi muhitga ko'nika olmay taslim bo'ladi va o'z yurtiga qaytib ketadi. Lekin ularning aksariyati o'zida madaniyat farqlarini yengishga, til o'rganishga, mahalliy madaniyat bilan tanishishib u bilan murosa qilishga, do'stlar orttirishga kuch topadi.

To'rtinchi bosqich muhojirlikning 2-3-yilida boshlanishi mumkin. Asta-sekin osoyishtalik yuzaga kelib, kishida mazkur mamlakat haqida u yoki bu

darajadagi obektiv fikrlar shakllanadi. Unda har narsaga yaxshi nazar bilan qarash boshlanadi, o'ziga ishonch hosil bo'ladi. O'zining yangi jamiyat va madaniyatdagi mavqeyidan qoniqish, yangi jamiyat hayotiga ko'nikish va u bilan birlashish muvaffaqiyatli amalga osha boshlaydi.

Beshinchi bosqichda yangi madaniyatga to'la moslashish yuz beradi. Bu davrda individ bilan uni o'rab olgan atrof-muhit o'zaro bir-biriga muvofiqlashadi. Mazkur bosqich moslashish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan omillarga ko'ra bir necha oydan 4-5 yilgacha davom etishi mumkin.

Oltinchi bosqich uyga ketish arafasidagi moslashuv davri hisoblanadi. Unda kishi ayrim muammolar bilan bog'liq qattiq hayajon alomatlari kuzatiladi. Ya'ni u hali xorijda bo'lgani holda xayoli uyida bo'ladi.

Yettinchi bosqich o'z yurtiga moslashish davridir. Bu bosqichning dastlabki davrida kishi xorijdan uyiga qaytganiga, oilasi, do'stlari bilan uchrashganiga xursand bo'ladi. Keyin unga o'z madaniyatini g'alati bo'lib tuyuladi, o'z yurtida o'zini begonadek his qila boshlaydi. Ko'pincha, xorijdagi xotiralari bilan yashaydi, u yerda ko'rganlarini hozir ko'rayotganlari bilan qiyoslaydi. Keyinchalik asta-sekin ona yurtidagi hayotga ko'nika boshlaydi.

14. 3. Madaniy shokka ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Madaniy shokning ifoda darajasi va madaniyatlararo moslashishning davomiyligi juda ko'p ichki (individual) va tashqi (guruhiy) omillarga bog'liq bo'ladi.

Birinchi guruh omillar ichida insonning jinsi, yoshi va fe'l-atvori kabi individual xususiyatlari muhim hisoblanadi. Kishining yoshi moslashishning murakkab unsuri hisoblanadi. Kishining Yoshi qanchalik katta bo'lsa, uning yangi madaniyatga moslashishi shunchalik qiyin kechadi. Madaniy shokni og'ir va uzoq o'tkazadi, yangi madaniyat modellarini sekin qabul qiladi. Aksincha, yosh bolalarning moslashishi tez va muvaffaqiyatli kechadi. Biroq mazkur davr maktab o'quvchilari uchun qiyin bo'ladi. Keksalar esa madaniyatga moslashishga umuman tayyor bo'lmaydi.

Jins ham moslashish jarayoniga va madaniy shokka ta'sir ko'rsatadi. Ilgari ayollarning yangi muhitga ko'nikishi erkaklarga nisbatan qiyinroq kechadi, deb hisoblangan. Lekin bu yangi joyda ham uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanadigan va yangi kishilar bilan muloqot qilishi cheklangan an'anaviy jamiyatlarning ayollariga tegishlidir. Rivojlangan davlatlardan bo'lgan ayollarning madaniyatga moslashish qobiliyatlari erkaklardan farq qilmaydi. Hatto amerikalik ayollarning erkaklarga nisbatan madaniyatga yaxshiroq moslasha olishlari haqida ma'lumotlar mavjud. Shuning uchun keying yillarda tadqiqotchilar moslashish uchun ko'proq ta'lim omilini muhim, deb hisoblashmoqda. Ta'lim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, moslashish shunchalik muvaffaqiyatli kechadi. Ta'lim, hatto madaniy mohiyatni hisobga olmaganda ham insonning ichki imkoniyatlarini kengaytiradi. Insonning olam manzarasi qanchalik murakkab bo'lsa, u yangiliklarni shunchalik tez qabul qiladi¹.

¹ Бороноев А.О. Этническая психология. –СПб.: СПбГУ, 1994. -168 с.

Ushbu masala bilan bog'liq holda tadqiqotchilar tomonidan xorijiy mamlakatda, chunonchi, o'zga madaniyat sharoitlarida yashashga hozirlik ko'rayotgan kishilar uchun zarur bo'lgan umumiy xususiyatlar majmuyi ishlab chiqilgan:

- kasbiy salohiyat;
- yuqori darjadagi o'ziga o'zi baho berish;
- kirishimlilik;
- turli qarashlar uchun ochiqlik;
- atrofdagi odamlarga qiziqish;
- hamkorlikka moyillik;
- noaniqlikka sabr-toqatlilik;
- ichki nazorat;
- jasorat va qat'iyat¹.

Madaniy shokni bartaraf etish va moslashishning ichki omillariga insonning hayotiy tajriba muhiti ham kiradi. Bu o'rinda moslashishga bo'lgan motivlar juda muhim ahamiyatga ega. Odatda mihojirlardagi eng kuchli motivatsiya – xorijiy davlatga doimiy yashash uchun ko'chib o'tish va tezroq yangi madaniyatning to'liq a'zosi bo'lishni xohlashdir. Chet elda ta'lim oladigan va o'z maqsadiga tezroq hamda to'liq erishishni xohlaydigan talabalarda ham motivatsiya darajasi yuqori bo'ladi. Chet elga ko'chib kelishga majbur bo'lgan muhojirlar va qochoqlarning yangi jamiyat va madaniyatga moslashishi og'ir kechadi. Muhojirlar motivatsiyaga ko'ra, boriladigan mamlakat tili, tarixi va madaniyati bilan tanishadilar. Mazkur bilimlarning mavjudligi moslashishni yengillashtiradi².

Agar kishi o'zga madaniyat muhitida yashash tajribasiga ega bo'lsa, u holda bu tajriba uning tezroq moslashishida asqotadi. Mahalliy aholi orasida do'stlarning mavjudligi ham moslashish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, mazkur davlatda yashaydigan sobiq hamyurtlar bilan aloqa qilish bir tomondan (ijtimoiy, hissiy, ba'zan moddiy) qo'llab-quvvatlashni ta'minlasa, boshqa tomondan muloqotning tor doira bilan cheklanib qolish xavfini tug'diradi³.

Moslashish va madaniy shokka ta'sir ko'rsatadigan tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

- madaniy masofa – o'z madaniyati va o'zlashtirilayotgan madaniyat orasidagi farqlarning darajasi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, moslashishga madaniy masofaning o'zi emas, balki insonning madaniy masofa haqidagi tasavvurlari, uni his etishi, binobarin, qator omillarga bog'liq bo'lgan hozirda va o'tmishda urush yoki to'qnashuvlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi, o'zga til va madaniyatni bilish ta'sir ko'rsatadi;

- muhojir mabsub bo'lgan madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari. Bu jarayonga o'zini juda yuqori tutadigan va boshqalarni o'ziga moslashishi kerak, deb hisoblaydigan buyuk davlat vakillarining moslashishi qiyin kechadi;

¹ Бороноев А.О. Этническая психология. –СПб.: СПбГУ, 1994. -168 с.

² Берри Д.У. Аккультурация и психологическая адаптация. –М: Наука, 2002. -296 с.

³ Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. –С. 18-20.

- tashrif qilinadigan mamlakatdagi sharoitlar, ya'ni bu mamlakat aholisining musofirlarga yaxshi munosabatda bo'lishga, ularga yordam berishga va ular bilan muloqot qilishga qay darajada tayyor ekanligi¹.

Yuqorida aytilganlardan shuni xulosa qilish mumkinki, bugungi globallashuv, integratsiyalashuv, madaniyatlar orasida aloqalarning rivojlanishi jarayonida madaniy shokning yuzaga chiqishi muqarrar va tabiiydir. Madaniy shok yangi sharoitga ko'nikish jarayonining tarkibiy qismidir.

14. 4. Lisoniy shok yoki aldoqchi so'zlar

Madaniyatlararo muloqotda madaniy shokka o'xshash bo'lgan lingvistik shok hodisasi ham kuzatiladi.

Lingvistik shok ona tili uchun kulgili, g'alati va odobdan tashqari hisoblangan lisoniy birliklar qo'llanilgan xorijiy nutqni eshitgan insonning hayratlanishi, kulishi yoki xijolat bo'lishidir.

Masalan, turk tilida *düşmek* "yiqilmoq"ni, o'zbek tilida *tushmoq* "yuqoridan, balandlikdan pastga tomon yo'nalmoq; biron transportdan tushmoq va h.k." yoki *zor* "juda qiyin", *zo'r* "juda yaxshi" ma'nolarni ifodalaydi. Koreys tilida *oppa* akani, o'zbek tilida bunga qarama-qarshi ma'nodagi so'zni anglatadi. Tillararo bunday omonimiya hodisasi "tarjimonning aldoqchi do'stlari" muammosi sifatida tasvirlanadi.

Xullas, madaniyatlararo kommunikatsiya turlarining barchasiga xos bo'lgan umumiy xususiyat muloqot ishtirokchilari tomonidan madaniyat farqlarini tushunib yetmaslikdir. Gap shundaki, aksariyat kishilar o'zlarining dunyoni tushunishlari, hayot tarzlari va yashash yo'llarini to'g'ri deb hisoblashadi. O'zlari tanish bo'lgan qadriyatlarni hammabop va barcha uchun tushunarli deb o'ylashadi. Qachonki boshqa madaniyat vakillari bilan to'qnashganlarida o'zlari to'g'ri deb hisoblab kelgan qoliplar ish bermaganida muvaffaqiyatsizlik sababi haqida o'ylay boshlashadi.

Nazorat uchun savollar

1. Madaniy shok deganda qanday holat tushuniladi?
2. *Madaniy shok* termini qachon va kim tomonidan taklif qilingan?
3. Madaniy shokning qanday belgilari mavjud?
4. Madaniy shok yuzaga kelishining qanday shakllari mavjud?
5. Madaniy shok qaysi holatlarda ko'proq namoyon bo'ladi?
6. Moslashish va madaniy shokka ta'sir ko'rsatadigan ichki omillarga nimalar kiradi?
7. Moslashish va madaniy shokka ta'sir ko'rsatadigan tashqi omillarga nimalar kiradi?
8. Lisoniy shok deganda qanday holat tushuniladi?

¹ Берри Д.У. Аккультурация и психологическая адаптация. –М: Наука, 2002. -296 с.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. “Madaniy shok rivojlanishining mexanizmlari” mavzusida davra suhbatini o‘tkazish.
2. “Lisoniy shok va aldoqchi so‘zlar” mavzusida taqdimot tayyorlash.

Adabiyotlar

1. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
2. Oberg K. Cultural shock: Adjustment to new cultural environments // Practical Anthropology. № 7, 1960. –P. 177-182.
3. Берри Д.У. Аккультурация и психологическая адаптация. –М: Наука, 2002. -296 с.
4. Бороноев А.О. Этническая психология. –СПб.: СПбГУ, 1994. -168 с.
5. Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. -77 с.

GLOSSARIY

ASSIMILYATSIYA – madaniyatga moslashishning varianti bo‘lib, bunda kishi o‘z madaniyatining qadriyat va me‘yorlaridan voz kechib, o‘zga madaniyatning qadriyat va me‘yorlarini to‘laligicha qabul qiladi.

AUDITORIYA – axborotni qabul qilish va qayta ishlashiga ko‘ra ijtimoiy guruhlar va ularning psixofiziologik xususiyatlari jihatidan farqlanish.

BIXEVIORIZM (ingl. behavior – fe‘l-atvor) nazariyasi XX asrning boshlarida AQShda vujudga keldi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, psixologiyaning predmeti tafakkur emas, balki insonning fe‘l-atvoridir. Chunki, bixevioristlarning nazdida tafakkurni bevosita kuzatib yoki o‘lchab bo‘lmaydi. Bixeviorizm psixikaga kishining hayoti va faoliyati kontekstini kiritadi va uni tashqi ta’sirlar hamda organizmning fiziologik xususiyatlari bilan bog‘laydi. Bixeviorizm nuqtayi nazaricha, mahluqqa (bu odam yoki jonivor bo‘lishi mumkin va h.k.) ta’sir qiladigan qandaydir stimul (S) va ushbu stimulga qandaydir reaksiya (R) bor (S → R).

DISKURS – (fransuz tilidan “discours”) matnning og‘zaki so‘zlashuv shakli, dialog, bir-biriga ma’no jihatidan bog‘langan mulohazalar yig‘indisi, nutqiy asar. Diskurs shaxsning ruhiy holati, ichki kechinmalari, tafakkur malakasi kabi ruhiy-idrokiy xususiyatlar bilan uzviy aloqador bo‘ladi. Shu bilan birga, shaxsning muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi, ijtimoiy mavqeyi, savodxonlik, tafakkur, madaniyat darajasi va h.k. diskursning tuzilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

ETNIK GURUHLARARO KOMMUNIKATSIYA – turli xalq (etnik guruhlar) vakillari o‘rtasidagi muloqot. Ko‘pincha jamiyat o‘zining farqli submadaniyatini yaratadigan son jihatidan turlicha bo‘lgan etnik guruhlardan tarkib topadi. Etnik guruhlar o‘z submadaniyatlarini avloddan-avlodga meros qilib qoldiradi. Bu esa mazkur submadaniyatning hukmron madaniyat ichida o‘zligini saqlab qolishini ta’minlaydi.

EVFEMIZM (yun. “euphemism” < “eu” – “yaxshi” va “phemism” – “nutq”, “so‘zlashuv”dan kelib chiqqan bo‘lib, so‘zma-so‘z tarjima qilganda “yaxshi alomatli so‘z” ma’nosini ifodalaydi. Evfemizm – narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo‘pol beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol bo‘tmaydigan so‘z (ibora)ni qo‘llash. Masalan, *ikkiqat, bo‘g‘oz* so‘zlari o‘rnida *homilador, og‘ir oyoqli* so‘zlarini qo‘llash. Yoki *chayon* so‘zi tabuga uchragan, qo‘llanishi man qilingan bo‘lib, uning ma’nosi *eshak* so‘zida ifoda topgan.

FUNKSIONAL YO‘NDASHUV – shaxs va kommunikatsiyani o‘rganishdagi nazariyalardan biri. Bu yo‘ndashuvga ko‘ra, shaxsni bir tomondan o‘zlik, ikkinchi tomondan jamoa a’zoliqi yaratadi. O‘zlik bir qancha shaxslardan tarkib topadi va bu shaxslar tushunchasi madaniyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Xalqning madaniyatini turli metodlar yordamida tasvirlash mumkin. Shuningdek, madaniyatdagi har qanday o‘zgarishni ham tasvirlash va o‘lchash mumkin. Madaniyat insonning fe‘l-atvori va muomalasini belgilaydi. Shuning uchun ularni ham tasvirlash va oldindan aytish mumkin bo‘ladi.

GENDER – sotsio-madaniy kategoriya bo‘lib, jinslar rolini an’anaviy o‘rganishni nazarda tutmaydi. Gender – ijtimoiy va psixologik jarayonlarning yirik

majmuyi, shuningdek, jamiyatda vujudga keladigan va milliy lisoniy shaxsning axloqiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy ko'rsatmalar, qoidalaridir.

GENDER XUSUSIYAT – maskulinizm va feminizm madaniy tushunchalari hamda ayollik yoki erkaklikning o'ziga xos xususiyatlari.

GURUHLARARO KOMMUNIKATSIYA – muayyan guruh ichidagi yoki guruhlararo muloqot. Shuningdek, “muloqotchi va guruh” ko'rinishida, masalan, siyosat arbobi bilan suhbat bo'lishi mumkin.

HOKIMIYAT MASOFASI – madaniyat o'lchovlaridan biri. Bu o'lchovga ko'ra, jamiyatlar hokimiyat masofa darajasi yuqori va hokimiyat masofa darajasi past turlarga ajratiladi. Hokimiyat masofa darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda ierarxiya (pog'ona) me'yoriy hodisa hisoblanadi. Jamiyatning har bir a'zosi jamiyatda, oilada va kasbiy faoliyatda ma'lum mavqega ega bo'ladi. Hokimiyat masofa darajasi past bo'lgan mamlakatlar sifatida Angliya, AQSh va Skandinaviya davlatlarini ko'rsatish mumkin. Yaponiya, Koreya, jumladan, O'zbekiston ham xizmat ierarxiyasi va katta yoshlilarning obro'si yuqori ko'rsatkich hisoblanadigan davlatlar qatoriga kiradi.

HUDUDIY XARAKTER – shaxsning muayyan geografik hududga xos bo'lgan xususiyatlari. Dunyoning turli hududlarida alohida, o'ziga xos muhim madaniy xususiyatlar mavjud. Shimoliy Shotlandiyadagi tog'lik hududi Shotlandiyaning pasttekisliklaridan mutlaqo farq qiladi va tog'liklar juda kuchli hududiy harakteri bilan ajralib turadi. Hududiy xarakter kundalik-madaniy turmushdagi bir-biridan farq qiladigan milliy taomlar, kiyim-kechaklar, xulq-atvor va tilning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.

HUDUDLARARO KOMMUNIKATSIYA – turli viloyatlarda yashovchilar orasida yuzaga keladi. Binobarin, muayyan vaziyatda turli viloyat vakillarining fe'l-atvoridagi farqlar ko'zga tashlanadi. Masalan, toshkentliklar va vodiyliliklar muloqot chog'ida o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Jumladan, Toshkentda o'zidan kichiklarni sensirab gapirish (bu toshkentliklar uchun samimiylik belgisi, vodiyliliklar uchun qo'pollik belgisini ifodalaydi), vodiyni aksariyat hududlarida o'zidan kichiklarni sizlab gapirish odatiy hol sanaladi.

IJTIMOIIY-KOMMUNIKATIV TIZIM – muayyan lisoniy hamjamiyatda qo'llaniladigan, funksional jihatdan bir-birini to'ldiradigan, o'zaro aloqada bo'lgan kodlar yoki subkodlar majmuyi.

INTEGRATSIYA – ham eski, ham yangi madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.

INTERFERENSIYA – keng ma'noda ikki tillilik sharoitida til sistemalarining o'zaro ta'sirini; ikki tilli shaxslar nutqida u yoki bu til me'yorining buzilishini ifodalaydi. Tor ma'noda ikki tilli shaxsning og'zaki va yozma nutqida ona tili ta'sirida ikkinchi til me'yorlarining buzilishini anglatadi. Umuman, ikki tilni biladigan shaxsning bir tilining ikkinchi tilga ko'rsatgan har qanday ta'siri va bu ta'sirning natijasi *interferensiya* deyiladi.

INTRAPERSONAL KOMMUNIKATSIYA – ichki dialog. L. S. Vigotskiyning ichki nutq nazariyasiga kiradi.

IZOHLOVCHI YONDASHUV – shaxsning dinamik tabiati, uning boshqa kishilar bilan xabar almashishi, muhokama qilishi, muloqot qilishi orqali shakllanishiga asoslanadi. Bu kishining o‘z shaxsi haqidagi tasavvurlarining oddiy emasligini bildiradi. Izohlovchi yondashuvning maqsadi inson fe‘l-atvorini oldindan aytib berish emas, balki uni tushunish va tasvirlashdan iborat. *Tushunish* – individlarning o‘zlarini tavsiflash jarayoni bo‘lsa, *tasvirlash* – boshqalar tomonidan shaxsga beriladigan tavsif jarayonidir.

JAMOAVIY KOMMUNIKATSIYA – shaxslararo muloqot turi, unda ma’ruzachi, jamoat arbobi bilan auditoriya ishtirok etadi.

JESTLAR – kommunikatsiya jarayonida inson nutqining tana, qo‘l yoki barmoqlarning harakatlari bilan birga kechadigan va kishining bevosita suhbatdoshiga qaratilgan, qandaydir hodisaga, qandaydir shaxsga, qandaydir narsaga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan turli harakatlaridir. Kishilarning biron hodisa yoki holatni tushuntirish maqsadida ishlatadigan qo‘l harakatlari turli madaniyatlarda turlicha ma’no kasb etadi. Buning sababi madaniyatlararo ramzlar va tushunchalarning farqlanishidadir.

KOD – muloqot vositasi bo‘lib, u tabiiy tillar (o‘zbek, rus, ingliz va h.k.) hamda sun’iy tillar: esperanto yoki zamonaviy mashina tillari, morze alifbosi, turli signallar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Tilshunoslikda kod deganda lisoniy shakllar: til, hududiy yoki ijtimoiy dialekt, shahar koynesi tushuniladi.

KODLAR ARALASHUVI (yoki *bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish*) – nutqiy muloqot chog‘ida so‘zlovchining kommunikatsiya sharoitidan kelib chiqqan holda, bir tildan (yoki til variantlaridan, dialektdan, uslubdan) boshqa bir til ko‘rinishiga o‘tishi.

KOMMUNIKATIV VAZIYAT – ikki yoki undan ortiq kishilar nutqiy muloqotining vaziyati.

KOMMUNIKATSIYA – (lot. *communication, communis* “umumiy”) – xabarni uzatish, fikr va ma’lumotlar almashinuvi, ya’ni muloqot qilishdir. Kommunikatsiya – muloqot akti, ikki yoki undan ortiq kishi o‘rtasidagi o‘zaro hamfikrlikka asoslangan aloqa. Kommunikatsiya – kishilarning bir-biri bilan aloqa o‘rnatish va hissiyotlarini tushunish vositasi. Kommunikatsiya – tafakkurdagi ramzlar, ularni zamon va makonda uzatilishini o‘z ichiga olgan mexanizm bo‘lib, u inson munosabatlarini ta’minlanlashga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

KOMMUNIKATSIYA MANBASI – ijtimoiy jihatdan ahamiyatli axborotni keng tarqatish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar: ommaviy kommunikatsiya sohasini qo‘llab-quvvatlashga javobgar institutlar; bu sohani texnik ta’minotiga javobgar institutlar (davlat qo‘mitalari, davlat va xususiy teleradiokompaniyalar, ommaviy matbuot agentligi, nashriyotlar va h.k.

KONSEPT – lotin tilidagi *conceptus* «tushuncha» so‘zining kalkasidir. Rus tilshunosligida *konsept* tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S. Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. Ushbu termin tilshunoslikda o‘tgan asrning 80-yillariga qadar *tushuncha* so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib uning izohi *tushuncha* terminiga nisbatan kengayganini ko‘rish mumkin. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir

tomondan, madaniyat konsept ko‘rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba‘zan unga ta‘sir ko‘rsatadi.

LINGVOKULTUROLOGIYA (lot. lingua “til”; cultus “hurmat qilish, ta‘zim qilish”; yunon. “ilm, fan”) – madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasi. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o‘zaro aloqasini, o‘zaro ta‘sirini, tilda o‘z aksini topgan xalq madaniyatining ko‘rinishlarini tadqiq etadi. Lingvokulturologiya tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga kelgan. Lingvokulturologiya etnolingvistika, sotsiolingvistika lingvomamlakatshunoslik va etnopsixolingvistika bilan chambarchas aloqadadir. Lingvokulturologiyaning *obyekti* – madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi, o‘zaro ta‘sirini bir butunlikda tadqiq qilishdir. Lingvokulturologiyaning *predmeti* – madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma‘no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi.

LISONIY SHAXS – obyektiv voqelikni o‘z ko‘rishiga muvofiq tasvirlash va ma‘lum maqsadga erishish uchun muayyan tilning tizimli vositalaridan foydalangan holda ularni matnlarda aks ettirishi nuqtayi nazaridan tavsiflangan u yoki bu til sohibidir. Lisoniy shaxs – muayyan bilimlar va tasavvurlar majmuyiga ega bo‘lgan nutqiy faoliyatni namoyon qiluvchi shaxsdir.

LINGVISTIK SHOK – ona tili uchun kulgili, g‘alati va odobdan tashqari hisoblangan lisoniy birliklar qo‘llanilgan xorijiy nutqni eshitgan insonning hayratlanishi, kulishi yoki xijolat bo‘lishidir.

MADANIYAT – muayyan xalqqa xos bo‘lgan borliqdagi hayot va faoliyat, shuningdek, insonlar orasidagi o‘zaro munosabat (urf-odatlar, rasm-rusumlar, muloqot xususiyatlari) va dunyoni ko‘rish, tushunish va yaratish usullari. “Madaniyat” tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o‘zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o‘ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo‘llaniladi. Tor ma‘noda “madaniyat” termini kishilarning faqat ma‘naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi. Madaniyat – me‘yorlar, qadriyatlar, ideallar, namunalarning yo‘l-yo‘riqlari va ko‘rsatmalari tizimiga asoslangan subyektlar faoliyatining barcha shakllari majmuyi, u boshqa madaniyatlar bilan o‘zaro aloqada yashaydigan jamoaning meros qilib olgan xotirasi.

MADANIYATGA MOSLASHISH – madaniyatlarning o‘zaro ta‘sir jarayoni bo‘lib, u biron bir xalq yoki biron bir xalq vakili tomonidan boshqa xalq madaniyatining to‘liq yoki qisman qabul qilinishini ifodalaydi. Madaniy moslashish boshlang‘ich, ko‘nikish, moslashuv, osoyishtalik, uyga ketish arafasidagi moslashuv va so‘nggi bosqichlarga ajraladi.

MADANIYATLARARO MULOQOT – turli madaniyat vakillari orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot bo‘lib, unda kishilar o‘rtasidagi bilvosita aloqa, shuningdek, kommunikatsiyaning bilvosita shakli (til, nutq, yozuv, elektron muloqot) nazarda

tutiladi. Ba'zan madaniyatlararo muloqot "madaniyatlar kesishuvi" ("cross-cultural")ni ham ifodalaydi. Madaniyatlararo muloqot – muayyan madaniyat va til sohiblarining o'zga madaniyat va til vakillari bilan verbal (nutqli) va noverbal (nutqsiz) muloqot vositasidagi o'zaro aloqa jarayonidir. Bunday muloqotning har bir ishtirokchisi o'zining shaxsiy qoidalari tizimiga ega bo'ladi.

MADANIYAT TILI – mavjud bo'lgan yoki qaytadan hosil bo'lgan tasavvurlar, tushunchalar, obrazlar va boshqa ma'naviy konstruksiyalar tuzilishining belgilar va ularning munosabatlari tizimi vositasida shakllanishi.

MADANIY SAVODXONLIK – "jamoaviy hamkorlik ruhi"ni yaratish bo'lib, u bizni dunyoni bilish hamda muloqotning standart vositasiga egalik qilishimizga va shu tariqa zamon va makonga ko'ra yozma va og'zaki murakkab axborotlarni qabul qilish va uzatishimizga imkon beradi. Biroq madaniy savodxonlik faqat madaniy o'ziga xos axborotgina bo'lib qolmay, balki borliq haqidagi yaxlit axborot hamdir. Madaniy savodxonlik – joriy madaniy axborotni doimiy to'ldirib borishni talab qiladigan madaniyatlararo qobiliyatning dinamik komponentidir.

MADANIY SHOK – madaniyatlararo to'qnashuvlarning ko'rinishlaridan biri bo'lib, u xorijiy tilni o'rganuvchining ajablanish, hayron bo'lish yoki tili o'rganilayotgan madaniyat omillarining qabul qilmaslik holatini ifodalaydi. Madaniy shok til o'rganuvchining madaniyatga noto'liq moslashuvi yoki u uchun yangi bo'lgan madaniyat me'yorlarini bilmasligi, tushunmasligidir.

MARGINALIZATSIYA – bir tarafdin o'z madaniyati xususiyatlarini yo'qotish va boshqa tarafdin ko'pchilik, ya'ni o'zga madaniyat xususiyatlarining mavjud emasligini anglatadi. Bunday vaziyat o'ziga xos xususiyatlarni saqlab qolish imkoniyati bo'lmagan (odatda qandaydir tashqi ta'sirlar sababli) va yangi xususiyatlarni o'zlashtirishga qiziqishning yo'qligi tufayli yuzaga chiqadi.

MENTALITET (nem. mentalität < lot. mens, mentis – aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati. Mentalitet – xalq mentalligini, uning aqliy va ruhiy quvvatining ichki tuzilishini va differentsiatsiyasini aks ettiradigan kategoriya. Mentalitetlar turli masshtablardagi lingvomadaniy jamoalarning psixolingvo-intellektlarini namoyon qiladi. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos an'analari, rasm-rusmlari, urf-odatlarini, diniy e'tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.

METAFORA (yun. metaphora - ko'chirish) – hosila ma'no yuzaga kelishi, u biron predmet nomini boshqa predmetga o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirishdir. Metafora – o'xshatishning qisqargan shakli. Metafora nafaqat qisqargan o'xshatish, shu bilan birga, qisqargan qarama-qarshilik hamdir. Metafora tildagi universal hodisa bo'lib, uning universalligi makonda va zamonda, til strukturasida hamda uning vazifalarida namoyon bo'ladi. Metafora o'zida fundamental madaniy qadriyatlarni aks ettiradi.

MILLIY XARAKTER – u yoki bu millat vakiliga oid bo'lgan o'ziga xos jismoniy va ma'naviy xususiyatlar majmuyi, xulq-atvor va faoliyat me'yori.

Milliy xarakter xalqning dini, siyosati, urf-odatlarini, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o'ri bilan ham chambarchas bog'liq.

MONOXRON MODEL – madaniyatlar tipologiyasining vaqtga bo'lgan o'lchovlaridan biri. Unda vaqt inson uchun kesimlarga ajralgan yo'l sifatida obrazli gavdalanadi. Vaqtning bunday qismlarga bo'linishi tufayli ushbu madaniyatdagi inson vaqtni muayyan darjada boshqarish mumkin deb o'ylaydi: u faqat bir ish bilan shug'ullanadi, shuningdek, vaqtni ish uchun va hissiy aloqalar uchun taqsimlaydi. Monoxron madaniyatlarda 10-15 daqiqaga kech qolish mumkin, biroq bunday holatlarda kechirim so'rash kerak bo'ladi.

NOVERBAL KOMMUNIKATSIYA – noverbal vositalar yordamida amalga oshiriladigan muloqot. Noverbal vositalar deganda jestlar (tana, qo'l harakatlari), imo-ishoralar (mimika), tegish (qo'l tegizish, quchoqlash, silash, o'pish va h.k.), tana holati, kishilar orasidagi masofa kabilar tushuniladi. Noverbal (so'zsiz, nutqsiz) kommunikatsiya muloqot qilayotgan individlarning bir-biriga o'zaro ta'siri va emotsional holati haqida signal beruvchi muloqot shaklidir. Noverbal kommunikatsiya kishilar o'rtasidagi noverbal xabarlar almashinuvi va ularning talqinini bildiradi. Har bir madaniyat borliqini o'ziga xos belgilar va ramzlar yordamida aks ettirgani uchun ham noverbal muloqot yuzaga chiqadi.

NUTQ ETIKETI – insonlarning rasmiy va norasmiy vaziyatlardagi o'zaro muloqotida ularning ijtimoiy va psixologik rolga mos ravishda amal qilinadigan ijtimoiy va madaniy o'ziga xos nutqiy muomala qoidalari. Nutq etiketi – bu "ijtimoiy silliqlangan" hudud, muloqotning milliy-madaniy komponenti.

NUTQIY XULQ-ATVOR – kommunikativ vaziyat ishtirokchilari, ya'ni so'zlovchi yoki tinglovchining nutqi yoki nutqiy reaksiyasini ko'rsatuvchi o'ziga xos xususiyatlar.

OMMAVIY KOMMUNIKATSIYA – matbuot, radio, televideniye kanallari vositasida amalga oshiriladi. Unda yuboruvchi bir kommunikant hamda oluvchi omma bo'ladi.

OMMAVIY AXBOROT KANALLARI – ma'lumotlarning sifat va miqdoriy xususiyatlari xarakteristikasi, ularni adekvat uzatishning texnik imkoniyatlari va auditoriya mosligini ta'minlaydigan kitob, gazeta, jurnallar nashriyoti, teleradio tarmoqlari.

POLIXRON MODEL – madaniyatlar tipologiyasining vaqtga bo'lgan o'lchovlaridan biri bo'lib, unda qat'iy jadval bo'lmaydi, bir vaqtning o'zida bir qancha hodisalar yuz berishi va inson bir paytda bir qancha ish bilan shug'ullanishi mumkin. Bu yerda vaqt chatishgan chiziq ko'rinishida tushuniladi. Mazkur madaniyat vakillari uchun vaqt "moddiylik"dan kamroq hisoblanadi, shuning uchun vaqtni behudaga sarflash tushunchasi ular uchun begonadir. Tilda vaqt tushunchasini ifodalaydigan bironta ham so'z bo'lmagan madaniyatlarda (masalan, Shimoliy Amerikaning ayrim hindu qabilalarida) 40-60 daqiqaga kechikish va buning uchun kechirim so'ramaslik me'yoriy hol hisoblanadi.

RAMZ – tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksi. Ramz belgi bo'lib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalaniladi. Agarda oddiy belgi insonga

ma'nolarning predmetlar olamiga kirish imkoniyatini bersa, ramz ma'noviy munosabatlarning predmetlar mavjud bo'lmagan olamiga kirish imkoniyatini beradi. Ramz insonning anglab bo'lmaydigan botiniy tomoniga murojaat qiladi. Ramzni o'z predmeti bilan aloqasini yo'qotgan ma'no sifatida tasavvur qilish mumkin. Ijtimoiy muloqot tizimida muayyan obyektlar, masalan, predmet, harakat, hodisa, matn, tasvir, hayvon, o'simlik, rang, raqam va h.k. ramz bo'lib xizmat qiladi. Ramzlar moddiy (buyum, predmet), tushunchaviy, so'zli, tasviriylar va ovozlilar bo'lishi mumkin.

SEPARATSIYA – o'z madaniyatining xususiyatlarini saqlagani holda, o'zga madaniyatni rad etishi. Bunday holatlarda hukmron bo'lmagan guruhlarning vakillari hukmron madaniyatdan u yoki bu darjada uzoqroq turishni ma'qul ko'rishadi.

SOTSIOLINGVISTIKA – tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo'lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liqligini o'rganadigan sohasi. Ijtimoiy sharoitlar deganda, amaldagi til rivojlanayotgan tashqi shart-sharoitlar majmuyi: mazkur tildan foydalanayotgan kishilar jamiyati, bu jamiyatning ijtimoiy strukturasi, til egalarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlari, shuningdek, ularning muloqot vaziyatiga bog'liq nutqiy muomalasidagi farqlar tushuniladi. Demak, sotsiolingvistika tilning jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy funksiyalari, ijtimoiy omillarning tilga bo'lgan ta'sir mexanizmi bilan bog'liq masalalarni o'rganadigan tilshunoslik sohasidir.

STEREOTIP – muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligi. Har qanday shaxs muayyan madaniyatlar bilan bog'langan stereotiplar olamida yashaydi. Stereotiplar ijtimoiy stereotiplar, muloqot stereotiplari, mental stereotiplar, madaniy stereotiplar, etnomadaniy stereotiplar va h.k. ga ajratiladi. Masalan, ijtimoiy stereotiplar shaxsning tafakkuri va muomalasini ko'rsatadi. Etnomadaniy stereotiplar biron bir xalqqa xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni ifodalaydi. Masalan, o'zbeklar mehmondo'stligi, ruslar tavakkalchiligi, qozoqlar qaysarligi, turklar hissiyotlilik, xitoyliklar sertakallufli, yaponlar xushmuomalaligi, italyanlar qiziqqonligi, estonlar sustkashligi, nemislar tartibga aniq rioya qilishi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqargan.

SUBKOD – funksional darajasi va hajmi "kod"dan kichik bo'lgan kommunikativ osttizim, tilning turi. Masalan, hozirgi o'zbek milliy tilining subkodlari bu – adabiy til, hududiy dialektlar, ijtimoiy jargonlar, shahar (Toshkent) koynesi hisoblanadi.

SUBMADANIYAT – ikkinchi darajali, tobe madaniyat tizimi (masalan, yoshlar submadaniyati va h.k.).

TABU – madaniy, diniy, irim yoki noxushlik uyg'otishi nuqtayi nazaridan muayyan xatti-harakatlar yoki ayrim so'zlar qo'llanishini taqiqlash. *Tabu* so'zi tonga tilidagi < *tapu* < *ta* – "belgilamoq", "ajratmoq" va *pu* – "butunlay"

soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, “butunlay ajratilgan”, “alohida belgilangan”, yaʼni “man etmoq, taqiqlamoq” maʼnosini anglatadi.

TAMADDUN (“sivilizatsiya” < lot. civilis – fuqaro) termini XVII asrda vujudga kelgan. Har bir madaniyatning oʻlimi boʻlgan oʻz tamadduni mavjud. Tamaddun har qanday ijtimoiy-madaniy dunyo rivojlanishining oxirgi bosqichidir. Madaniyat milliy, tamaddun xalqarodir. Ingliz-amerika anʼanalarida har qanday alohida ijtimoiy-madaniy dunyo sivilizatsiyadir. Madaniyat yangini yaratadi, tamaddun faqat maʼlum narsani tarqatadi.

TANQIDIY YONDASHUV – shaxs va kommunikatsiyani oʻrganishdagi nazariyalardan biri. Bu yondashuv tarafdorlari, avvalo, kommunikatsiyaning tarixiy vaziyati bilan qiziqishadi. Mazkur nuqtayi nazarga koʻra, madaniyat jang maydoni sifatida talqin etildi. Yaʼni, madaniy hodisalarning koʻplab izoh va talqinlari bir joyga yigʻiladi, har doim madaniy farqlarni belgilovchi va uning xarakterini tushuntiruvchi hukmron kuch mavjud boʻladi. Tanqidiy yondashuv tarafdorlarining fikricha, madaniy vaziyatlardagi hukmron kuchlarni tadqiq etish va tasvirlash kishilarni qarshi tura olishga va boshqa madaniyat vakillari bilan yanada samaraliroq muloqotni yoʻlga qoʻyishga oʻrgatadi.

TASVIRIY RAMZLAR biron bir belgi, alomat, koʻrinish yoki tasvirni ifodalovchi timsollardir. Turli tasvirlar, oddiy va murakkab geometrik figuralar, osmon jismlari, ierogliflar, harflar, hatto tinish belgilari tasviriy ramzlarni ifodalashga xizmat qiladi.

TIL – kishilar oqimini xalqqa aylantiradigan, mazkur nutq jamoasining oʻzini oʻzi anglashi, madaniyati, anʼanalarini saqlashi va ularni meros qilishi orqali millatni shakllantiradigan kuchli ijtimoiy vositadir. Til – madaniyatning koʻzgusi boʻlib, unda nafaqat insonni oʻrab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy oʻzini oʻzi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, anʼanalari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yigʻindisi va dunyoqarashi ham aks etadi.

VERBAL KOMMUNIKATSIYA – (lot. verbalis – ogʻzaki va lot. communicatio – muloqot) verbal vositalar yordamida amalga oshiriladigan, soʻzli, nutq ishtirokidagi muloqotdir. Verbal vositalarga insoniyat tabiiy tillarining turli belgilari (ularning ogʻzaki va yozma shakllari) kiradi.

VIRTUAL KOMMUNIKATSIYA – kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadigan muloqot turi. Shaxslararo, guruhlararo, ommaviy boʻlishi mumkin.

YOSH XUSUSIYATLARI – kishining yoshiga muvofiq qarashlari, xatti-harakatlari hamda oʻzini qanday tutishini madaniy-meʼyoriy qoidalarga koʻra aniqlanishi.

SHAXSLARARO KOMMUNIKATSIYA – ikki yoki andan ortiq shaxslar ishtirok etadigan muloqot. Verbal va nonverbal shakllarga ega boʻlishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati // "Hurriyat" gazetasi, 2002-yil, 17-aprel.
2. Canary D. J. & Hause K. S. Is there any reason to research sex difference in communication? // Communication Quarterly. Vol. 41. 1993. –P. 129–144.
3. Choi Yunhee. Biono komunikeishon. –Seul, 1999.
4. Clarke R. B. & Campbell D. T. A demonstration of bias in estimates of Negro ability // Journal of Abnormal and Social Psychology. Vol 51. 1955. –P. 585-588.
5. Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Universitet, 2014. -136 b.
6. Geertz C. The interpretation of culture. –New York: Basic Books, 1973. -473 p.
7. Hall E.T. The hidden dimension. Garden City, NY: Doubleday, 1966.
8. Hasegawa T., & Gudykunst W. B. Silence in Japan and the United States // Journal of Cross-Cultural Psychology. Vol. 29, 1998. –P. 668–684.
9. Hirsch E. D., Joseph F. Kett, Trefil J.. The New Dictionary of Cultural Literacy. –Boston, NY.: Houghton Mifflin Company, 2002.
10. Hofstede G. & Hofstede G. J. Cultures and organizations: Software of the mind (2nd ed.). –Boston: McGraw-Hill, 2004.
11. Jakobson R. Linguistics in its relation to other sciences //Main Trends of Research in the Social and Human Sciences. - Paris, 1970.
12. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
13. Kindaichi H. The Japanese Language. –Tokyo, 1978. -256 p.
14. Klenberg O. Tensions Affecting International Understanding. –New York, 1950.
15. Kumayama A. Japanese/American Cross-Cultural BusinessNegotiations // Intercultural Communication Studies, 1991. Volume: 1, Number 1. –P. 51-67.
16. Lakoff Robin. Language and The Women's Place. –New York: Oxford University Press, 2004. -328 p.
17. Lippman Walter. Public Opinion. –New York: Greenbook, 2010. -218 p.
18. Meyerhoff Miriam. Introducing Sociolinguistics. –New York: Routledge, 2006. -320 p.
19. Morsbach H. The importance of silence and stillness in Japanese nonverbal communication // A cross cultural approach. In F. Poyatos (Ed.). Cross cultural perspectives in nonverbal communication –Lewiston, NY: Hogrefe, 1988. –P. 201–215.
20. Oberg K. Cultural shock: Adjustment to new cultural environments // Practical Anthropology. № 7, 1960. –P. 177-182.
21. Pennebaker J. W., Mehl M.R., & Niederhoffer K.G. Psychological aspects of natural language use // Our words, our selves. Annual Review of Psychology. –№. 54. 2003. –P. 547–577.

22. Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. –Toshkent: “Tafakkur bo'stoni”, 2011. -196 b.
23. Redfield R., Linton R., Herskovits M.H. Memorandum on the study of acculturation. // American Anthropologist. № 38. 1936.–P. 149-152.
24. Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. – London: Routledge, 1989. -470 p.
25. Sapir E. Language: An introduction to the study of speech. -New York: Harcourt, Brace and company, 1921. -258 p.
26. Schober O. Beden Dili: Davranış Anahtarı. Çeviren: Süeda Özbent. –Istanbul: Arion Yayınevi, 2003.
27. Strauss W., & Howe N. Millennials and the pop culture. Great Falls, VA: Life Course Associates, 2006.
28. Tannen Deborah. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. –New York: William Morrow Paperbacks, 2007. -342 p.
29. Trudgill P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. – Harmondsworth: Penguin Books, 1995. –P. 62-83.
30. Usmanova Sh. O'zbekcha va Koreyscha so'zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol. 9. - Seoul, 2004. 48-60 pp.
31. Usmanova Sh. Xitoydagi til siyosati // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. –Toshkent: TDSHI, 2013. –B. 165-167.
32. Usmanova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. – Toshkent: Universitet, 2014. -84 b.
33. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari (O'quv qo'llanma). – Toshkent, 2015. -192 b.
34. Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. –P. 66-70.
35. Wood J. T. Gendered lives: Communication, gender and culture (11 th ed). – Boston: Cengage Learning, 2014. -341 p.
36. Абдувахобова М. Аёллар вербал нуткининг лексик преференциялари (инглиз, итальян ва ўзбек фольклор матнлари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. -№ 4. –Тошкент, 2013. –Б. 97-100.
37. Акиншина А. А. Стереотипы национальной культуры в межкультурном общении. –Н.Новгород: НГГУ, 2009.
38. Алишер Навоий. Ибратли ҳикоятлар ва ҳислатли ҳикматлар. Нашрга тайёрловчилар А.Тилавов, И.Сайдуллаев. –Тошкент: “Sano-standart”, 2016. - 520 б.
39. Антипов Г. А., Донских О. А., Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А. Текст как явление культуры. –Новосибирск: Наука; Сиб. отд-ние, 1989. -197 с.
40. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. –М.: Флинта, 2012. -376 с.

41. Бахтин Н. Б, Головкин Е. В. Социолингвистика и социология языка: Учебное пособие. –СПб.: ИЦ «Гуманитарная Академия»; Изд-во Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2004. -336 с.
42. Беликов В.И., Крысин Л.П. Социолингвистика. Учебник для вузов –М.: Рос. гос. гуманитар. ун-т, 2001. -315 с.
43. Берри Д.У. Аккультурация и психологическая адаптация. –М: Наука, 2002. -296 с.
44. Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. -141 с.
45. Бороноев А.О. Этническая психология. –СПб.: СПбГУ, 1994. -168 с.
46. Бубер М. Проблема человека. Перевод с немецкого. –Киев: “Ника-Центр”, “Вист-С”, 1998. -132 с.
47. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова. – М., 1980.
48. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. –М.: Русский язык, 1990. -246 с.
49. Винокур Г. О. Избранные работы по русскому языку. –М.: Учпедгиз, 1959. -492 с.
50. Дьяконова Е.М. Текст и интерпретация текста. Психология и социология чтения в Японии // Япония: культура и общество в эпоху НТР. –М., 1985.
51. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ маданияти мулоқот шакллари: Филол. фанлари ном... дисс. автореферати. –Самарканд, 1993.
52. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Оила фаровонлиги – миллат фаровонлиги. 6Т. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. -233 б.
53. Кордуэлл М. Психология А-Я. Словарь-справочник. –М.: Фаир-пресс, 2000. -448 с.
54. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. –М.: «Гнозис», 2002. -285 с.
55. Латышев И. А. Семейная жизнь японцев. –М.: Наука, 1985. -287 с.
56. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. -208 с.
57. Маҳмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998. -40 б.
58. Мечковская Н. Б. Социальная лингвистика. I. 2 изд. –М.: Аспект Пресс, 2000. -207 с.
59. -Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. -110 б.
60. Пирматова М. Ундовлар ва гендер дифференциацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. -№ 3. –Тошкент, 2013. –Б. 87-90.
61. Рогозная Н. Н., Мацура Аки. Японские невербальные средства общения // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. –М.: МАКС Пресс, 2001. .Вып. 16.
62. Саттор М. Ўзбек удумлари. –Тошкент, 1993.
63. Словарь социолингвистических терминов. Отв. ред.: В.Ю. Михальченко – М., 2006.

64. Сорокин Ю.А. Стереотип, штамп, клише: К проблеме определения понятий // Общение: Теоретические и прагматические проблемы. –М., 1978. –С. 133-138.
65. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. –М.: Слово, 2000. -624 с.
66. Усманова Ш., Каланова Д. Ўзбек ва корейс тилларида расмий мурожаат шакллари // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. III. – Тошкент: 2012. –Б. 162-166.
67. Усманова Ш. Маданиятлараро коммуникация турлари // Республика илмий-методик конференция материаллари. -Тошкент: ТДЮИ, 2013. -Б. 8-11.
68. Усманова Ш. Хитой лингвوماданиятида тановул қилиш таомилининг ўзига хос хусусиятлари // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, TDSHI, 2015-yil 28 noyabr. –Б. 31-36.
69. Усманова Ш. Этномаданий стереотипларнинг лингвوماданий таҳлили // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. VI. –Тошкент: “Akademnashr”, 2015. –Б. 120-122.
70. Усманова Ш. Нутқий мулоқотда кодлар ўзгариши ва интерференциянинг намоён бўлиши // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. Илмий тўплам. № 6.–Тошкент: ТошДШИ, 2015. –Б. 9-13.
71. Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда новербал воситаларнинг аҳамияти // Маданиятлараро мулоқот масалалари: тил, матн, таржима. Илмий-амалий анжумани материаллари. –Тошкент: ТошДШИ, 2016. –Б. 11-16.
72. Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. -77 с.
73. Хонигман Дж. Понятия // Личность, культура, этнос: современная психологическая антропология. –М., 2001.
- 74.<http://fikir.uz/posts/poems/9374.html>
- 75.<http://public.psych.iastate.edu/madon/katz.braly.replication.pdf>
76. <http://vjanetta.narod.ru/lekcia8.html>
77. <http://www.rae.ru/forum2012/273/1603>

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. MADANIYATLARARO MULOQOTNING ASOSLARI.....	6
1-ma’ruza. Madaniyatlararo muloqotning asosiy masalalari.....	6
1.1. “Madaniyatlararo muloqot” fanining maqsadi va vazifalari.....	6
1.2. “Madaniyatlararo muloqot” tushunchasining mohiyati va o‘ziga xos xususiyati.....	9
1.3. Madaniyatlar o‘zaro ta’sirining darajalari.....	11
2-ma’ruza. Madaniyatlararo muloqotni o‘rganish tarixidan.....	14
2.1. Madaniyatlararo muloqotning shakllanishi va rivojlanishi.....	14
2.2. Madaniyatlararo muloqotning boshqa fanlar bilan aloqasi.....	16
3-ma’ruza. Madaniyatlararo muloqotning asosiy tushunchalari.....	21
3.1. “Madaniyat” tushunchasi.....	21
3.2. “Til” tushunchasi.....	24
3.3. “Kommunikatsiya” tushunchasi.....	27
4-ma’ruza. Madaniyatlar tipologiyasi.....	30
4.1. Edvard Hall tipologiyasi	30
4.2. Erik Donald Xirsh tipologiyasi.....	33
4.3. Girt Xofstede tipologiyasi.....	35
II BOB. KOMMUNIKATIV FAOLIYAT.....	41
5-ma’ruza. Kommunikatsiya turlari.....	41
5.1. Kommunikatsiya turlari.....	41
5.2. Kommunikativ faoliyat darajalari.....	43
6-ma’ruza. Verbal kommunikatsiya.....	47
6.1. Kommunikativ faoliyatning verbal vositalari.....	47
6.2. Verbal muloqotning asosiy qoidalari.....	51
7-ma’ruza. Noverbal kommunikatsiya.....	57
7.1. Noverbal muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari.....	57
7.2. Kommunikativ faoliyatning noverbal vositalari.....	59
III BOB. MADANIYATLARARO MULOQOT JARAYONLARI.....	80
8-ma’ruza. Shaxs va madaniyatlararo muloqot.....	80
8.1. Shaxs va uni shakllantiruvchi omillar.....	80
8.2. Milliy xarakter	84
8.3. Hududiy xarakter.....	87
9-ma’ruza. Madaniyatlararo muloqotda stereotiplarning ahamiyati.....	91
9.1. “Stereotip” tushunchasi.....	91
9.2. Stereotip turlari	93
9.3. Stereotip yuzaga kelishining sabablari	97
10-ma’ruza. Madaniyatlararo muloqotda gender va yosh xususiyatlari.....	102
10.1. “Gender” tushunchasi.....	102
10.2. Genderga oid xususiyatlar.....	103
10.3. Yoshga oid xususiyatlar	113
11-ma’ruza. Til va madaniyatlararo muloqot	118

11.1. Diskurs tuzilishining milliy-madaniy xususiyatlari.....	118
11.2. Diskursda evfemizmlarning o‘rni.....	121
11.3. Kodlar aralashuvi.....	125
11.4. Interferensiya.....	128
IV BOB. INSON MADANIYATLAR CHORRAHASIDA.....	133
12-ma’ruza. Madaniyatga moslashish	133
12.1. Madaniyatga moslashish boshqa madaniyatni o‘zlashtirish sifatida.....	133
12.2. Madaniyatga moslashishning asosiy shakllari.....	136
13-ma’ruza. Madaniyatlararo to‘siqlar va to‘qnashuvlar.....	141
13.1. Madaniyatlararo to‘siqlar va ularning turlari.....	141
13.2. Madaniyatlararo to‘qnashuvlar va ularning yuzaga kelish sabablari.....	144
14-ma’ruza. Madaniyatlararo muloqotda madaniy va lingvistik shok hodisalari.....	148
14.1. Madaniy shok va uning shakllari.....	148
14.2. Madaniy shok rivojlanishining mexanizmlari.....	151
14.3. Madaniy shokka ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....	152
14.4. Lisoniy shok yoki aldoqchi so‘zlar	155
Glossariy.....	157
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	169

ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение	3
ГЛАВА 1. ОСНОВЫ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	6
Лекция 1. Основные вопросы межкультурной коммуникации.....	6
1.1. Цели и задачи межкультурной коммуникации.....	6
1.2. Специфика и значение понятия «межкультурная коммуникация».....	9
1.3. Уровни взаимодействия культур	11
Лекция 2. Из истории изучения межкультурной коммуникации.....	14
2.1. Возникновение и развитие межкультурной коммуникации.....	14
2.2. Связь межкультурной коммуникации с другими дисциплинами.....	16
Лекция 3. Базовые понятия межкультурной коммуникации.....	21
3.1. Понятие “культура”.....	21
3.2. Понятие “язык”.....	24
3.3. Понятие “коммуникация”.....	27
Лекция 4. Типология культур.....	30
4.1. Типология Эдварда Холла.....	30
4.2. Типология Эрика Дональда Хирша	33
4.3. Типология Гирта Хофстеда.....	35
ГЛАВА 2. КОММУНИКАТИВНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ.....	41
Лекция 5. Типы коммуникации.....	41
5.1. Виды коммуникации.....	41
5.2. Уровни коммуникативной деятельности.....	43
Лекция 6. Вербальная коммуникация.....	47
6.1. Вербальные средства коммуникативной деятельности.....	47
6.2. Основные правила вербальной коммуникация.....	51
Лекция 7. Невербальная коммуникация.....	57
7.1. Национально-культурная специфика невербальной коммуникации.....	57
7.2. Невербальные средства коммуникативной деятельности.....	59
ГЛАВА 3. ПРОЦЕССЫ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	80
Лекция 8. Личность и межкультурная коммуникация.....	80
8.1. Личность и факторы ее формирования	80
8.2. Национальный характер.....	84
8.3. Региональный характер.....	87
Лекция 9. Значение стереотипов в межкультурной коммуникации.....	91
9.1. Понятие “стереотип”.....	91
9.2. Типы стереотипов.....	93
9.3. Причины возникновения стереотипов.....	97
Лекция 10. Гендерные и возрастные особенности в межкультурной коммуникации.....	102
10.1. Понятие “гендер”.....	102
10.2. Гендерные особенности.....	103
10.3. Возрастные особенности.....	113
Лекция 11. Язык и межкультурная коммуникация.....	118

11.1. Национально-культурная специфика построения дискурса.....	118
11.2. Роль эвфемизмов в дискурсе.....	121
11.3. Переключение кодов.....	125
11.4. Интерференция.....	128
ГЛАВА 4. ЧЕЛОВЕК НА ПЕРЕКРЕСТКЕ КУЛЬТУР.....	133
Лекция 12. Аккультурация.....	133
12.1. Аккультурация как освоение чужой культуры.....	133
12.2. Основные формы аккультурации.....	136
Лекция 13. Межкультурные барьеры и конфликты.....	141
13.1. Межкультурные барьеры и их виды.....	141
13.2. Межкультурные конфликты и причины их возникновения.....	144
Лекция 14. Культурный и лингвистический шок в межкультурной коммуникации.....	148
14.1. Культурный шок и его формы.....	148
14.2. Механизм развития культурного шока.....	151
14.3. Факторы, влияющие на культурный шок.....	152
14.4. Лингвистический шок или ложные эквиваленты.....	155
Глоссарий.....	157
Список использованной литературы.....	169

CONTENTS

Introduction.....	3
CHAPTER I. FOUNDATIONS OF INTERCULTURAL COMMUNICATION	6
Lecture 1. Main issues of intercultural communication.....	6
1.1. Goals and Objectives of Intercultural Communication.....	6
1.2. Specifics and Definitions of Concept “Intercultural Communication”.....	9
1.3. Levels of Interaction Cultures.....	11
Lecture 2. The History of the Study of Intercultural Communication.....	14
2.1. The Appearance and Development of the Intercultural Communication.....	14
2.2. Contact Intercultural Communication with Other Disciplines.....	16
Lecture 3. Basic Concepts in Intercultural Communication.....	21
3.1. The Concept of "Culture".....	21
3.2. The Concept of "Language".....	24
3.3. The Concept of "Communication".....	27
Lecture 4. Typology of Cultures.....	30
4.1. The Typology of Edward Hall.....	30
4.2. The typology of Erik Donald Hirsch.....	33
4.3. Typology of Geert Hofstede	35
CHAPTER II. COMMUNICATIVE ACTIVITY.....	41
Lecture 5. Types of Communication.....	41
5.1. Types of Communication.....	41
5.2. Levels of Communicative Activity.....	43
Lecture 6. Verbal Communication.....	47
6.1. Verbal Means of Communicative Activity.....	47
6.2. Basic Rules of Verbal Communication.....	51
Lecture 7. Non-verbal Communication.....	57
7.1. National and Cultural Specifics of Non-verbal Communication.....	57
7.2. Non-verbal Means of Communicative Activity.....	59
CHAPTER III. PROCESSES OF INTERCULTURAL COMMUNICATION.....	80
Lecture 8. Identity and Intercultural Communication.....	80
8.1. Identity and Factors of its Formation.....	80
8.2. National Identity.....	84
8.3. Regional Identity.....	87
Lecture 9. Importance of Stereotypes in Intercultural Communication.....	91
9.1. The Concept of "Stereotype"	91
9.2. Types of Stereotypes.....	93
9.3. The Causes of Stereotypes.....	97
Lecture 10. Gender and Age Features in Intercultural Communication.....	102
10.1. The Concept of “Gender”	102
10.2. Gender Features.....	103
10.3. Age Features.....	113
Lecture 11. Language and Intercultural Communication.....	118
11.1. National-Cultural Specificity of The Construction of Discourse.....	118

11.2. The Role of Euphemisms in Discourse.....	121
11.3. Code Switching.....	125
11.4. Interference.....	128
CHAPTER IV. THE PEOPLE AT THE CROSS-CULTURAL DIFFERENCES...	133
Lecture 12. Cultural Adaptation.....	133
12.1. Cultural Adaptation to Other Cultural Norms.....	133
12.2. Basic Forms of Cultural Adaptation.....	136
Lecture 13. Intercultural Barriers and Conflicts.....	141
13.1. Intercultural Barriers and their Types.....	141
13.2. Intercultural Conflicts and the Causes of their Occurrence.....	144
Lecture 14. Cultural and Linguistic shock in Intercultural Communication.....	148
14.1. Cultural Shock and its Forms.....	148
14.2. The Mechanism of Development of Cultural Shock.....	151
14.3. Factors affecting cultural shock.....	152
14.4. Linguistic shock or False Equivalents.....	155
Glossary.....	157
References.....	169